

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo`lyozma huquqida
UDK**

NURMONOV FURQAT HAYITQULOVICH

**BADIIY-PUBLITSISTIK JANRLARNING
STILISTIK TADQIQI
(Nodavlat gazeta materiallari misolida)**

5A220102 – Lingvistika (O`zbek tilshunosligi) mutaxassisligi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

SAMARQAND - 2012

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

NURMONOV FURQAT HAYITQULOVICH

**BADIIY-PUBLITSISTIK JANRLARNING
STILISTIK TADQIQI
(Nodavlat gazetalari materiallari misolida)**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar
Rasmiy taqrizchilar:**

**A.Abdusaidov
Z.Aliqulov,
G`.Xasanov**

Magistrlik dissertatsiyasi o`zbek tilshunosligi kafedrasining 2012-yil 5- iyundagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan (13-sonli bayonnoma).

Kafedra mudiri:

prof. A.Abdusaidov

Magistrlik dissertatsiyasi YaDAKning 2012-yil ____ iyundagi yig'ilishida himoya qilingan va ____ foiz bilan baholangan. (Bayonnoma № ____)

**YaDAK raisi
A'zolari:**

prof. I.Haqqulov

SAMARQAND - 2012

REJA:

Kirish. Ishning umumiy tavsifi

Asosiy qism:

1. BADIY-PUBLITSISTIK JANRLAR TADQIQINING NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. Jahon tilshunosligi va o`zbek tilshunosligida gazeta janrlari tadqiqi.
- 1.2. Badiiy-publitsistik janrlarning o`ziga xos xususiyatlari.

2. LAVHA JANRINING STILISTIK XUSUSIYATLARI

- 2.1. Lavha janrining leksik-stilistik xususiyatlari.
- 2.2. Lavha janrining grammatik-stilistik xususiyatlari.

3. OCHERK JANRINING STILISTIK XUSUSIYATLARI

- 2.1. Ocherk janrining leksik-stilistik xususiyatlari.
- 2.2. Ocherk janrining grammatik-stilistik xususiyatlari.

4. FELETON JANRINING STILISTIK XUSUSIYATLARI

- 2.1. Feleton janrining leksik-stilistik xususiyatlari.
- 2.2. Feleton janrining grammatik-stilistik xususiyatlari.

Xulosa.

Adabiyotlar.

Ilovalar.

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyat hayotining oynasi va eng muhim axborot yetkazuvchi vositasi hisoblanadi. OAVning barcha turlari jamiyat taraqqiyotida o'ziga xos funksiyani bajaradi. Mustaqillik o'zbek matbuotida ham son, ham sifat o'zgarishlari qilishga, yangicha taraqqiyot omillarini belgilashga imkon berdi. Xolis, haqqoniy, tezkor, mazmunli axborot yetkazib berish manbai sifatida matbuotning o'рни va roli istiqlol yillarida yanada mustahkamlandi.

Matbuotning lisoniy xususiyatlarini o'rganish doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. XX asrning 90-yillarida yuz bergan ulkan ijtimoiy hodisa — istiqlol butun jamiyat hayotida, uning barcha jabhalarida tub yevrilish yasadi. Mustaqillik tufayli ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarimizda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bunday o'zgarishlar OAV tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. OAVning istiqlolning dastlabki yillaridagi holati, jamiyatdagi o'рни, jurnalistlarning mavqei, kelgusidagi vazifalari Prezident Islom Karimovning bir qator asarlari, jurnalistlar bilan uchrashuvlarida aniq belgilab berildi¹.

Istiqlol davrida matbuot, radio va televideniye materiallari ham shaklan, ham mazmunan yangilandi. Shuningdek, o'zbek matbuoti son va sifat jihatidan o'zgardi. Matbuotning jamiyatdagi o'рни va rolini yanada oshirish, taraqqiyot mezonlarini ko'rsatish, OAV faoliyati uchun zarur qonunlar ishlab chiqish Respublikamizning davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda matbuot tili leksikasini o'rganishga bo'lgan qiziqish ancha kuchaydi. Har bir xalqning eng asosiy ma'naviy boyliklaridan biri uning tilidir. Tilning asosiy materiali so'zdir. Tildagi barcha so'zlar lug'at tarkibini tashkil etib, ushbu so'zlar matbuot tili leksikasi orqali xalqqa tarqaladi. Xususan, gazeta tilini atroflicha o'rganish, adabiy til xususiyatlarini tadqiq etish bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun gazeta tili leksikasi muammolarini o'rganishning

¹ Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари. — Тошкент: Ўзбекистон, 1998, 557-558-бетлар.

ahamiyati nihoyatda katta. Matbuot materiallari yozma manba sifatida o'zbek adabiy tili rivojini o'rganish va baholash, adabiy til imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning boyligini namoyish qilish, tildan targ'ibot, tashviqot vositasi sifatida foydalanish, savodxonlikni oshirish singari jabhalarda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, milliy tildan faol foydalanishda obyektiv imkoniyatlar tug'ilishi gazeta tilida ixchamlik, ravonlik, haqqoniylik xususiyatlarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Matbuot leksikasining ravnaqi ijtimoiy-adabiy fakt sifatida gazeta tilining lingvistik va ekstralingvistik omillari bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek adabiy tilining publitsistik uslubi matbuot tili rivojida muhim o'rin tutadi. Mazkur uslub orqali omma bilan doimiy muloqot olib boriladi va u ommaga tezkor axborot berish funksiyasini bajaradi. Ijtimoiy-siyosiy leksikadan faol foydalanish, so'zlashuv uslubiga intilish publitsistikaga xos xususiyatdir. OAVning oldida turgan vazifalarni amalga oshirish, ularning tili va uslubi ham muhim ahamiyatga ega. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, istiqlol davri matbuot tili o'ziga xos ijobiy xususiyatlariga ega. Shunga qaramasdan, atamalardan foydalanishda ayrim kamchiliklar ham uchraydi.

So'nggi yillarda o'zbek tilida, jumladan, istiqlol davri gazeta tilida nolisoniy ta'sirlar natijasida jiddiy va sezilarli o'zgarishlar yuz berdiki, bu jarayonni ilmiy o'rganish ehtiyojini vujudga keltirdi. Bu o'zgarishlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish sohasida anchagina tadqiqotlar yaratilgan.

Matbuot tilini o'rganish adabiy tilning lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham matbuot tilining muammolari nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. OAV tilini o'rganish yana shunisi bilan ahamiyatliki, matbuot axborot, targ'ibot va tashviqot vositasi bo'lishi bilan birga milliy ma'naviyatimizda ham be'qiyos rol o'ynaydi. Nutq madaniyatini rivojlantirish va savodxonlikni oshirishdagi vazifasi nuqtai nazaridan ham ahamiyati nihoyatda kattadir. Matbuot tilining adabiy normaga mos bo'lishini

ta'minlash jamiyatda fuqarolarning savodlilik darajasini oshirishda muhim rol o'ynashini hisobga olgan holda, lisoniy tadqiqotlar olib borish talablarini kengaytiradi.

OAV faoliyatini davr talabi nuqtai nazaridan jurnalistlarning kasbiy mahorati va davlat tili qoidalari, adabiy til me'yorlariga amal qilish holati jihatidan baholash, kelgusida namunaviyligini ta'minlashga xizmat qiluvchi, bu sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirishga ko'maklashuvchi tavsiyalar berish har jihatdan foydali va davr talabiga mosdir.

OAVda gazeta janrlari imkoniyatlaridan to'la foydalanish, materiallarning janriy rang-barangligini ta'minlash, axborotlarni aniq, xolis, ta'sirchan shakllarda yetkazish, tildan foydalanish mahoratini tinmay oshirib borish sohalarida muayyan yutuqlarga erishilmoqda. Aksariyat materiallarning saviyasi, ma'lum janr talablariga mosligi e'tiborni tortadi. Shunga qaramasdan, OAV materiallari ifodasida janrlar imkoniyatlaridan to'la foydalanmaslik yoki gazeta janrlarini farqlamaslik bo'yicha ma'lum kamchiliklarga ham yo'l qo'yilmoqda. 20 ga yaqin gazeta janrlari bo'lgani holda², ko'plab davlat gazetalarida, asosan, xabar, maqola, korrespondensiya, lavha, reportaj, intervyu janrlaridan foydalanilmoqda. Keyingi yillarda tahliliy maqola, tanqidiy maqola, ocherk, feleton, taqriz, sharh, obzor, esse janrlaridagi materiallar miqdori kamayib bormoqda. Ko'plab nodavlat gazetalarida esa asosan xabar, intervyu, ba'zan, kichik maqola janrlaridan foydanilayapti, xolos.

A.Abdusaidovning qayd etishicha, Hozirgi kunda gazetalarda janrlar imkoniyatlari va tildan foydalanish sohasida ayrim kamchiliklar mavjud. Ba'zi materiallarning janr xususiyatini belgilash nihoyatda qiyin. Tildan foydalanishda mahorat etishmasligi hollari mavjud. Masalan, ayrim gazetalarda, xususan, nodavlat gazetalarida bosilayotgan intervyu, maqola, xabar kabi sanoqli materiallarning ham janrlar talabiga to'la javob bermasligi ma'lum. Keyingi paytlarda OAV materiallarining mazmun-mundariyasi va saviyasi oshgan bo'lsa-

² Қаранг: Абдусайдов А. Газета жанрларининг тили ва услуби. – Самарқанд, 2001. – 192 б.

da, janrlar imkoniyatlari va tildan foydalanishda mahorat etishmasligi tobora ma'lum bo'lmoqda³.

Bugungi kunda OAV, xususan ,nodavlat OAV tili va uslubini o'rganish sohasida Samarqand Davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida qoshidagi "Sosiolingvistika ilmiy laboratoriyasi"da ma'lum tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Nodavlat ommaviy axborot vositalarining tili va uslubi" mavzuidagi ilmiy tadqiqot ishlari shu kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Ushbu magistrlik dissertatsiyamiz mavzusi ham nodavlat gazetalarida badiiy-publitsistik janrlarning lingvistik tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda nodavlat gazetalar materiallari asosida lavha, ocherk va feleton janrlarining stilistik xususiyatlarini o'rganish nazarda tutilgan. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lgan matn tadqiqiga ham aloqador bo'lib, bevosita publitsistik matnlarni tadqiq material sifatida o'rganishga e'tibor berilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, respublikaning mahalliy matbuotida ham ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar yuz berdi. Ularda yurtimizning bugungi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, diniy, maishiy hayotidan darak beruvchi ko'plab maqolalar dunyo yuzini ko'ra boshladi.

Prezidentimiz: "Milliy o'zligimizni anglash, bebaho ma'naviy merosimizni asrab-avaylash va xalqimizga yetkazishda ommaviy axborot vositalarning o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotganligi"⁴ni bejiz ta'kidlab o'tmagan. Davriylik va jarayonlilik, avvalgi an'analar bilan chambarchas bog'liqlik, bir vaqtlilik, ommaviylik, ishlab chiqarishning yuqori sur'ati gazeta ijodining asosiy

³ Абдусаидов А. Тил маънавияти ва нутқ маданияти. Ахборот соҳасини ислоҳ қилиш. Рисола. Илмий мақолалар тплами. – Самарқанд, 2011, 46-53-б.

⁴ Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. –Тошкент: Ўзбекистон, 2009, 3-б.

xususiyatlari bo`lib, uni ijtimoiy-adabiy hodisa sifatida namoyon etadi. Gazetada chop etilgan har bir lavha, yo`nalishidan qat'iy nazar, ma'lum omillar ta'siriga tushadi, shaklan va mazmunan qayta ishlanib, nashrning talab va shartlariga moslashtiriladi. Demakki, yoritish, birlashtirish va yetkazib berish birligi yuzaga keladi. Bu birlikning xarakteri intellektual va emotsional manba: xabarning oddiyligi, qiziqarliligi, shov-shuvli ekanligi, chuqur va ommaviyligi, aniqligi hamda tashkilotchilik faoliyati va hokazo omillar bilan belgilanadi.

Gazeta matnlarining tadqiq etilishi tilshunoslikda yangi hodisa emas. Matnlar, asosan, stilistik nuqtai nazardan o`rganilgan. Publitsistik matnlardagi uslubiy bo`yoqdorlik, emotsional–ekspressiv vositalar, adabiy til me'yorlariga rioya qilish yo undan chekinish hollari, janr (Solganik, 1963, 1971, 1978; Kostomarov, 1974, Vasileva, 1989, Vovchok, 1979) xususiyatlarining tadqiq etilishi ularning uslubiy qirralarini ochishga xizmat qilgan bo`lsa, K.A.Rogova (1975), N.D.Zarubina (1973) kabi olimlarning ishlarida matnga struktural jihatidan yondashuvni ko`rish mumkin.

Ko`rinadiki, gazeta tilini o`rganish bo`yicha rus tilshunosligida samarali yutuqlarga erishilgan. G.O.Vinokur, A.M.Peshkovskiy, D.Ye.Rozental, A.S.Gorbunov, V.N.Vinokurov, V.G.Kostomarov, D.P.Vovchok<sup>5</sup> va boshqalarning mazkur sohada olib borgan qimmatli tadqiqotlari dalil bo`ladi. Olimlarning tadqiqotlarida publitsistik stil, gazeta tili va uslubining o`ziga xos tomonlari, uning janrlari, sarlavhaning xususiyatlari tahlil etilgan.

O`zbek tilshunosligida funksional uslublarning til xususiyatlarini o`rganish sohasida jiddiy yutuqlarga erishilgan. Publitsistik uslub, gazeta tilining lingvostilistik xususiyatlari, gazeta tili va adabiy norma, gazeta janrlarining tili va uslubi, gazeta matnlarida nutq madaniyati kabi masalalar K.Yusupov,

⁵ Бу ҳақда ушбу ишда обзор берилган. Абдусaidов А. Газета тили ва адабий норма. – Самарканд, 1988, 5-бет.

A.Boboyeva, I.Toshaliyev, M.Xudoyqulov, S.Muhamedov, T.Qurbonov, A.Abdusaidov, D.Teshaboyeva tomonidan ma'lum darajada tadqiq etilgan⁶.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ushbu magistrlik dissertatsiyasining maqsadi yurtimizda nashr etilayotgan ayrim nodavlat gazetalar materiallarining stilistik xususiyatlarini o'rganish, badiiy-publitsistik janrlarning janriy va lingvistik xususiyatlarini ko'rsatish, xususan, ocherk, lavha, feleton kabi janrlarning stilistik xususiyatlarini tahlil etishdan iboradir.

Ilmiy tadqiqotda quyidagilarni o'rganish vazifa qilib belgilangan:

- o'zbek va jahon tilshunosligida publitsistik janrlarning o'rganilishini nazardan o'tkazish;
- matbuot, uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritish;
- o'zbek adabiy tilining me'yoriy xususiyatlari va savodxonlikni targ'ib qilishda hamda yuqori darajadagi nutq madaniyatini ta'minlashda OAVning ahamiyati haqida fikr yuritish;
- matbuot va uning adabiy til rivojidadagi o'rni to'g'risida mulohaza bildirish;
- badiiy-publitsistik janrlar, ularning xarakterli xususiyatlarini o'rganish;
- badiiy-publitsistik janrlarning tavsiflanishi va ularning janriy hamda uslubiy mushtarakliklarini tadqiq qilish;
- lavha janrining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish;
- ocherk janrining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish va ushbu o'ziga xoslikni ta'minlovchi lisoniy birliklarni aniqlash hamda stilistik xususiyatlarini tahlil qilish;
- feleton janrining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

⁶ Қаранг: Юсупов К. Ўзбек адабий тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари.- Тошкент: Фан, 1986. Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф.дис....канд.филол.наук. - Ташкент, 1987. - 22 с. Бобоева А. Газета тили ҳақида. –Тошкент, 1983; Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова И. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент: Фан, 1983. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Докт.дис. автореф. – Самарқанд, 2005. - 48 б. Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.докт. ... дис.автореферати. - Тошкент, 2012. – 48 б. ва бошқалар.

- gazetalar matnidagi adabiy meʼyor buzilishlarini tadqiq qilish va ularni bartaraf etish bilan bogʻliq amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti va materiali. “Darakchi” nodavlat gazetasida nashr qilingan badiiy-publitsistik janr namunalari matni belgilab olingan boʻlib, ulardan tanlab olingan matnlar va lisoniy birliklar ilmiy ishimizning tadqiqot materiali hisoblanadi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ushbu magistrlik ishi nodavlat gazetalar tili va uslubini tadqiq qilishga bagʻishlangan dastlabki ishlardan biri boʻlib, keyingi yillarda oʻzbek tilshunosligida shu yoʻnalishda boshlangan ilmiy tadqiqotlarning mantiqiy davomidir. Ishimizda nodavlat gazetalarining lavha, ocherk va feleton kabi badiiy-publitsistik janrlari matnlarining leksik-stilistik va grammatik–stilistik xususiyatlari magistrlik dissertatsiyasi sifatida ilk marta alohida oʻrganilmoqda.

Tadqiqot ishining kafedra ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bogʻliqligi. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti oʻzbek tilshunosligi kafedrasining 2011-2015 - yillarga moʻljallangan “Oʻzbek tili birliklarining funksional-pragmatik va semantik-uslubiy tahlili (sinxron va diaxron aspekt)” mavzuidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Ommaviy axborot vositalarida oʻzbek tili birliklarining funksional-semantik va pragmatik tahlili” bandiga asosan bajarilgan.

Tadqiqot mavzusi oʻzbek tilshunosligi kafedrasining 2010- yil 2-dekabrda 4-son majlisi va filologiya fakultetining 2010- yil 27- dekabrda 4-son majlisi qarorlari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqotning joriylanishi. Magistrlik dissertatsiyasining mavzusi boʻyicha 3 ta ilmiy maqola eʼlon qilingan. Shuningdek, SamDU professor-oʻqituvchilari, stajyor-tadqiqotchilari, magistrleri va talabalarining anʼanaviy ilmiy konferensiyalarida (2011, 2012) maʼruza qilingan, kafedraning yillik majlislarida ilmiy-tadqiqot natijalari hisobot sifatida muhokama etilgan.

Tadqiqotning metod va metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik falsafaning umumiylik-xususiylik munosabatlariga oid qonun-qoidalar,

tabiat, jamiyat va tafakkur elementlarining o`zaro sistem munosabatda ekanligi haqidagi ta`limoti tashkil qiladi. Ushbu ishda an`anaviy va sistem tilshunoslikning tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, sintezlash kabi metodlaridan foydalanildi. Ishda metodologik asos sifatida o`zbek tilshunosligining fundamental tadqiqotlari va leksik-stilistik tahlillarning ilmiy-nazariy muammolari aks ettirilgan boshqa manbalar, darslik va qo`llanmalardan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy rahbarimiz A.Abdusaidovning ilmiy risola, monografiya, doktorlik dissertatsiyasi manbasi va avtorefati hamda metodik tavsiyalari ham ushbu ishning yaratilishida asos bo`lib xizmat qildi.

Tadqiqotning tuzilishi. Ushbu ilmiy tadqiqot “Ishning umumiy tavsifi”, to`rtta asosiy bob, “Foydalanilgan adabiyotlar”, “Xulosa” qismlaridan iborat bo`lib, 89 sahifani tashkil qiladi.

1. BADIY – PUBLITSISTIK JANRLAR TADQIQINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Jahon va o`zbek tilshunosligida gazeta janrlarining tadqiqi

Ma'lumki, XX asr O'zbekiston uchun tub o'zgarishlar, yangilanishlar va tiklanishlar asri bo'ldi. Ijtimoiy tuzum ham, davr ham o'zgardi. Davr o'zgarishi o'z-o'zidan barcha sohalar, xususan, ma'naviy sohalarda qat'iy yevrilishlar, tub burilishlarni taqozo qildi. Bu - tabiiy jarayon. Zero, til, adabiyot, san'at, jurnalistika kabi soha vakillari o'zgarishlarni hammadan ilgari va nozikroq sezishadi hamda asarlarida davr ruhini u yoki bu ko'rinishda aks ettirishadi.

«Davr, - deb yozadi adabiyotshunos olim N. Rahimjonov, - falsafiy mavzular ichida eng abstrakt xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Sababi, uning moddiylashgan konkret bir shakli yo`q. Bu abstraktlikka faqat inson faoliyatigina konkretlik baxsh eta oladi»⁷. Insonning, ayniqsa, ma'naviy sohalardagi (til, adabiyot, san'at) faoliyati davrni moddiylashtirishga xizmat qiladi. Negaki, inson tug'ilishdan ijtimoiy mohiyatga ega, ijtimoiylik insoning tashqi emas, ichki sifati. Ma'naviyat esa inson ichki mohiyatini bor bo'yicha o'zida aks ettiruvchi ko'zgudir. Demakki, barcha ijtimoiy-gumanitar sohalarda, shu jumladan, tilshunoslikda ham davr u yoki bu jihati bilan tadqiqotchi shaxsiy tekshiruvlari, tajriba, kechinmalaridan o'tgan holda aks etadi. Chunki ma'naviy soha jamiyatdan ayri mavjud bo'la olmaydi. Shunday qilib, keskin o'zgarishlarga yuz tutgan ijtimoiy voqelikning insonga ta'siri natijasida tilshunoslik ilmiga, umuman, fanga munosabat yangilandi.

O'zbekiston 1991 - yil 1-sentabrda o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi. 1989-yilning 21-oktabrida O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilindi. Ma'lum muddat o'tgach, ushbu qonunga o'zgartirishlar kiritish zarurligi ma'lum bo'ldi. 1995-yilda mazkur qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Bundan tashqari til islohoti samaradorligini oshirish hamda me'yoriy

⁷ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси.-Тошкент, 1995,5-б.

hujjatlarning ishlashini ta'minlash maqsadida Hukumatimiz tomonidan yana bir qancha qo'shimcha qarorlar qabul qilindi.

Darhaqiqat, tilimizdagi har qanday o'zgarishga munosib baho berish dolzarb vazifadir. Bu o'rinda jurnalistlar faoliyati o'ta muhim va zarur hisoblanadi. Chunki faqat jurnalistgina mavjud til boyliklaridan har kun, har daqiqada foydalanadi. Demak, undagi o'zgarishlarni to'g'ri o'zlashtirishdan jurnalist ham, jamiyat ham manfaatdor. Shunday holatda soha vakilining o'zi til qoidalarini buzib, noto'g'ri qo'llab tursa, qanday holat yuz berishini tasavvur qilish qiyin emas.

Gazeta ishida bir muhim jihat - imlo qoidalariga rioya etish ham yetakchi masalalardan sanaladi. U jurnalistlarning savodxonlik darajasini belgilab beradi. Savodxonlik esa madaniyat belgisidir. Shuni nazarda tutgan holda, 1995 -yil 24-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilingandi.

Til siyosati, asosan, lisoniy rejalashtirishda yaqqol namoyon bo'ladi. Lisoniy rejalashtirish ko'rilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar hamda qabul qilinadigan qarorlardan tashkil topadi. Til islohotining boshlang'ich bosqichlari esa til siyosati va lisoniy rejalashtirish birligidan qaror topadi, lisoniy yangilanishni harakatga keltiruvchi asosiy kuchlar — shu ikkisidir. Ular nafaqat til qo'llanishi, balki til strukturasiga ham o'zgarishlar kiritadi.

Til siyosati ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan chambarchas bog'liq hodisadir. Mazkur hodisa asosan lisoniy munosabatlarga aloqador tarzda maydonga chiqadi. Jamiyatning til siyosati uning a'zolari lisoniy e'tiqodlariga mos ravishda rivojlanadi. Lisoniy munosabatlar hamisha jamiyatda demografik yoki siyosiy yevrilishlar yuz berganida tez va oson o'zgarishga yuz tutadi. Shuning uchun ular dinamik hodisa sifatida talqin etiladi. Siyosiy jarayon hisoblanmish til islohoti ham lisoniy munosabatlarga u yoki bu darajada ta'sir etadi. Til bilan bog'liq islohotlar, qonun va qaror loyihalari umumxalq (lisoniy jamoa) e'tiboriga havola etilgan tarzda qabul qilinadi. Bu til islohotining o'z iste'molchilari (shu tilda

soʻzlashuvchilar) tomonidan muhofaza etilishi va qoʻllab-quvvatlanishini kafolatlaydi.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida yuzaga kelgan geosiyosiy muhit til siyosati va til taʼlimiga oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmadi. Milliy iftixor, oʻz-oʻzini anglash hissi tobora kuchaya bordi. Odamlar tafakkuri, hayotga boʻlgan munosabatlari oʻzgara boshladi. Milliy anʼanalar, milliy madaniyatni tiklashga urinish, milliy til obroʻsini kuchaytirish muammolari dolzarb tus oldi. Jamiyatda yuz berayotgan bunday oʻzgarishlar, milliylikka intilish, tabiiyki, tilning lugʻat tarkibiga ham oʻz taʼsirini koʻrsatmay qolmadi. Roʻy berayotgan ijtimoiy-siyosiy yevrilishlar, qizgʻin jarayonlar asnosida baʼzi yangi soʻzlar isteʼmolga kirgan boʻlsa, ayrimlari esa, aksincha, butkul isteʼmoldan chiqib ketdi. Bu jarayonni baholashda gazeta matnlarini oʻrganish va tegishli xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega.

1.1.1. Gazeta tarixi

Maʼlumki, bosma ommaviy axborot vositasi sifatida gazetaning oʻrni va ahamiyati beqiyos boʻlib, uning oʻziga xos tarixiy taraqqiyot yoʻli mavjud. Gazeta terminining yuzaga kelishi toʻgʻrisida bir qancha ilmiy manbalarda maʼlumotlar keltirilgan boʻlib, ularda rang-barang fikrlar bayon qilingan. Biz deyarli har kuni ishlatadigan "gazeta" soʻzining asl maʼnosi nima? Bu soʻz qachon va qanday tarzda tilimizga kirib kelgan? Tarixiy maʼlumotlarga koʻra, gazetalarning ilk koʻrinishi qadimgi Rim antik davrlaridayoq paydo boʻlgan. Shaharda va dunyoda boʻlayotgan voqealar yupqa qilingan yogʻoch taxtalarga bir nechta nusxada oʻyib yozilgan va odamlar gavjum boʻladigan katta maydonlarga osib qoʻyilgan. Siyosatchilar va shaharning mashhur kishilariga esa shaxsan yetkazib berilgan. "Rim xalqi haqida kunlik voqealar" deb nomlangan bunday maʼlumotlar taxtasi davlat tepasiga Yuliy Sezar kelganidan keyin yanada rivojlantirilgan. Undan keyingi yuz yilliklar davomida yangiliklar nashrining shakl-shamoyili to 1450-yilgacha Germaniyada Iyogann Gutenberg tomonidan bosma dastgoh ixtiro qilingunga qadar deyarli oʻzgarmagan.

Gazetalar XVII asrning dastlabki yillaridanoq zamonaviy ko`rinishga ega bo`lgan, biroq ular hozirgidek "gazeta" nomi bilan atalmagan. Bundan roppa-rosa 379 yil oldin, ya'ni 1631-yil 30-may kuni Fransiyada "La Gazette" nomli gazeta chop etila boshlangan va aynan shundan keyin "gazeta" so`zi ko`plab Yevropa tillariga vaqtli yangiliklar bosma matbuot nashrini anglatuvchi atama sifatida kirib keldi. "Gazeta" nomi esa o`sha davrdagi italyan mayda pul birligi bo`lgan "gazzetta" ("gaseta") bilan bog`liq. XVI asrdayoq o`ziga to`q odamlar jamiyatga oid xabarlar yozilgan kunlik qo`lyozma varaqalarni (saroy hayotiga oid voqealar, savdo yangiliklari va boshqa qo`shni shaharlar haqidagi ma'lumotlar) o`qish uchun bir gazeta, ya'ni eng kichik italyan tangasini to`lashgan. Tanga nomi esa unda tasvirlangan hakka qush (italyancha "gazza")dan olingan.

Tarixchilar fikriga ko`ra, "La Gazette" hozirgi bosma OAV an'analari va standartlariga mos keladigan birinchi Yevropa gazetalaridan hisoblanadi. Ushbu nashrga fransuz zodagoni va, o`z navbatida, shifokor ham bo`lgan Teofast Renodo tomonidan asos solingan. U o`z gazetasi uchun o`sha davrdagi Fransiya qiroli Lyudovik VII dan mamlakat hududida axborot tarqatish huquqini beruvchi maxsus patentni ham qo`lga kiritgan. "La Gazette" Fransiya ijtimoiy-siyosiy hayotida katta ahamiyatga ega bo`lgan. Hatto qirolning o`zi bu nashr uchun mamlakat xalqaro va ichki siyosati bilan bog`liq muhim voqealarga bag`ishlangan maxsus xabarlar yozgan. "La Gazette" Renodo muharrirligi davrida bosma usulda mingdan ortiq nusxada chop etilgan. Odatdagi gazeta qiyofasini shakllantirish bo`yicha muhim qadamlardan yana biri Renodoning "La Gazette"da pul to`lanadigan xususiy e'lonlarni, ya'ni reklamani alohida ilovada bosib chiqarishni yo`lga qo`ygani bo`lgan.

Shu tariqa "gazeta" rus tili orqali o`zbek tiliga ham kirib kelgan. Hozirda bu so`z jurnalistika atamasi sifatida bir necha tillarda, jumladan, alban, belorus, vietnam, gruzin, malta, normand, ozarbayjon, osetin, polyak, rus, suaxili (Sharqiy Afrika), tatar, tojik, turk, turkman, ukrain, qirg`iz, qozoq va boshqa tillarda qo`llaniladi. Shuningdek, gazeta boshqa jahon tillarida quyidagicha ataladi:

inglizchada "newspaper", fransuzchada "journal", ispanchada "periodico", arab tilida "jarida" yoki "as-sahifa", xitoy tilida "bao", nemischada "Zeitung" va hokazo.

Qizig`i shundaki, bugungi kunda "gazette" so`zi roman-german oilasiga mansub tillarda biz foydalanadigan gazeta, ya`ni davriy vaqtli matbuot ma`nosida ishlatilmaydi. Balki rasmiy tashkilotlar nashri va hukumatga tegishli byulleten ma`nosida qo`llaniladi. Shuningdek, "gazette" so`zini Fransiya, Germaniya, AQSh, Angliya, Ispaniya kabi davlatlarda chop etiladigan ba`zi gazetalar nomlarida ham uchratish mumkin.

Bizda, davriy bosma ommaviy axborot vositasi ma`nosida ishlatiladigan ushbu termin nafaqat, termin, balki tushuncha sifatida ham o`z mazmun-mohiyatini o`zgartirgan.

Yevropada ommalashib ketgan gazeta Rossiyada **XVII** asrning oxiri – **XX** asrning boshlarida paydo bo`lgan bo`lib, dastlab podsho Pyotr **I** ning murojaat, farmon va e`lonlarini xalqqa yetkazib turgan. Shunday sababga ko`ra yuzaga kelgan birinchi rus gazetasi "Vedomost" hisoblanadi. Markaziy Osiyoda matbuotning paydo bo`lishi va birinchi gazetaning nashr qilinishi ham rus madaniyatining ta`sirida yuzaga kelgan. **XIX** asrning 70-yillari boshlarida yurtimizdagi mustamlakachi rus ma`murlari tashabbusi bilan dastlab o`zbek gazetasi "Turkiston viloyati gazetasi" 1871-yil Toshkentda chop etila boshlagan. Shunday qilib, o`zbek jurnalistikasi va matbuoti tarixi aynan shu nashr bilan bog`liq bo`lib, birinchi o`zbek jurnalistlari sifatida Zokirjon Furqatni keltirish mumkin. **XIX** asrning so`ngi besh yilligi va **XX** asr boshlari o`zbek matbuoti tarixida, xususan, gazetachilikda nihoyatda ahamiyatli davr hisoblanadi. Bog`chasaroyda nashr qilina boshlagan "Tarjumon" gazetasidan o`rnak olib jadid harakati vakillari bir necha nomdagi gazetalarni nashr eta boshladilar. "Taraqqiy", "Osiyo", "Xurshid", "Shuhrat", "Hurriyat", "Sadoiy Turkiston", "Sadoiy Farg`ona", "Samarqand", "Oyina" kabilar o`ziga xos taraqqiyot yo`li va ahamiyatiga ega. Bu davrga kelib, o`zbek gazetalari nafaqat axborot yetkazib berish, balki tashviqot, targ`ibot vazifalarni ham bajara boshladilar. O`zbek jurnalistikasining shakllanishida "Turkistanskiye vedomosti", "Turkiston

viloyatining gazetasi" kabi rasmiy gazetalar muhim rol o'ynadi. Abdulhamid Cho'lpon, Zokirjon Furqat, Sattorxon Abdug'afforov, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy hamda Ziyo Said kabi ma'rifatparvar insonlar milliy matbuotimiz rivojiga beqiyos hissa qo'shdilar. Chunki bu davrga kelib o'lkada yuzdan ortiq o'zbekcha va ruscha gazetalar chiqib boshlagan edi. Ularning ko'pchiligi Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Buxoro va Farg'ona tarixida munosib iz qoldirgan.

O'zbek jurnalistikasi fani rivojini baholashda T.Ernazarov, O.Tog'ayev, R.Muhammadiyev, O.Saidov singari olimlarning xizmatlari nihoyatda katta. Mustaqillik yillarida nashr etilgan "Turkiston matbuot tarixi", "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" kabi kitoblar respublikamiz matbuotining uzoq va yaqin tarixiga oid manbalarni o'zida to'la aks ettirgani bilan ahamiyatlidir.

Yurtimizda gazeta chop etish an'anasi boshlanishi va rivojlanishining yana bir ahamiyatli tomoni shunda ediki, aynan o'sha davrdan boshlab hozirgi adabiy tilimiz qat'iy me'yorlasha boshladi hamda ommaviylik kasb etdi. Shuning uchun ham ko'pgina olimlar o'z tadqiqotlarida hozirgi adabiy tilimiz taraqqiyotining dastlabki bosqichi sifatida yurtimizda matbuot yuzaga kelish davrini belgilab ko'rsatadilar.

XX asrning 20-80-yillari ham matbuoti tariximizda o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi, lekin uning rivojida davrning ma'lum salbiy illatlari ta'siri seziladi.

Mustaqillik davrida gazetachilik, boshqa sohalar kabi taraqqiyot bosqichida eng yuksak cho'qqiga ko'tarila oldi. Aynan shu davrdan boshlab, axborot erkinligi ta'minlanib, mustaqil gazetalar paydo bo'la boshladi.

1.1.2. Jahon tilshunosligida gazeta janrlarining o'rganilishi⁸

Ma'lumki, gazeta tilini o'rganish davriy xalq adabiy tilini o'rganishga manba sifatida xizmat qiladi. Tilning vazifaviy uslublaridan biri sifatida gazeta tili o'rganish jahon tilshunosligida XX asrning dastlabki yillaridan boshlangan.

⁸ Ушбу қисмни ёритишда “Жаҳон журналистикаси тарихи” монографияси ва А. Абдусайидовнинг “Газета жанрларининг тил хусусиятлари” номли докторлик диссертацияси материалларидан манба сифатида фойдаландик.

Jumladan, rus tilshunosligida XX asrning 80 – yillariga qadar 300 dan ortiq ilmiy ishlar yaratilgan⁹. Bundan tashqari, turkiyshunoslikda ham bir qator ishlar amalga oshirilganki, ular jahon tilshunosligining nodir manbalari hisoblanadi. Jumladan, XX asr boshlarida qozoq publitsistik tilining grammatik asoslari (Karasheva N.), “Dala valayati” gazetasining til xususiyatlari (Abilqosimov B.), 20 –yillar matbuotining lingvistik xususiyatlari (Isayev S.)ga bag`ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari qozoq tilshunosligining ko`zga ko`rinarli namunalari bo`lsa, ozarbayjon tilshunosligida G.Salmanov, A.Miriyev, T.Aliyev, D.Mamedov kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar ancha salmoqlidir. Shu qatori “Ural” gazetasining lingvistik xususiyatlarini tadqiq qilgan A.G.Eshmuratovning ilmiy tadqiqoti tatar tilshunosligida o`ziga xos o`rniga ega fundamental tadqiqot hisoblanadi.

XX asrning 20-yillarida rus tilshunoslari tomonidan yaratilgan “Til madaniyati” va “Gazeta tili” kabi tadqiqotlar turkiyshunoslik va o`zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlarga ilmiy manba sifatida xizmat qilgan. Tilshunoslikning ushbu dolzarb muammosini tadqiq qilish bo`yicha turkiyshunoslikda ham ma`lum ishlar amalga oshirilgan. Qozoq tilshunoslaridan N. B. Karasheva, B. Abilxasimov, S. Isayev, B. Mo`minov, L. Duysembekova¹⁰, ozarbayjon tilshunoslaridan G. A. Salmanova A. Orudjev¹¹ va boshqalar olib borgan monografik tadqiqotlar bunga misol bo`la oladi.

Gazeta tilini o`rganish bo`yicha rus tilshunosligida samarali yutuqlarga erishilgan. G.O.Vinokur, A.M.Peshkovskiy, D.Ye.Rozental, A.S.Gorbunov,

⁹ Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол.фан.докт. дис.автореферати. – Тошкент, 2005, 6-б.

¹⁰ Каршиева Н.Б. Грамматические особенности языка казахской публицистики начала XX века: Авторев.дис....канд.филол.наук. – Алма-Ата, 1959; Абилхасимов Б. Язык газеты «Дала уалаяти»(1888-1902): Авторев.дис....канд.филол.наук. – Алма-Ата, 1964; Исаев С.М. Становление и развитие языка казахской периодической печати: Авторев.дис....канд.филол.наук. Алма-Ата, 1974.

¹¹ Салманова Г.А. Роль большевистской печати в обогащении словарного состава азербайджанского литературного языка: авторев.дис....канд.филол.наук. –Баку, 1958; Оруджев А. Язык газеты «Эккинчи»: Авторев.дис....канд.филол.наук.-Баку,1973; Исмоилова К. Большевик мэтбуатининг дил ва услуби хаггинда. Эдэбиуат вэ дилчилик мэчмуэси.1X чилд. – Баку, 1969.

V.N.Vinokurov, V.G.Kostomarov, D.P.Vovchok¹² va boshqalarning mazkur sohada olib borgan qimmatli tadqiqotlari dalil bo`ladi. Tadqiqotlarda publitsistik stil, gazeta tili va uslubining o`ziga xos tomonlari, uning janrlari, sarlavhaning xususiyatlari atroflicha tahlil etilgan.

1.1.3. O`zbek tilshunosligida gazeta janrlarining o`rganilishi

O`zbek tilshunosligida matbuot tilini o`rganish alohida yo`nalish sifatida o`z taraqqiyot yo`liga ega. O`zbek ilmiy tilshunosligi vujudga kelishi bilan deyarli bir davrda gazeta tilini lisoniy tadqiq qilish bo`yicha ilmiy ishlar yaratila boshlandi. Gazeta tilini o`rganishning dastlabki bosqichi sifatida 20-50 – yillarni ko`rsatish mumkin. Bu davrda tilshunos olimlardan V.V.Reshetov, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, M.Mirzayev, F.Abdullayev va I.Rasulevlarning ilmiy tadqiqotlari yaratildi. Bu davr gazeta tilini o`rganishning xarakterli jihati shundan iborat ediki, chop qilingan ilmiy ishlarda asosan gazeta tili leksikasining milliy qatlamlari, ya`ni o`z va o`zlashma birliklar va leksikografik xususiyatlari tadqiq qilindi. Jumladan, o`zbek tilshunosligida gazeta tilini o`rganishga bag`ishlangan birinchi ilmiy ish ruscha-o`zbekcha lug`at bo`lib, gazeta materiallari matniga asoslangan va yirik tilshunos K.K. Yudaxin tomonidan yaratilgan<sup>13</sup>. “1905-1917 – yillarda o`zbek adabiy tili”, “O`zbek davriy matbuotida (1945-1950) baynalminal so`zlar” kabi tadqiqotlarda esa gazeta matnida qo`llanilgan o`z va o`zlashma leksik qatlam birliklarining lingvistik xususiyatlari va iste`mol imkoniyatlari o`rganilgan¹⁴.

Gazeta tilini o`rganishda 2-muhim bosqich sifatida XX asrning 60-80-yillarini ko`rsatish mumkin. Bu bosqichda asosiy omil sifatida grammatik xususiyatlarni o`rganishni keltirish mumkin. Shuningdek, yangi tadqiqot metodidan foydalanib ilmiy ishlar yaratilganki, bu holat ushbu davrning xarakterlovchi omili sifatida namoyon bo`ladi. Jumladan, “Mushtum” jurnalining leksika va frazeologiyasi”, “Turkiston” viloyati gazetining sintaksisi” va matbuot tilining morfologik xusiyatlariga bag`ishlangan monografik tadqiqotlar paydo

¹² Каранг: Абдусайдов А. Газета тили ва адабий норма. – Самарқанд, 1988, 5-б.

¹³ Юдахин К.К. Ўзбекча-русча луғат. –Тошкент,1927.

¹⁴ Советско-интернациональные слова в узбекской периодической прессе (1945-1950). – Андижан – Ташкент, 1951.

boʻldiki, ular matbuot tilini oʻrganishda dasturulamal boʻlib xizmat qildi. Oʻzbek publitsistik uslubi¹⁵, gazeta tili va uslubiy norma muammolari¹⁶ga bagʻishlangan ilmiy-nazariy, dissertatsion tadqiqotlar yaratildi, ular gazeta tilini oʻrganishning nazariy-metodologik asoslarini yaratishga xizmat qildi. Ushbu davrning yangiligi sifatida, shuni alohida taʼkidlash lozimki, gazeta tilini va, umuman, matnni oʻrganishning statistik metodi aynan shu davrdan boshlab qoʻllanila boshladi. Gazeta matni materiallari asosida oʻzbek tilshunosligida birinchilardan boʻlib, yaratilgan alfavitli-chastotali hamda chastotali lugʻatlar yaratgan olimlar I.Kissen va S.Muhammedovlarning ishlari tahsinga sazovordir¹⁷.

Shuningdek, “Gazeta tilining ikki xususiyati”, “Gazeta tilida standart konstruksiyalar”, “Gazeta sarlavhasi haqida”, “Sarlavhalar sintaksisi haqida”, “Oʻzbek tilida frazeologizm sarlavhalarining stilistik xususiyatlari haqida”, “Gazeta sarlavhasi”, “Publitsistik janrlar” kabi tadqiqotlar yuzaga keldiki, ular tilshunosligimizda gazeta tilini oʻrganishda muhim manba boʻlib xizmat qilayotir. Oʻzbek tilshunosligida gazeta matnlari A.K.Borovkov¹⁸, V.V. Reshetov¹⁹, keyinchalik M. Mirzayev²⁰, B. Turdaliyev²¹, M. Rahmonov²², Gʻ. Karimov²³, A.

¹⁵ Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1987. - 22 с.

¹⁶ Абдусaidов А. Газета тили ва адабий норма. – Самарқанд, 1988.

¹⁷ Киссен И.А. Опыт статистического исследования частотности лексики передовых статей газеты «Қизил Ўзбекистон». – науч. Тр. ТашГУ. Новая серия. Вып. 247. – Ташкент, 1964. Решетов В.В. Лексический состав современной узбекской прессы. – В кт: Проблемы языка. – Ташкент, 1934.

¹⁸ Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Ташкент, 1940; Боровков А.К. Изменения в области узбекской лексики и новый алфавит.-Ташкент, 1940, № 7.

¹⁹ Решетов В.В. Лексический состав современной узбекской прессы. – В кт: Проблемы языка. – Ташкент, 1934, 41-51с.

²⁰ Мирзаев.М.М. Интернациональные слова в узбекской периодической прессе (1945-1950). – Андижан-Ташкент, 1951.

²¹ Турдалиев Б. Морфологические особенности языка периодической печати (1905-1917): автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Ташкент, 1969. 24 б.

²² Рахмонов М. Синтаксические особенности языка газеты «Туркистон вилоятининг газети»: Автореф. дис. ... канд. филол. нау. -Ташкент, 1971.-34 б.

²³ Краимов Г. Некоторые вопросы развития узбекского литературного языка 20-30-годов: Автореф. дис. ... канд. филол. нау. -Ташкент, 1972.-32 б.

Boboyeva²⁴, A. Abdusaidovlar²⁵ tomonidan o`rganilgan. Bu olimlarning izlanishlarida gazeta tilidagi so`zlar, iboralar, o`zlashmalar, kelishik shakillarining uslubiy xususiyatlari, sarlavhalarning struktur-stilistik tomonlariga e`tibor qaratilgan (Ushbu ma`lumotlarning ayrimlarini ilmiy rahbarimiz A. Abdusaidov tadqiqotlaridagi obzorlardan oldik).

Ko`rinadiki, o`zbek tilshunosligida matbuot tilini o`rganish bo`yicha bir qator jiddiy ishlar qilingan. Shunga qaramasdan, bu sohaning bir qator dolzarb muammolari mustaqillik davrining talab hamda ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yanada kengroq va chuqurroq tahlilga muhtojdir.

Mustaqillik davri gazeta tilini o`rganish alohida katta davrni tashkil qiladi. I. Toshaliyev, A. Boboyeva, N. Abdusamadov, O. Tog`ayev va A. Abdusaidov kabilarning ilmiy tadqiqotlari shu davrning mahsuli hisoblanadi. Gazeta janrlarining tili va uslubini o`rganishga doir tadqiqotlar orasida A. Abdusaidovning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “Leksik dubletlar va ularning izohi”, “Gazeta tilida frazeologizmlar”, “Gazeta tilining leksik-stilistik xususiyatlari”, “Frazeologizmlar – matbuot tilida ta`sirchan vosita”, “Matbuotda adabiy normaga rioya qilish”, “Matbuot tili madaniyati”, “Gazeta janrining tili va uslubi” kabi tadqiqotlarida gazeta tilini o`rganishning umumnazariy masalalari, so`z va ibora qo`llash bilan bog`liq stilistik xususiyatlar, adabiy norma talablarining gazeta tilida bajarilishi kabi mavzular atroflicha o`rganilgan. Shuningdek, olimning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ham gazeta tilini tadqiq qilishga bag`ishlangan bo`lib, doktorlik dissertatsiyasi gazeta janrlarining janriy xususiyatlarini ilmiy-nazariy tomondan o`rganishda katta yutuqlardan biri hisoblanadi²⁶. Gazeta tilini o`rganishda tilshunos olim O. Tog`ayevning “Publitsistik janrlar” nomli o`quv

²⁴ Бобоева А. Газета тилида таъсирчанликни таъминловчи айрим нуткий воситалар // Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент, 1976, №1,62-66-бет.

²⁵ Абдусaidов А. Язык газеты и литературная норма : Автореф.дис....канд.филол.наук. - Ташкент, 1988. – 21 б.

²⁶ Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан.докт.дис. автореф. – Самарканд, 2005.- 48 б.

qo'llanmasi muhim manba hisoblanadi²⁷. Ilmiy tadqiqot 3 bobdan iborat bo'lib, xat publitsistikasi, ocherk va feleton kabi badiiy-publitsistik janrlarning lisoniy xususiyatlari, strukturasi, turlari va leksik birliklarning qo'llanishi bilan bog'liq lisoniy xususiyatlar to'laligicha tadqiq etilgan.

N.Abdualazizovning "Akademiya" nashriyotida chop etilgan "Turkiston matbuoti tarixi" (2002), "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" (2002), "O'zbekiston ommaviy axborot vositalari" (2003), "Matbuot va ma'naviy meros" (2004), "Matbuot va Sohibqiron Amir Temur abadiyati" (2005), "Matbuot va so'z erkinligi – oliy qadriyat" (2006), "Tafakkur shajarasi" (2007), "Mustaqil O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" (2008), "Milliy jurnalistika tarixi"(ikki jildlik, 2009), "Matbuot ziyosi (Farg'ona viloyati matbuotiga chizgilar)" (2009), "Toshkent matbuoti" (2010) singari monografiya va risolalarida ham gazeta tili va uslubi bilan bog'liq ilmiy ishlar yaratilgan.

Keyingi yillarda N.Abdualazizova, H.Akbarov, X.Do'stmuhammedov, S.Jabborov, N.Jo'rayev, Q.Irnazarov, M.Xudoyqulov, F.Mo'minov, P.Mo'minova, H.Saidov, O.Toshboyev, D.Teshaboyeva, A.Pardayev, F.Ro'ziyev, X.Mamadaliyev, O.O'sarov kabi olimlarning milliy jurnalistika tarixi va rivojlanish bosqichlari, matbuot nazariyasi, janrlari, jurnalistik faoliyatning ijtimoiy va axloqiy masalalari o'rganilgan salmoqli ilmiy tadqiqotlari yaratildi. Mazkur tadqiqotlarning jurnalistika sohasini rivojlantirish, OAV faoliyati samaradorligini tashkil etishdagi roli, gazeta tilini o'rganishdagi o'rni ham beqiyos²⁸. Umuman, o'zbek tilshunosligi va jurnalistikasida keyingi yillarda OAV

²⁷ Тоғаев О. Публицистик жанрлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. - 180 б.

²⁸ Масалан: Абдуазизова Н. Мустақил Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2002; Абдуазизова Н. Мустақил Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2007; Досмухамедов Х.Н. Журналистнинг касб одоби муаммолари: назарий-методологик таҳлил (Мустақиллик даври ўзбек матбуоти фаолияти мисолида. 1991-2008 йиллар): Филол.фандокт.... дис. автореф. – Тошкент: ЎзМУ. 2008; Оммавий ахборот воситалари назарияси. – Тошкент: Университет, 1999; Усаров О.А. Оммавий ахборот воситаларида суд процессларини ёритиш муаммолари (назарий-методологик таҳлил). Филол.ф.номз. дис.автореферати. – Тошкент, 2009. – 27 б.; Маматова Я.М. Ўзбекистон даврий матбуоти: тизими трансформацияси, фаолияти тенденциялари ва

tili va uslubi, janrlar xususiyatlarini o`rganish sohasida tadqiqotlar yaratish ancha faollashganini ko`rish mumkin.

1.2. Badiiy-publitsistik janrlarning o`ziga xos xususiyatlari

Fandagi har bir tushuncha kabi badiiy-publitsistik janrlarning ham boshqalardan farqlovchi xususiyatlari - mezonlari mavjud. Insoniyatning hayoti va faoliyati axborot olish, qayta ishlash va saqlash bilan chambarchas bog`liqdir. Axborot olishning birlamchi vositasi sifatida, albatta, matbuot o`ziga xos vazifalarni bajaradi. A. Abdusaidovning “Gazeta janrlarining tili va uslubi²⁹” nomli monografiyasida OAV, xususan, vaqtli matbuotning vazifalari sifatida quyidagilarni ko`rsatgan:

- informativlik - axborot berish;
- targ`ibot qilish;
- tashviqot qilish;
- tarbiyaviylik;
- reklamalilik;
- ta`sirchanlik.

Ushbu vazifalarni ifoda etadigan publitsistik janrlar bir necha turlarga bo`lib, tasnif qilinadi. Jumladan, A.Abdusaidovning tadqiqotida quyidagicha tasnif keltirilgan:

1. Axborot(informatsion) janrlar.
2. Tahliliy(analitik) janrlar.
3. Badiiy-publitsistik janrlar³⁰.

Ushbu janrlar ham bir necha turlarga bo`linadi. Shu o`rinda, termin qo`llash bilan bog`liq munozarali jihatlar mavjud ekanligini ta`kidlab o`tmoqchimiz. Ya`ni

муаммолари(1991-2010 йиллар материаллари асосида). Филол.фан.докт... дис.автореферати. – Тошкент, 2011. - 56 б. ва бошқалар.

²⁹Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан.докт.дис. автореф. – Самарқанд, 2005. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. - Тошкент: Тафаккур, 2010. Абдусaidов А. Газета жанрларининг тили ва услуби.- Самарқанд, 2001. 5-10-б.

³⁰ Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан.докт.дис. автореф. – Самарқанд, 2005, 47-б.

janr termini matbuot tilini o'rganishga bag'ishlangan asarlarda ham, umumiy tasnifga nisbatan ham, uning ichki bo'linishlariga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan, "badiiy-publitsistik janr" shaklida qo'llanilsa, uning tarkibiy qismi bo'lgan ocherk, feleton janrlariga nisbatan ham janr termini qo'llaniladi. Ushbu terminologik muammo barcha ilmiy lingvistik tadqiqotlar ham mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish keyingi ishlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

1-jadval

Xabar	Xronika-xabar, axborot-xabar, tanqidiy yoki satirik xabar, maxsus sarlavhalar ostidagi qisqa xabarlar, kengaytirilgan xabarlar
Reportaj	Shu kungi voqealar haqidagi repartaj, tematik repartaj
Hisobot	Oddiy hisobot, tahliliy hisobot, muammoli hisobot, ilmiy hisobot
Intervyu	Intervyu – monolog, intervyu – dialog, intervyu - lavha

2-jadval

Korrespondensiya	tahliliy korrespondensiya, axborot korrespondensiya
Maqola	Bosh maqola, nazariy maqola, tashviqot xarakterdagi maqola, muammoli maqola, tanqidiy maqola, ilmiy-ma'rifiy maqola
Taqriz	-
Sharh	Umumiy sharh, mavzuli sharh, axborot sharh
Obzor	Mavzuli obzor, umumiy obzor, axborot abzor
Xat	Gazetaxon xati, ochiq xat, murojaat, tabrik, yozuvchi xati
Kuzatish	Umumiy kuzatish, mavzuli kuzatish

3-jadval

Lavha	-
Ocherk	Portret ocherk, muammoli ocherk, safarnoma (yo'l ocherki)
Feleton	Hujjatli feleton, adabiy feleton

Ushbu tasniflanishda boshqa ilmiy tadqiqotlardan farqli jihatlar ham mavjud. Jumladan, O.Tog'ayevning "Publitsistika janrlari" nomli o'quv qo'llanmasida xat

janrini badiiy-publitsistik janrlar sirasida tahlil qilgan bo`lib, uning nazariy asoslari izohlab berilgan³¹.

4-jadval

t\r	Janr nomi	Gazetaning jamiyat oldidagi vazifalarining janrlararo iyerarxik ketma-ketligi
1	Axborot – informatsion janrlar	Axborot
2	Tahliliy – analitik janrlar	Axborot-tahlil-qiyoslash
3	Badiiy-publitsistik janrlar	Axborot-obrazlilik-ommaboplik

Gazeta janrlari bir-biridan bajaradigan vazifasi, yaratilish maqsadi va ahamiyati jihatidan farqlanadi. Barcha gazeta janrlarining asosini axborot tashkil qilsa-da, ularning yaratilish uslubi va maqsadiga ko`ra turlarga ajratilib kelinadi. Informatsion janrlarda axborot berish vazifasi ustunlik qilsa, tahliliy-analitik janrlarda axborot tahlil, sharh, obzor asosida yaratiladi. Badiiy-publitsistik janrlar esa o`zida ham axborot berish ham badiiy ifodalarni keltirish bilan xarakterlidir. Til uslublarining har ikkalasiga xos xususiyatlari mujassamlashgan ushbu janrda ijtimoiy-publitsistik uslubga xos so`z, ibora va terminlar bilan birga badiiy so`z san`atiga tegishli frazeologizmlar, troplardan keng foydalaniladi.

Badiiy-publitsistik janrlarning o`ziga xos jihatlari turli tadqiqotlarda o`rganilgan³². Tadqiqotlarda qayd etilishicha, badiiy publitsistika — publitsistikaning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati va publitsistikaning boshqa qismlaridan farqi uning ijtimoiy hayotni aks ettirishda adabiy-badiiy vositalardan keng foydalanishidi Badiiy-publitsistika foydalanadigan adabiy- badiiy vositalar orasida obraz va obrazlilik asosiy o`rin tutadi.

³¹ Тоғаев О. Публицистик жанрлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. докт. дис. автореф. – Самарқанд, 2005.

³² Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Университет, 2008, 183-184-б.

Publitsistikada obraz va obrazlilik o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi, bu xususiyatlar publitsistikaning zimmasiga yuklangan, unga qo`yilgan talablardan kelib chiqadi. Badiiy adabiyot va san`atda keng ma`noda o`z ifodasini topishi mumkin bo`lgan obraz va obrazlilik publitsistikada ma`lum darajada cheklangan va o`ziga xos bo`ladi. Bu publitsistikaning asosiy vazifasi bo`lmish shu kun, ayni zamonni aks ettirish, undagi muammolar haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish, hayotni publitsistik jihatdan tahlil qilish va zarur xulosalar chiqarish zarurati bilan bog`liqdir.

Publitsistikaning informatsion qismida obraz va obrazlilik qisman cheklangan, aksariyat hollarda esa ortiqcha hisoblanadi. Chunki bu qism publitsistikaning asosiy vazifasi ommaga faktlar, voqea va hodisalar haqida xabar beradi, yangiliklar yetkazadi. Bu o`rinda obraz va obrazlilikning aralashuvi xabar, yangiliklar haqidagi tushunchalarning buzilishiga olib keladi. Publitsistikaning ikkinchi bir muhim qismi bo`lgan hamda hayotdagi fakt, voqea va hodisalarni baholash, tahlil etish orqali ularning mohiyatini ochib berishga qaratilgan tahliliy publitsistikada ham obraz va obrazlilikdan foydalanish cheklangan tusda bo`ladi. Ammo ayrim hollarda, kishilar faoliyatini yoritishda ma`lum darajada obrazlilik, jonlantirish, tasvir vositalari qo`llanilishi mumkin. Shu bilan birgalikda, hayotdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berish, jonlantirish, odamlarning his-tuyg`ularini uyg`otish uchun ma`lum ma`noda obraz va obrazlilik kiritilishi mumkin. Faqat badiiy publitsistikada obraz va obrazlilik keng qo`llaniladi, chunki badiiy publitsistik materiallarda hayotiy voqealar jonlantirib tasvirlanishi, insonlar faoliyati, voqea va hodisalar keng, har taraflama aks ettirilishi, o`quvchining ongigagina emas his-tuyg`usiga ham ta`sir etish talab etiladi. Bu badiiy publitsistikaning janrlarida o`z ifodasini topadi.

Ma`lumki, janr shakl va mazmun jihatdan o`ziga xos belgilarga ega bo`lgan san`at asari turidir. Publitsistika janrlari ham shakl va mazmun jihatdan o`ziga xos xususiyatlarga egadir, ular ham xuddi adabiyot va san`atdagi janrlar singari kichikdan kattaga, yakkadan umumiyga, oddiylıkdan mukammallıkkaga

o`lib boradi. Publitsistikaning badiiy turiga oid janrlar lavha, ocherk, esse, feleton va pamfletdan iboratdir.

A.Abduaidovning “Gazeta janrlarining tili va uslubi” nomli kitobida quyidagi fikrlar keltirilgan: “Voqea-hodisalarni, faktlarni davr talabi nuqtai nazaridan o`tkir publitsistik ruh va badiiy so`z vositasida ifodalash badiiy-publitsistik janrlarning asosiy xususiyatidir. Yana, shuningdek, badiiy – publitsistik janrlarga xos xususiyat hayotning ma`lum sohasini jonli lavhalarda obrazli aks ettirishdir. Shuning uchun ham bu janr materiallariga axborot va tahliliy janrlarga qo`yiladigan talablar bilan bir qatorda eng muhim mezon obrazlilik va faktlarning konkretligidir. Konkretlik - hayotiylik gazeta janrlarida eng muhim shartlardan biri hisoblansa, obrazlilik esa bu janrning asosiga singib ketgan. Axborotni ta`sirchan shaklda o`quvchiga yetkazish uchun bu janrlarda obrazli, emotsional-ekspressiv til vositalaridan keng foydalaniladi”³³.

Ushbu tadqiqotlarda keltirilib o`tilgan fikrlardan ko`rinib turibdiki, badiiy-publitsistik janrdagi asarlarda axborot obrazli ifodalar vositasida, badiiy til elementlaridan unumli foydalangan holda gazetxonga yetkazib beriladi.

³³ Абдусаидов А. Газета жанрларининг тили ва услуби. - Самарқанд, 2001, 133-б.

2. LAVHA JANRINING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Badiiy publitsistik janrlar orasida lavha janri hozirjavoblik va jonlilik xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Bu soʻz tilimizga arabchadan oʻzlashgan boʻlib, *manzara*, *yozuv taxtasi*, *koʻrinish* degan maʼnolarni anglatadi. “Oʻzbek tili izohli lugʻati”da lavha soʻzining 5 ta maʼnosi ifodalangan boʻlib, *taxta*, *ustiga biron narsa yozilgan taxtacha*, *peshlavha* degan maʼnolarni anglatishi berilgan. Voqea- hodisa va shu kabilar kichik asar yoki parcha degan maʼnoda qoʻllanilishi haqidagi maʼlumot ham keltirilgan³⁴. Lavha aslida kichik janr boʻlib, voqea joyini va uning mohiyatini toʻgʻridan toʻgʻri tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu janr imkoniyatlari shunchalik kengki, tabiat manzaralari, tabiat hodisalari, ijtimoiy hayotning har bir jabhasidan (konsert, koʻrgazma, qurilish va boshqalar) koʻrinish aks ettirishi mumkin. Gazetalarda berilayotgan lavhalarda, koʻpincha, fotosuratlardan (bevosita voqea joyidan) ham foydalaniladiki, bu holat voqea-hodisani toʻla tasvirlashga, oʻquvchi ongida toʻlaroq tasavvur hosil boʻlishiga xizmat qiladi. Lavhada fakt, voqea-hodisalar haqida xabar berish, ularni maʼlum darajada tahlil qilish bilan birgalikda hayotni yorqinroq jonlantirish orqali tasvirlash taqozo etiladi. Bu esa, oʻz navbatida, unda obrazlilikdan foydalanishni talab qiladi. Ammo lavhada biror voqea yoki hadisa yoxud kishi faoliyatining barcha tafsilotlari emas, balki maʼlum bir parchasi yoritilib beriladi. Masalan, biror olim, quruvchi yoki sportchining oʻz hayotida erishgan yutuqlari emas, balki bir oniy vaqtda qilgan ishlari va uning amalga oshirilishi animalistik tarzda aks ettiradi. Bu haqda tilshunos olimlar M. Xudoyqulov va A.Abdusaidovlar oʻz fikrlarini bayon etganlar.³⁵ Fakt va voqealar haqida axborot berishning usullari xilma-xildir. Axborotni jonli, joʻshqin hayotning bir boʻlagi sifatida tasvirlashda badiiy-publitsistik janrlar orasida lavhaning imkoniyatlari nihoyatda keng. U

³⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-жилд. – Тошкент, 2005, 482-483-б.

³⁵ Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Университет, 2008, 229-237-б. Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан.докт.дис. автореф. – Самарқанд, 2005.

badiiy-publitsistik janrlar orasida gazetada ko'p bosiladigan xillaridan hisoblanadi. Biror bir korxona, tashkilot, jamoa to'g'risida yoki ularning faol xodimlari haqida qisqacha axborot bilan cheklanish hamisha ham etarli samara bermaydi. Chunki axborot oqimi nihoyatda ko'p bo'lgan davrda xalq xo'jaligining turli sohalaridagi ilg'orlar haqidagi xabar hamisha ham diqqatni tortavermasligi mumkin. Ana shunday hollarda lavha janrining imkoniyatlari nihoyatda kengligi muhim rol o'ynaydi. Unda ilg'orlar faoliyati jonli, konkret misollar orqali obrazli tasvirlanadi. Lavha yozish uchun jurnalistdan, avvalo, mavzuni tanlash, voqea-hodisani sinchkovlik bilan kuzatish, haqiqiy faktlar, konkret odamlar to'g'risida jonli hikoya qilish talab etiladi. Bu, albatta, lavha qahramonlarining butun faoliyatini, voqea joyining batafsil tasvirini berish degani emas. Chunki bunday atroflicha yoritish ocherk janriga xos xususiyatlardan biridir. Lavhada ilg'or jamoa, faol kishilar haqida ayrim epizodlar misolida lo'nda, ixcham, siqiq, obrazli hikoya qilinadi. Buning uchun shunga mos ifoda-tasvir vositalari, til birliklarining imkoniyatlaridan foydalaniladi.

Tadqiqotlarda yozilishicha, lavha janri reportaj va ocherkka yaqin turadi. Reportaj va ocherkdagi singari lavhada ham to'qima faktlar va odamlar haqida emas, balki haqiqiy faktlar, konkret odamlar to'g'risidagina gap borishi mumkin. Binobarin, lavha faktlarga asoslangan material negizida yozilishi va haqiqatan ham bo'lib o'tgan voqealarni ko'rsatib berishi, odamlarni to'qima nomlari bilan emas, balki haqiqiy nomlari bilan tasvirlashi lozim.

Mazkur janr haqida o'zbek tilshunosligi va jurnalistikasida juda kam yozilgan, ayrim ilmiy-ommabop maqolalar mavjud, xolos⁴¹. Lavha janri, uning imkoniyatlari, til xususiyatlari bo'yicha maxsus izlanishlar olib borish lozim. Ayniqsa, lavhaning til xususiyatlari, unda andozalilik va ta'sirchanlikning uyg'unligi, bunda jurnalist mahorati kabilar alohida o'rganilishi muhimdir.

Lavha janriga xos xarakterli xususiyatlardan biri unda ruknning "Lavha" tarzida juda qisqa shaklda va ba'zan shu so'z bilan birga qo'shimcha ruknning

⁴¹ Умиров С. Жанр масъулияти. // «Мухбир» ж. 1975, 5-сон, 37-б.

ishlatilishidir. Tuman gazetalaridagi aksariyat lavhalarda rukn faqat birgina soʻzdan iborat. M.: *Lavha* (22.08.02). Markaziy gazetalarda "Lavha" rukni alohida yoki u bilan birga boshqa ixcham til vositalaridan ham qoʻshimcha rukn sifatida foydalanilgan. Lavha ruknlari orasida obrazli ifoda, ibora va maqollar ham uchraydi. M.: *Xalq ayoldan boshlanadi*, *Mehnat qilgan -elda aziz*, *Ilk qadam*, *Birinchi moʻjiza* va boshqalar.

Lavha badiiy-publitsistik janr boʻlganligi uchun ham uning sarlavhasida obrazlilik aks etib turadi. Sarlavha sifatida ishlatilgan koʻplab soʻz, soʻz birikmasi, gaplar uslubiy maʼnosi bilan eʼtiborni tortadi. Lavha sarlavhasi sifatida quyidagilar koʻplab ishlatilgan. 1. Soʻz: *Agronom*, *Ayajonlarim*, *Iftixor*, *Meros* va *boshqalar*.

4. Obrazli jumlar: *Qadamidan gul unardi*, *Dilbar dur termoqda*, *Qoʻshiq yashayveradi*, *"Siz mening faxrimsiz"*, *Dalalarning sehri bor*, *"Odamlar haqida qaygʻursak..."*.

5. Ibora, maqollar, ular asosida yaratilgan obrazli ifodalar: *Qatorda norining boʻlsa...*, *Yerni horitmagan horimaydi*.

Lavhada boshqa janrlarda qoʻllaniladigan ijtimoiy-siyosiy, xalq xoʻjaligining turli sohalariga oid terminlar, neytral maʼnoli soʻzlar bilan birga emotsional-ekspressiv boʻyoqli soʻz, soʻz birikmalari ham uygʻun holda ishlatiladi. Ocherk, reportaj janrlarida qoʻllaniladigan ekspressiv-uslubiy ottenkaga ega soʻzlarning koʻplab ishlatilishini ham shu janrda koʻrish mumkin.

Gazeta tilida, keltirilayotgan xabarning yoʻnalishi va mavzusidan qatʼiy nazar, deyarli hamisha taʼsirchanlik koʻzga tashlanib turadi. Xalq tilidagi maqollardan foydalanish, soʻzlarni koʻchma maʼnoda qoʻllash, soʻzlashuv nutqidagi turli xil soʻz va iboralarni mohirlik bilan ishlatish gazetaning voqelikni ifodalash imkoniyatini yanada kengaytiradi. Natijada, ifodada tabiiylik, nutqiy vosita bilan obyekt orasida mutanosib uygʻunlik vujudga keladi. Madaniy va ilm-fanga oid xabarlarida individuallik boʻrtibroq koʻrinadi. Lekin gazeta mavjud standartlardan chetga ham chiqq olmaydi. Bunga gazetaning tezkorlik xususiyatlari yoʻl qoʻymaydi. Buning ustiga baʼzi materiallar qurilishi va leksik tarkibi jihatidan tayyor usulda takrorlanib turadi. Masalan, rasmiy xabarlar, xabarchalar, reklama va

e'lonlar, ob-havo ma'lumotlari kabilar. Shunga ko'ra, bunday materiallar tilida individual ijod xususiyatlari deyarli uchramaydi.

Doimiy izlanishda bo'lgan jurnalistlar madaniy va ilm-fanga oid xabarlarida topib qo'llagan obrazli nutqiy vositalar aksar hollarda tayyor shtamplarga, standartlarga aylanadi. Masalan, *“To'g'ri gap tuqqanimizga ham yoqmasa-da, mustaqil Vatanimizning porloq kelajagi uchun haq gapdan ... ham ming chandon achchiqdir...”* (2003. 05. 6)

Demak, qoliplangan kabi doim takrorlanib turadigan ayrim konstruksiya va iboralarining gazetada qo'llanilishini materialning o'zi taqozo etadi. Shu tufayli ham gazeta tilida standartlar mavjudligi unga maxsus qirradir.

Ko'rinadiki, madaniy, ilmiy, siyosiy, umuman, istagan yo'nalishdagi gazeta materiallarida doimiy qo'llaniluvchi oddiy sintaktik standartlardan o'rinli foydalanish, xususan, ularning turli xil ifoda variantlarini topish yozma adabiy tilimiz imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Kuzatishlar keyingi paytda bunday standart birikmalar doirasining uzluksiz kengayib borayotganini ko'rsatmoqda. Ammo shuni unutmaslik kerakki, bunday konstruksiyalarning ko'pi periferik o'zgarishlar natijasida yuz bergan bo'lib, ularning negizi, dastlabki modellari tilimizda qadimdan mavjuddir.

Hozirgi davr taraqqiyoti, ommaviy tashviqot vositalarining kuchayishi rang-barang nutqiy konstruksiyalarni talab qiladi. Zotan madaniyat va ilm-fan sohasidagi yangiliklar, o'zgarishlar ifoda shakli va uslubidagi yangiliklarni ham talab qilmoqda. Adabiy tilda esa shu talablarga hozirjavoblik bilan, iloji boricha, aniq va ixcham ifoda vositalari, turli xil funksiyadosh sintaktik variantlar yaratish bilan javob berish imkoniyati bor. Shular bilan bir qatorda, tarjimaning, ayniqsa, rus tilidan kal'kalashning ta'siri tufayli bunday vazifadosh konstruksiyalar gazeta tilida tez sodir bo'ladi³⁶. Binobarin, bu omillar material yo'nalishi, axborot

³⁶ Ушбу материалларга асосландик: Бобоева А. Газета тилининг икки хусусияти //Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент,1981, 3-сон, 31-б. Абдусаидов А. Газета тили ва адабий норма. – Самарқанд, 1988. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан.докт.дис. автореф. – Самарқанд, 2005.

tashiyotgan mazmunga mos tarzda gazetadan-gazetaga o'tib, tez-tez qo'llanib turiladigan sintaktik standartlar, sintaktik funksional sinonimiya taraqqiyotida ham ko'rinadi.

Gazeta tilining ommabopligi, yoritilayotgan material yo'nalishidan qat'i nazar, o'zbek matbuoti oldidagi muhim masalalardan biridir. Gazetaning ommaviylik xarakteri, uning kundalik hayotdagi roli madaniy va ilmiy leksemalar ommaviylashishiga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida gazetaning uni o'quvchilarga ta'sirini bir necha barobar oshiradi.

Gazeta tilidagi bunday ta'sirchanlikni ekspressiya yaratuvchi nutqiy (leksik va grammatik) vositalar ta'minlaydi. Gazeta materiallarini tahlil etganda, avvalo, ekspressiv manbalar aniqlanadi. Ana shu manbalarni namoyon etuvchi nutqiy vositalar gazetada qo'llangach, gazeta tilining ekspressivligiga xos xususiyatni yuzaga keltiradi³⁷.

Gazeta tilida kundan-kunga kengroq qo'llanib borayotgan termin, birikma va oborotlarning xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, bular asosan yozma nutqda – matbuot tilida shakllanyapti. Gazetada ishlatilgan har bir nutq vositasi (ibora, oborot, so'z, tovush) tabiiylikning ta'minlanishiga, mazmunni gazetxonga aniq etib borishiga xizmat qilishi lozim. Yuqorida keltirilgan nutq vositalarining gazetalar tilida qo'llanishi, gazetaning ommaviylik xarakteri, gazeta tilining xalqchilligi, umuman, adabiy til va uslubning, jumladan, gazeta tili va uslubining demokratlashib borayotganligini, gazetaning o'z o'quvchilariga tobora yaqinlashayotganligini ko'rsatuvchi muhim omillardandir. Shu bilan birga gazeta auditoriyasining nihoyatda keng va xilma-xilligini yoddan chiqarmaslik lozim. Gazeta o'ta jo'n ham, juda murakkab ham bo'lmasligi kerak. Bu o'quvchilar doirasining torayishiga olib keladi. Buning uchun noshir, tahririyat va jurnalist gazeta matniga ehtiyotkorlik bilan yondashishi lozim. Matnni maxsus leksika, shuningdek, terminlar bilan to'ldirib tashlash to'g'ri emas. Terminlar yig'indisi matnning tushunarli bo'lishini qiyinlashtiradi. Ayniqsa, professional terminlarni

³⁷ Бобоева А. Газета тилида таъсирчанликни таъминловчи айрим нутқий воситалар // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1976, 1-сон, 62-б.

turli uslubdagi matnlarda o`rinsiz, haddan ziyod ishlatish o`quvchilar uchun qiyinchilik tug`diradi.

Dublet terminlardan o`quvchilarga tushunarli bo`lgan variantlarni qo`llash maqsadga muvofiq. O`zbek va baynalminal variantlardan o`z tilimizga xos bo`lgan ko`rinishini ishlatish yaxshiroq: Masalan, *al`ternativ – muqobil, vakant – bo`sh o`rin, vizit – tashrif, garantiya – kafolat, gruppа – guruh* va boshqalar.

Agar matn mazmuni tushunarli bo`lsa, uning tarkibidagi tushunarsiz terminlarga izoh berib o`tish shart emas: “*O`zbekiston Xalq demokratik partiyasining elektorati – ko`p bolali oilalar, yolg`iz keksalar, nogironlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa qatlam manfaatlariga xizmat qilish... dasturda ilgari surilgan*” (D., 2007.04.6). “*Orkestr uchun **simfoniya**lar, **kantata**lar* “*O`zbekistonim jahonim*”, “*Istiqlol taronasi*” kabi she`rlarga kuy ijro yetdi” (D., 2006.08.15). Ushbu matnlardagi “*elektorat*”, “*simfoniya*”, “*kantata*” kabi terminlarning ma`nosi matnning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda tushuniladi. Ko`p hollarda so`z va so`z birikmalari, ularning ma`nosi o`quvchilarga tushunarliroq bo`lgan maxsus leksika izohsiz qo`llaniladi. Birikmali va qo`shma maxsus leksika tarkibidagi biron-bir so`z o`quvchiga tushunarli bo`lsa, u holda izoh talab etilmaydi: “*frontal yuklatgichlar*”, “*avtotransport filiali*”, “*O`zbekiston banklari assosiasiyasi*”. Qoidaga ko`ra bu turga oid tushunchalar ham izohsiz ishlatiladi: “*Ziroatchilikning rivojini kaliysiz tasavvur qilib bo`lmaydi*” (D.,2004.05.3).

Lavhada ijtimoiy-siyosiy, xalq xo`jaligining turli tarmoqlariga oid neytral ma`noli so`zlarning qo`llanilishi ham boshqa badiiy-publitsistik janrlarga nisbatan ancha faoldir. Chunki lavhada ma`lum tashkilot, jamoa, ilg`or kishilar faoliyati jonli, hayotiy, jo`shqin mehnat jarayoni misolida yoritiladi.

Lavha tilining ta`sirchanligini ta`minlashda maqol, ibora va obrazli ifodalarning ahamiyati katta. Reportaj, maqola, korrespondensiya janrlaridan farqli ravishda lavha matnida publitsistik bayon, ya`ni davrning dolzarb masalalari badiiy ifodalar bilan uyg`unlashtiriladi. Natijada lavha eng qiziqarli material sifatida gazetxon tomonidan mutolaa qilinadi.

Lavhada ijobiy ma'noli obrazli ifodalar ko'plab ishlatiladi. Chunki iboralaridagi obrazli ma'no lavha qahramoni faoliyatini yorqin bo'yoqlarda ifodalash imkonini beradi. Bu esa gazetaning ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Lavha janrida ocherkdagi kabi monologik nutq, dialogik nutqdan foydalaniladi. Ko'plab lavhalarda (ular, asosan, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi ilg'orlari faoliyatiga doir qisqa lavhalar) lavha qahramoni bilan uchrashuv paytidagi so'zlashuv iboralari va uning o'z kasbi, faoliyati haqidagi qisqacha fikr-mulohazalari keltirilgan. Qolgan o'rinlarda muallif bayoni (nutqi) asosiy o'rinni egallaydi, dialoglar juda kam uchraydi.

Lavhada so'roq gap dialoglardagina uchraydi. Gazetxonni mulohazaga, munozaraga chorlovchi, fikr xulosasini o'zida jamlovchi yoki muammoni hal etishni tegishli joylarga havola etuvchi so'roq gaplar lavhada deyarli ishlatilmaydi. Chunki ularda ijobiy baho, erishilgan muvaffaqiyatlar tahlili asosiy o'rinni egallaydi. Ocherk, maqola kabi janrlarda esa bu holat ancha kuchli bo'lib, so'roq gaplar ko'plab qo'llaniladi. So'roq va undov gaplarning juda kam ishlatilishi (dialoglardan tashqari) lavhaga xos xususiyatlardan biridir. Lavha tili juda ko'p xususiyatlari bilan badiiy asar tiliga yaqin turadi. Unda obrazli ifoda, metafora, ibora va maqollar, dialogik nutqdan foydalanish imkoniyatlari keng. Xuddi ocherkdagi kabi qahramon nutqini individuallashtirish, davr ruhini berish uchun personaj tilida tarixiy davrga oid so'zlarni ishlatish kabilar lavha tiliga ham xos. Lavhalarda dialektizmlardan ham foydalanilgan, lekin ular juda oz.

Tarixiy mavzudagi lavhada eskirgan so'zlar ham uchraydi. Ularning qo'llanishi zamon ruhini ifodalash, qahramon yashagan davr muhitini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Lavha tiliga xos xususiyatlardan yana biri unda sodda yig'iq va yoyiq gaplarning ko'plab ishlatilishidir. Lavhada qo'shma gapning bog'langan va ergashgan qo'shma gap kabi turlari ham uchraydi. Bu janrda jumlar, xuddi badiiy asardagidek, engil, ravon o'qiladi, chunki ular obrazli ifodalarga juda boy, gazeta andozalari bilan uyg'unlik ta'minlanadi. Yuqorida qayd etilgan talablar

nuqtai nazaridan nodavlat gazetalar, xususan. “Darakchi” gazetasi materiallari asosida ayrim tahlillarni keltirishga harakat qilamiz. Shuni alohida qayd etish kerakki, nodavlat gazetalarida asosiy e’tibor axborotni qisqa satrlarda, rangli suratlar, turli kollajlar orqali berish nazarda tutiladi. Ular ko’ngilochar gazetalar hisoblangani uchun ham tahliliy, badiiy-publitsistik materiallar kam bosiladi. Bunday janrlar imkoniyatlariga to’la javob beruvchi materiallar ham oz, ularda qorishiq holatlarni ko’rish mumkin. Masalan, tahlil obyektimiz bo’lgan lavhalar ham “Darakchi” gazetasida juda kam sonli uchraydi. Ularning aksariyati, madaniyat, san’at, adabiyot namoyandalarining hayoti, xotirasi, faol turmushi bilan bog’liq. Quyida ana shunday materiallardan ayrimlariga to’xtalamiz.

Lavha janrining ayrim leksik-stilistik xususiyatlari

“Darakchi” gazetasida uning axborot berish xususiyatidan kelib chiqib, lavha janriga xos materiallar juda kam bosilgan. Ayrim materiallar lavha janriga xos xususiyatlarga ega bo’lsa, ba’zilar xabar, maqola janri talablariga mos xususiyatlarni ham o’zida qisman ifodalaydi.

Lavhalarining rukn va sarlavhalari e’tiborni tortadi. Avvalo, lavha janriga xos materialning ozligi ushbu materiallarga gazetxonni befarq qoldirmaydi. Masalan: Navro’z ayyomiga oid materiallar lavha janri talablari asosida yozilib, unda korrespondensiya va maqola janrlariga xos ayrim xususiyatlar mujassamlangan. Materialga “Maxsus mehmon” rukni qo’yilgan bo’lib, “Asrlar va nasllarning boqiy bayrami” sarlavhasi ishlatilgan. Bir qarashda rukn va sarlavha gazetxon diqqatini o’ziga jalb etadi.

Lavhada ishlatilgan yorqin, emotsional-ekspressiv bo’yoqdor so’zlar materialning e’tiborni tortishi va o’qimishli bo’lishiga xizmat qilgan. Misollar: *go’zal, ta’rifu tavsif, ajdodlarimiz, aql-zakovat, Navro’z, bahor, bobokalonlarimiz, o’tkir, zehn, donishmandlik, yuksak, buyuk, mutafak-kir, qimmatli, halinchak, el-ulus, qadriyat, ma’naviy, sumalak, darveshona, yurt, mustaqillik, mamlakat, katta shodiyona, ota-bobolarimiz, ozod, obod, Istiqlol, shukrona* kabilar (D., 12(680)-son,

22.03.2012). Ko`rinadiki, lavhada leksik birliklar, ayniqsa, sinonim so`zlarning mavzuga mos bo`yoqdorlari ishlatilgan. Qiyoslash uchun: *go`zal – chiroyli – ko`rkam – suluv; buyuk – ulug` katta*.

Lavhada gazeta tiliga xos neytral ijtimoiy-siyosiy leksik birliklarga qaraganda, mavzu doirasida emotsional-ekspressiv birliklarning ko`proq qo`llanishi xarakterlidir.

“Sulola” rukni ostida bosilgan “Bir sulolada: Kurashchi, fokuschi, hayvon o`rgatuvchi, besuyak va ...” sarlavhali lavhaning o`ziga xosligi shundaki, unda milliy qadriyatlar, milliy o`yinlarni ifodalovchi leksik birliklar o`z o`rnida ishlatilgan va materialning o`qimishlilikini ta`minlagan. Milliy qadriyatlar va xalq o`yinlarini ifodalovchi quyidagi leksik birliklarga e`tibor beraylik: *Navro`z, ayyom, xalq sayli, kurash, ko`pkari, polvonlar, xalqona, sulola, O`zbekiston milliy qurash assosiasiyasi bosh bakovuli, tosh o`yini, besuyakbozlik, morbozlik, ko`zboylog`ichlik, dorbozlik, akrobatlik, masxarabozlik, salotagirlik* kabilar(D., 14(682)-son, 05.04.2012).

“Bir piyola choy ustida” rukni ostida bosilgan “Xudoyberdi To`xtaboyev nimaga tayanadi?” sarlavhali lavhaning boshlanishidagi quyidagi matn uning mavzusini belgilab beradi va gazetxonni material mutolaasiga undaydi: *“Har birimiz uchun hayot eng yaxshi muallim, ustoz, taqdirimizdagi qaysidir hodisa keyingi yo`limizda qoqilmasligimiz uchun tirkak bo`lsa, boshqa biri bir umrlik saboq vazifasini o`taydi, ular orqali biz o`z qarashlarimizga, tamoyil va qoidalarimizga ega bo`lamiz. Bugun O`zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To`xtaboyev ana shunday hayotiy voqealar tufaili paydo bo`lgan prinsiplarini siz bilan bo`lishadi...”*

Lavhada qo`llanilgan leksik birliklarni quyidagi guruhlariga bo`lish mumkin:

1. Neytral ma`noli til birliklari: *tarbiya, qoida, bola, ertak, nutq, katta, og`ilxona, sinf, urush, qishloq, kitob, doska, sut, qatiq, maktab, dars, o`rikzor, uzumzor, olmazor, hosil, chelak, shirin, talaba* kabilar (D., 13(681)-son, 29.03.2012).

2. Emotsional-ekspressiv bo`yoqdor leksik birliklar: *farzand, kishi, e`tiqodi, komil inson, qalb, insoniylik, ustoz, muallim, tanbeh, yurak, insoniylik, bag`rikenglik,*

mardlik, ochiqko`ngil, fidoyi, qo`li ochik, dil, yolg`iz, ezgu kabilar (D., 13(681)-son, 29.03.2012).

3. Frazelogizmlar: Ertaksiz uxlay olmasdim. Shu tariqa qalbimda so`zga mehr uyg`ongan bo`lsa, ruhimda ezgulikka intilish shakllangan. Buvimdan eshitganlarimni tengqurlarimga bo`lishardim... Borsak, domlamiz *bi-i-ir ko`rpa bo`lib yotibdi. O`pkasini ol dirib qo`ygan* ekan, zo`rg`a nafas oladi. Ertasiga tongda esa *joni uzildi*. O`sha paytda bu voqeani tahlil qilishga, mulohaza qilib, xulosa chiqarishga yoshlik qilardim. Ammo u bir umrga yuragimda qolib ketdi va meni kechirimli bo`lish, xato qilganimda kechirim so`ray olishga undab keldi. Kampiri ham olamdan ko`z yumib, bir o`zi qoldi. Shundan keyin qo`li ochiqlikda hikmat ko`pligini anglaganman va bunga doim amal qilganman. O`n to`rt yoshli bolaning jon holatda yugurishini ko`z oldingizga keltiring. Yomonlik o`zidan ko`paymaydi. Bitta odamning qalbida paydo bo`lsa, o`sha joyning o`zida o`ladi. Lekin yaxshilik tarqaydi, ko`payadi. Domlamizning bir kecha qilgan ezgu ishi mana shunday palak yozdi (D., 13(681)-son, 29.03.2012).

4. Sohaga oid terminlar: *kompyuter, telefon, internet, televizor, prinsip, evakuasiya, savdogar, iqtisod* kabilar (D., 13(681)-son, 29.03.2012).

5. Sarlavhalarining mazmunli, ixcham til birliklaridan tanlanishi: “*Ertak eshitgan boladan yovuzlik chiqmaydi*”, “*Insoniylik kechirimli bo`lish va kechirim so`ray olishdir*”, “*Xayriya dilga saxovat urug`ini ekadi*”, “*El-yurt ravnaqi yo`lidagi fidoyilik beiz ketmaydi*”, “*Yaxshilik yaxshilikdan tarqaydi*” (D., 13(681)-son, 29.03.2012).

Lavha janrida mavzu doirasida neytral so`zlar bilan birga emotsional-ekspressiv bo`yoqdor leksik birliklarning qo`llanishi badiiylikni, obrazlilikni ta`minlashga xizmat qiladi. “Sulola” rukni ostida bosilgan “Dor ostida 146 yil yoki Toshkenboyevlar “Oltin kolizey” sovrindori” sarlavhali lavha shunday boshlangan va matnda shu mavzuga mos leksik birliklar qo`llanilgan: “*O`zbek sirk san`ati bir necha yuz yillik tarixga ega. Dastavval bu san`at turi "sirk" nomi bilan yuritilmagan bo`lsa-da, masxarabozlik, dorbozlik kabi tomoshalar zahirida shakllangan. Dorbozlik san`ati haqida so`z ketganda, bu sohada mashhur bo`lgan*

Toshkenboyevlar sulolasi yodimizga tushadi. Bugungi sahifamizda Toshkenboyevlar sulolasi vakili, sirk tarixshunosi, san'atshunoslik fanlari nomzodi, "O'zbek davlat sirki" Respublika birlashmasi matbuot markazi rahbari Po'lat Toshkenboyev o'z sulolasi haqida hikoya qiladi..." (D., 11(679)-son, 15.03.2012).

Lavhaning kichik sarlavhalari orasida qisqa materialning berilishi ham e'tiborni tortadi. Sarlavhalar ixcham va sodda til birliklaridan tanlangan. Misollar: *"Muhojirlikda o'rganilgan kasb"*, *"Olti yoshda dorga chiqqan Toshkenboy"*, *"Oltin medal olgan Hoji dorboz"*, *"Dor ustidagi o'zbek ayoli"*, *"O'zbek dorbozlari jahon sahnasida"* (D., 11(679)-son, 15.03.2012).

Lavhada sohasiy terminlarning qo'llanishiga alohida e'tibor berilgan. Misollar: *dorboz*, *novvoy*, *dorbozlik*, *polvon*, *surmaychi*, *langar* kabilar (D., 11(679)-son, 15.03.2012).

Lavha matnida ishlatilgan emotsional-ekspressiv leksik birliklar muhim stilistik vosita rolini bajarganligini quyidagilar misolida ko'rish mumkin: *mashhur*, *tavallud*, *san'at*, *chaqqonlik*, *buyuk*, *ulkan*, *su-lola*, *mahorat* kabilar (D., 11(679)-son, 15.03.2012).

"Behalovat yanvar" nomli material "Darakchi" gazetasida (5(621)-son, 03.02.2011) "Bedor dunyo" rukni ostida e'lon qilingan bo'lib, u lavha janrining namunasi hisoblanadi. Ushbu lavhada jahonning bir qancha shaharlarida 2011 – yilning yanvar oyida sodir bo'lgan terrorchilik harakatlari va uning oqibatlari jonli lavhalar, aniq faktlar hamda dalillar asosida yoritilib berilgan. Sanalar, joylar, voqea qurbonlari, hodisa sababchilari jonli dalil-fakt vazifasini ifoda etgan bo'lib, terrorchilikning keltirib chiqargan oqibatlari, moddiy va ma'naviy zararlari, mutaxassisning mulohazalari ushbu lavhaning tabiiy chiqishiga sabab bo'lgan. Yana shuningdek, voqea o'rnidan olingan fotosuratlar ham keltirilganki, mushtariylar ongida hodisa tafsilotlarini to'la anglashga xizmat qiladi.

"... tashkilotchilar tomonidan yozib ketilgan *noma* topilgan. ..ushbu *maktub* hodisa joyidagi binolarning biridan topilgan" jumlasida "*noma*", "*maktub*"

soʻzlari qoʻllangan boʻlib, u tilimizda “*xat*” maʼnosini ifoda etadi va sinonim sifatida qoʻllanadi. Ammo ushbu sinonimik qatordagi “*xat*” soʻzi uslubiy betaraf soʻz boʻlib, ushbu jumlada aynan ishlatilishi mos kelar edi. “*Noma*” soʻzi badiiy uslubga xos boʻlib, adabiy-badiiy matnlarda faol ishlatiladi. Xuddi, shuningdek, “*maktub*” soʻzi ham. Bundan tashqari, lavha matnida juda koʻp xorijiy onamastik birliklar ham qoʻllanilgan boʻlib, bu holat matn mavzusiga mos tushadi.

“*Darakchi*” gazetasida bosilgan sanʼat, madaniyat, adabiyot mavzularidagi lavhalarda neytral til birliklari koʻplab ishlatilgan. Bunday lavhalarda korrespondensiya yoki xabar janrlariga xos xususiyatlarni koʻrish mumkin, yaʼni badiiylik etarli darajada aniq koʻrinmaydi.

“*Xotira*” rukni ostida bosilgan “*Hamza Umarov. U koʻzi bilan ham “gapira olardi”*” sarlavhali lavha mashhur sanʼatkor toʻgʻrisida boʻlganligi uchun ham eʼtiborni tortadi. Lekin unda yorqin leksik birliklardan oz foydalanilgan, asosan faktlar keltirilgan. Misollar: *qatʼiylik, mardonavorlik, talabchanlik, koʻrqoqlik, qiziquvchanlik, mohirona, obrazlar, sanʼatkor, ilk, qirra, tavallud* kabilar (D., 8(624)-son, 24.02.2011).

Lavha janrining ayrim grammatik-stilistik xususiyatlari

Soʻz birikmasi mustaqil maʼnoli soʻzlar(leksemalar)ning oʻzaro bogʻlanishidan yuzaga kelib, gap bilan soʻz orasidagi oraliq nutqiy birlik - nutq mahsuli sifatida baholanadi. Soʻz birikmasining oʻziga xosligi yana shundaki, u sintaktik birlik sifatida soʻzdan farq qilsa, boshqa sintaktik birlik boʻlgan gap bilan umumiylikka ega boʻladi. Ammo bu umumiylik asosida muayyan xususiyliklar, farqli jihatlar yotadi, yaʼni soʻz birikmasi fikr ifodalamaydi. Shunga koʻra u gapga xos fikriy tugallik intonatsiyasiga ega emas. Soʻz birikmasini tashkil qilgan aʼzolar, qayd etilganidek, tobe-hokim munosabatida boʻlib, hokim soʻz qaysi soʻz turkumiga tegishli boʻlsa, *u* shu turkum nomi bilan ataladi. Demak, soʻz birikmasining nomlanishida morfologik belgi-hokim tegishli boʻlgan turkum asos

hisoblanadi. Masalan: 1. O'tli-birikmalar: *baland bino, hashamatli saroy, sport zali, turon kurashi*.

2. Fe'lli birikmalar: *chiroqni yoqmoq, soatni taqmoq, qo'l bilan olmoq, tez o'qimoq*.

3. Sifatli birikmalar: *otdan baland, undan kichik, temirdan qattiq, loydan yumshoq*.

4. Ravishli birikmalar: *o'qdan tez, bolalardai ko'p*.

5. Sonli birikmalar: *o'kuvchilarning biri, o'ndan to'qqizi, uchdan ikki*.

6. Olmoshli birikmalar: *tadbirkorlarning barchasi, daraxtlarning hammasi*.

7. Modal so'zli birikmalar: *uyda bor, ko'limda yo'q*.

So'zlarning birikib, so'z birikmasini hosil qilishi, dastavval, birikma tarkibidagi so'zlarning ma'no imkoniyatiga ko'ra amalga oshadi. So'zlar orasidagi semantik munosabat esa bevosita sintaktik munosabatni yuzaga keltiradi. Shunga ko'ra birikma konstruksiyasi tuziladi. So'z birikmasi ham fonetik, leksik-grammatik va semantik jihatlarining birligidan tashkil topadi³⁸.

Qaratqich-qaralmish birikmada ma'lum uslubiy ma'noni ifodalash birikmaning kontakt yoki distant holati bilan bevosita bog'liq. Bu holat gazeta tilida ixchamlik va emotsional-ekspressivlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. 1. Qaratqich bilan qaralmish orasida so'z bo'lmagan (kontakt) birikmalar ixchamligi bilan e'tiborni tortadi. Ma'lumki, qaratqich bilan qaralmish kontakt joylashsa (qaralmish so'z sifatlovchisiga ega bo'lmasa) qaratqich kelishigini belgili qo'llash mumkin. Bunday holat so'z semantikasi va uslub talabi bilan yuz beradi. Masalan, *fermerning qo'riqxonasi, yurtning tinchligi kabi*. Ko'rinadiki, qaratqich kontakt birikmalarining belgili ishlatilishi ma'noni ta'kidlash uchun xizmat qiladi.

Qaratqich kelishigi tushirilgan, ya'ni belgisiz qaratqich birikmalar ham mavjud. Misollar: *Vatan taraqqiyoti, el farovonligi, yoshlar tuhfas*i kabilar. Bunday birikmalar gazetabop bo'lib, ixchamlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

2. Qaratqich bilan qaralmish orasida so'z bo'lgan (distant) birikmalarining sarlavha sifatida ishlatilishi ham e'tiborni tortadi. Qaratqich bilan qaralmish

³⁸ Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2006, 56-57-б. Неъматов Х., Сайфуллаева Р., Курбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Тошкент, 1999, 19-б.

distant holatida bo`lsa (qaralmish sifatlovchiga ega bo`lsa) qaratqich kelishigi, odatda, belgisi ishlatiladi. Misollar: *Bahorning ilk bayrami, bolalarning shodon kulgisi, mevalarning eng sarasi*. Misollardan ko`rinadiki, ularda ma`no, mazmun aniq ifodalangan hamda fikr qisman ta`kidlangan.

Sifatlovchi-sifatlanmish birikmalar ham kuchli stilistik vosita hisoblanadi. Ular fikrni ta`sirchan, mazmunli, ixcham ifodalashda keng imkoniyatlarga ega. Misollar: *eng qadimiy va eng sevimli bayramimiz, asriy qadriyatlar, milliy urf-odat va an`ana-udumlari, sehrli navo, zamonaviy me`morchilik an`analari, go`zal binolar, fidoyi vatandoshlar, shijoatli qiyofa* kabilar.

Ko`rinadiki, so`z birikmasi fikrni ifodalashda keng imkoniyatlarga ega. Qaratqich-qaralmish va sifatlovchi-sifatlanmish konstruksiyalar fikrni emotsional-ekspressiv, ta`sirchan, ravon bayon etishda muhim stilistik vositalardan hisoblanadi. Lavha janrida neytrallik va badiiylik uyg`unligini ta`minlashda so`z birikmalarining imkoniyatlari kattaligini quyidagilarda ham ko`rish mumkin: *go`zal bayram, ajdodlarimizning aql-zakovati, Navro`zning yoshi, bobokalonlarimizning o`tkir zehni, chuqur donishmandligi, olis asrlar sadosi, buyuk mutafakkirlar asarlari, xalqimizning ko`pgina qadriyatlari, ma`naviy boyliklari qatori* kabilar (D., 12(680)-son, 22.03.2012).

“Asrlar va nasllarning boqiy bayrami” sarlavhali lavhada materialning ravonligi, ixchamligi, ta`sirchanligini ta`minlashda sodda gaplarning ham alohida o`rni bor. “Darakchi” gazetasida bosilgan aksariyat lavhalarda juda ixcham sodda gaplardan foydalanilgan. Misollar: *“Oradan yana bir yil o`tib, yurtimiz mustaqillikka erishdi. Mamlakatimizda Navro`z katta tantana sifatida nishonlab kelinayotganiga ham yigirma yildan oshdi. Bugun Navro`z yurtimizning barcha shahar va qishloqlarida katta shodiyona bilan qarshi olinadi. Vatanimizda o`tadigan Navro`z tantanalari sun`iy yo`ldosh orqali har yili dunyoning 50 dan ortiq davlatiga to`g`ridan-to`g`ri olib ko`rsatiladi. Bir paytlar ota-bobolarimiz azaliy bayramni pana-pastqamda, yurak yutib nishonlagan bo`lsa, bugun ozod va obod yurtimizning Navro`zini butun dunyo tomosha qiladi. Aynan shuning uchun ham Istiqlolimizga har qancha shukronalar aytsak, arziydi* (D., 12(680)-son, 22.03.2012).

Fikr ta'sirchanligini ta'minlashda uyushiq bo'laklar, qaratqich-qaralmish va sifatlovchi-sifatlanmish birikmalar "Sulola" rukni ostida bosilgan "Bir sulolada: Kurashchi, fokuschi, hayvon o'rgatuvchi, besuyak va ..." sarlavhali lavhada muhim stilistik vosita vazifasini bajargan. Sarlavhaning o'zidayoq uyushiq bo'laklar mavzuning ko'lami va mazmunini ifodalab beradi. Misollar: *xalq sayillari, polvonlar o'yini, milliy o'yinlar, polvonlarning chiqishlari, qiziqarli mashqlar, ajoyib xalqona o'yinlar, tomoshabinlar ko'ngli, Tursun Ali Muhammad polvon su-lolasi tomoshalari, ko'pchilikning dili, tomoshalar tarkibiga besuyakbozlik, mor-bozlik, ko'zboylog'ichlik, dorbozlik va asosiysi, ayol kishining ishtiroki, akrobatlik, ko'zboylog'ichlik, masxarabozlik, salotagirlik va dorbozlik kabi sohalar* kabilar (D.,14(682)-son, 05.04.2012).

Lavha janri talablaridan biri unda badiiylik, obrazlilikning axborot va tahliliy janrlarga nisbatan kuchliroq bo'lishidadir. "Darakchi" gazetasida bosilgan lavhalarda neytral so'zlardan foydalanish, xabar, korrespondensiya janrlari talablariga mos bayonchilik biroz ustun turadi. Obrazli birikmalardan o'rni bilan oz bo'lsa-da foydalanilgan. Masalan, "*Xudoyberdi To'xtaboyev nimaga tayanadi?*" sarlavhali lavhada yozuvchi hayotiga oid juda qiziqarli voqealar bayon etilgan. Mazkur lavhada oddiy bayonchilik badiiylik, obrazlilik bilan uyg'unlashtirilgan. Bunda yorqin so'z birikmalari, obrazli ifodalar, tasviriy vasitalar, gap turlarining imkoniyatlaridan ham unumli foydalanilgan. Misollar: *bolaning komil inson bo'lib etishishi, dars darsdek bo'lmadi, tanbeh eshitdim, tongda joni uzildi, insoniylikning, bag'rikenglikning, mardlikning bir ko'rinishi, kampiri ham olamdan ko'z yumib, mehnatkash, ochiqko'ngil, fidoyi inson, eng yaxshi yegulikni unga ilinadigan, palov bilan siylab turgan, mehnati zoye ketmadi, chin dildan qilgan fidoyilik, ezgu ishi mana shunday palak yozdi* (D., 13(681) –son, 29.03.2012).

Lavhalarda asosan sodda, ixcham darak gaplardan foydalanilgan. Ayrim hollarda ko'chirma gaplar, so'roq gaplar ishlatilganki, ular ta'sirchanlik, obrazlilik, jonlilikni ta'minlashda o'ziga xos stilistik vosita sifatida xizmat qilgan. Misollar: Bu bayram kamida ikki yarim ming yillik tarixga ega. *U paytlarda hali aniq vaqt*

o`lchovlari joriy qilinmagan tenglashishini qanday aniqlashgan? Nega aynan yil boshi sifatida shu kunni tanlashgan? Bu ham xalqimizning yuksak tafakkuridan darak emasmi?! (D., 12(680)-son, 22.03.2012).

- San'atga umuman aloqam bo`lmagan. Turmush o`rtog`im bilan tanishganimda polvon ekanligini aytmagan. "Maktabda o`qituvchiman", degandi. Men ham o`qituvchiga turmushga chiqyapman, deb o`ylaganman. *To`ydan keyin do`stlari "Tursun Ali polvon uydami?"* deb so`rab kela boshlashdi. Shundagina u kishining polvon ekanliklarini bilganman.

- Turmush o`rtog`im o`z guruhi bilan turli viloyatlarda tomoshalar berardi(D., 14(682)-son, 05.04.2012).

Lavhada ba`zan badiiy asarga xos so`roq gap yoki undov gapli xitoblarni uchratish mumkin. Bunday holatlar obrazlilik, ta'srchanlikni ta'minlashda kuchli stilistik vosita sanaladi. Misollar: *Hozir-chi?* Ming afsuski, bolajonlar kompyuter, telefon, internet, televizor kabi hissiz vositalarga bog`lanib qolyapti. Bular bolaga nima berishini o`zingiz tasavvur qilavering. Ilk bor kitobni uning qo`lida ko`rganman. *Suratli kitob!* Ungacha "kitob" degan so`zni eshitar, o`zimizcha tasavvur qilardik. Chunki ustozlarimiz ham doskaga yozib bizga saboq berardi (D., 13(681)-son, 29.03.2012).

Lavhada badiiylik ba`zan badiiy asardagi kabi tasvirlar bilan ta'minlangan. Misollar: *O`n to`rt yoshli bolaning jon holatda yugurishini ko`z oldingizga keltiring. Mehmonali domla eta olarmidi? Ot bilan ortimizdan quvlashga tushdi. Biz to`xtamay yuguramiz, u kishi yonimizda otda baqirib kelyapti: "To`xtanglar, bolalarim, to`xtanglar, gapimga quloq solinglar!"* Oxiri u kishi bizdan oldinga o`tib, otdan tushdi. Qulochini yoyib, ro`paramizga chiqib, yig`lab yubordi:

- *Bolalarim, men sizlarga yomonlikni ravo ko`ramanmi? Sizlarni odam bo`lsin, elga nafi tegsin, deb Qo`qon pedagogika bilim yurtiga olib boryapman. U yerdan o`qituvchi bo`lib kelib, bolalarga ta`lim berasizlar. Qochmanglar, iltimos... Sizlar uchun bug`doy, arava olishim oson bo`ldimi?..*

Keyin bilsak, u kishi bizni o`qishni tashlab qochib ketmasin, deya to o`rgangunimizcha yonidan pul sarflab, palov bilan siylab turgan ekan.

Siz bir kishiga yaxshilik qilsangiz, u boshqaga qiladi va xuddi bahor gullari kabi nish urib ketaveradi. Bunga bir misol — 1947 yil. Yarim kechasi yer qimirladi. Shu darajada qattiq silkindiki, biz talabalar qo`rqib, hovliga chiqib oldik. Ishonsangiz, Soipjon Soliyev degan domlamiz velosi-ped haydab etib keldi.

- Qo`rqmanglar, o`tib ketdi. Sira qo`rqmanglar... —deya bizni ichkariga olib kirib, xotirjam qilib yotqizdi.

Mening qaynotam katta savdogar edi. O`sha kishidan iqtisod qilishni o`rganganman. Bo`lmasa, mendek yetimlikda o`sgan inson Toshkentdek katta shaharda yashab ketarmidi? Ayolim bilan bu shaharga bitta jomadon bilan kelganmiz. Qaynotamning tejamkorlikka undaydigan juda ko`p ibratli gaplari bor edi. Doim "O`g`lim, suv ham qattiq joyda to`xtaydi. Pul ham qattiq odamda to`planadi. Bu xasislik emas, bu iqtisod", derdi. Yana bir yaxshi gapi bor edi: "So`mning onasi — tiyin". Ya`ni katta daromad kichiklaridan yig`ilib boradi. Mayda pulni tejab, yig`ishdan yirik narsaga ega bo`linadi. Eng ko`p takrorlagani esa : "O`g`lim, besh so`m topgan kuningiz ikki so`mini albatta olib qo`ying", derdi. Mana shu maslahatga amal qilib, kam bo`lmadim. Farzandlarimga ham tejamkor bo`lishni o`rgatdim (D., 13(681)-son, 29.03.2012).

Lavha janrining asosiy xususiyati axborotni badiiy, obrazli mushohadalar orqali ta'sirchan shakllarda ifodalashdir. Bunday ifoda emotsional-ekspressiv leksik birliklar, ayniqsa, sinonim so`zlar, juft so`zlar, frazeologizmlarni qo`llash, uyushiq bo`laklardan foydalanish, so`z birikmalari va gaplarning stilistik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish orqali ta'minlanadi.

"Namanganda ilk Universal markaz ochildi" sarlavhali lavha boshqalaridan ancha farq qiladi. Lavhada xabar berish asosiy o`rinda turadi. Shu jihatdan unda xabar va reportaj janrlari elementlari uyg`unlashgan. Lekin yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini namoyish etishda qorishiq janrlar ham ma'lum o`rin egallaydi. Matnda ko`plab neytral ijtimoiy-siyosiy leksikadan foydalanilgan. Misollar: *Universal milliy-madaniy markaz, tizim, madaniy markaz, maxsus tadbir,*

mamlakat, shahar, tumanlar, fuqaro, madaniy-ma'rifiy tadbir, tanlov, grant, tadbirkor, fermer, Fond Forum, "Mehr nuri" jamg'armasi, biznes kabilar.

Lavhadan taniqli san'atkorlar, ishlab chiqarish ilg'orlarining markaz haqidagi qisqacha fikrlari ham o'rin olgan. Bu fikr-mulohazalar lavhaning ta'sir kuchini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Lavhada keltirilgan quyidagi ixcham jumlar mavzuni yoritish uchun muhim o'rin tutgan. Misollar: *Eslatib o'tamiz: madaniy markazlar tizimini barpo qilish taklifi ilk bora 2010- yil 24- fevral kuni poytaxtimizda o'tkazilgan "Ijtimoiy loyihalar va tashabbuslar integrasiyasi" forumida Fond Forum Vasiylik kengashi raisi Gulnora Karimova tomonidan ilgari surilgan edi.*

Universal markaz tarkibidagi Bolalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash markazi bolalarning bo'sh vaqtini qiziqarli, foydali va mazmunli o'tkazishga mo'ljallangan. Bu yerda turli tadbirlar: aksiyalar, o'yinlar, loyihalar, bahs klubi mashg'ulotlari, taqdimot marosimlari o'tkaziladi. Dam olish kunlari bolalar san'at va milliy hunarmandchilik turlari bilan bepul shug'ullanishlari, o'zlari qiziqqan sohaning sir-asrorlarini o'rganishlari mumkin. Bu yerda Fond Forum va hamkor tashkilotlarning yoshlar, bolalarga qaratilgan ta'lim, grant va boshqa loyihalari haqida ma'lumotlar beriladi. Ijtimoiy ko'mak va xayriya markazida esa aholining ehtiyojmand qatlami, shuningdek, tadbirkor va fermerlar, tashabbuskor ayollar, hududiy nodavlat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan loyiha va dasturlari haqida ma'lumotlar beriladi (D.,24 (640)-son, 16.06.2011). Yuqorida qayd etganimizdek, ushbu lavhada xabar berish yetakchi o'rinda turadi. Shuning uchun badiiylikdan ko'ra neytrallik ustunlik qiladi.

"Mudhish davr ota-onamdan ayirgan" sarlavhali lavhadan ustozlarni yo'qlash bahonasida ular turmushiga nazar solish, bayram bilan tabriklash kabi hayotiy lavhalar o'rin olgan. Lavhada ishlatilgan leksik birliklar ham ana shu mavzuni yoritishga xizmat qilgan. Matn bilan tanishish lavha janriga xos badiiylikni jurnalist o'ziga xoslik bilan bera olganligini ko'rish mumkin. Masalan: *"Muhabbat Qurbonova: - Assalomu alaykum, ustoz!*

- *Voy, Muhabbatim, senmisan?*
- *Vaalaykum assalom.*

Muhabbat Qurbonova: — Bayram bilan tabriklash uchun kelgandim. 9- may - Xotira va qadrlash kuni bilan tabriklayman. Mendek shogirdlaringiz baxtiga doim omon bo`ling, ustoz!

- Rahmat! Har bir bayramda shogirdlarim meni yo`qlab, holimdan xabar olib turishadi! Ulardan juda minnatdorman. Hech bir ustozning uyi menikidek shogirdlari, bilan to`lmasa kerak. Vaqtida hammani qattiqqo`l-lik bilan tarbiyalagan bo`lsam ham, bugun mehnatlarimning mevasini ko`ryapman”(D., 19 (687)-son, 10.05.2012).

Lavha qahramoni hayotining ma`lum davri yoritilganligi uning jonliligini, ta`sirchanligini ta`minlaydi. Buning uchun lavhada ixcham, mazmunli sodda gaplardan foydalanilgan. Misollar: “ - Ha, nimasini aytasan, tinch davrga yetkazganiga shukur. Urushning mudhish davrlari meni ota-onamdan ayirgan. Ular katta lavozimda ishlashgani uchun tuhmat bilan o`limga mahkum qilingan. Men esa bolalar uyida katta bo`lganman. Ammo ko`rganlarimga qaramay, hayotimdan nolimayman. Yoshlarga tilagim, bugungi tinchlik uchun har qadamda shukrona aytib yurishni o`rganing. Davlatimiz tomonidan san`atimizga berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishlaringizni istardim”(D., 19 (687)-son, 10.05.2012).

“ Shukrullo: — E-e-e, shundaymi? Siz yoshlarga havasim keladi. Ancha keksayib qolgan bo`lsam-da, o`zim ham sizlar bilan bir davrda yashab turganimdan quvonaman. Sizlarda istagancha ijod qilish imkoni bor. Bundan to`g`ri foydalaninglar. Biz ko`rgan qiyinchiliklarni, qora kunlarni sizlar aslo ko`rmang. Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy, Cho`lponlar milliy adabiyotimizning yorqin vakillari bo`lsa-da, ularning she`rlarini, asarlarini berkinib o`qirdik. Mana, yashash, yozish, yurti, millatni madh etish davrida, hurlikdan kuylash pallasida yashayapmiz”(D., 19 (687)-son, 10.05.2012).

Lavha janri badiiy-publitsistik janrlar ichida ijtimoiy hayot voqeligini tezkor va jonli tarzda ifodalab beradigan – xabar qiladigan turlaridan biri hisoblanadi.

Ushbi janrning yana bir xarakterli xususiyati shundan iboratki, uning namunalari hozirgi nodavlat gazetalarda kam sonda uchraydi. Asosiy namunalari ijtimoiy-siyosiy OAVlarida berilib boradi. Yana, shuningdek, lavhada jonlilik va haqqoniylikni ta`minlash uchun fotosuratlardan foydalaniladi.

3. OCHERK JANRINING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Publitsistik janrlarning yirik tadqiqotchisi O.Tog`ayev ushbu janrga “badiiy adabiyotga xos balletistik va gazeta janrlariga xos publitsistik xususiyatlarning uzviy birligi ocherkning muhim janr xususiyatini belgilaydi”, – deb ta`rif beradi³⁹. Ocherk badiiy-publitsistik janrlar orasida o`ziga xos belgilari bilan ajralib turadi. Shunday xarakterlovchi belgilaridan biri hozirjavoblikdir. Jamiyat hayotidagi bugungi kun voqeliklarini va shaxslarni hozirjavoblik bilan gazetxon hukmiga havola etadi. Ocherk mustaqil epik janr sifatida o`ziga xos taraqqiyot yo`lini bosib o`tgan. Shu nuqtai nazaridan “ocherk gazeta janrlari orasida eng murakkab, eng ziyrak, ixcham, hozirjavob” janr sifatida shakllangan. Unda jamiyatdagi real shaxslar taqdiri, haqiqatda bo`lib o`tgan voqealar yozuvchi, jurnalist yoki muxbirning kuzatishlari asosida badiiy aks ettiriladi. Boshqacha qilib aytganda, “gazeta ocherklarida badiiy til vositalaridan unumli foydalanish asosida mavzu publitsistik ruh bilan yoritiladi⁴⁰”. Aksariyat ocherklarning mavzusi zamon qahramonlari bo`lgan taniqli kishilarning faoliyati bo`lib, unda jamiyatdagi konkret shaxs, mehnat jamoasi, tashkilot hayoti aks ettirilgan bo`ladi. A.Abdusaidovning doktorlik dissertatsiyasida ocherkning janriy xususiyat va belgilari quyidagicha izohlangan: ocherklarda axborot mexanik tarzda ocherkbop qilib yozilmaydi, balki axborotda ocherkbop asos mavjud bo`ladi. Ana shu asos badiiy-publitsistik janr talablari asosida – badiiy uslub elementlari, ifoda-tasvir vositalari, frazeologizm, maqollardan ekspressiv ma`noni ifodalash maqsadida foydalanish orqali yoritishga sabab bo`ladi. Axborotni bu usulda ifodalash material ta`sirchanligini oshiradi. Ocherkda axborot ham tahliliy ham badiiy-publitsistik usullarda uyg`un shaklda beriladi va bir qator muammolar ham unda o`z ifodasinining yechimini topadi⁴¹.

³⁹ Тоғаев О. Публицистик жанрлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976, 62-б.

⁴⁰ Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан.докт.дис. автореф. – Самарқанд, 2005, 26-б. Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2008.

⁴¹ Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан.докт.дис. автореф. – Самарқанд, 2005, 27-б.

Ocherk badiiy publitsistikaning asosiy janrlaridan biridir. Ocherk soʻzining lugʻaviy maʼnosi ruscha "chertit, ocherchivat" soʻzidan olingan boʻlib, "chizmoq, atrofiga chiziqliq tortmoq" degan maʼnoni anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ocherk muayyan muddao asosida mushohada qilingan faktlar, voqea va hodisalarning eng muhim belgilarini, kishilar harakatidagi eng asosiy xususiyatlarini badiiy- publitsistik aks ettiradi va oʻquvchida yaxlit tasavvur, muayyan tushuncha hosil qiladi.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “ocherk - hayotiy faktlarni qisqacha tasviridan iborat kichikroq badiiy asar”, deyiladi. Koʻrinib turibdiki, bu oʻrinda ocherk taʼrifiga adabiyoshunoslik nuqtai nazaridan yondashilgan. “Jurnalist spravochnigi” da esa “Ocherk kishilar haqida obrazli tasavvur berish, ularni harakatda koʻrsatish, voqealarning mohiyatini ochib beruvchi janrdir”, deyiladi. Bu taʼrifda ham mazkur janrning barcha xususiyatlari ochilmagan, chunki ocherk faqat kishilar haqida emas, biror ijtimoiy, tabiiy, ekologik va boshqa muammolar haqida ham boʻlishi mumkin.

M.Xudoyqulov ocherk janriga berilgan taʼriflarni tahlil qilib, quyidagi fikrlarini bildirgan: Rus tadqiqotchilaridan Ye.I.Jurbina bu janrga “Ocherk badiiy adabiyot va publitsistikaning murakkab koʻp qirrali shaklidir”, deb taʼrif beradi. Bu taʼrifning kamchiligi shundaki unda ocherk ham badiiy adabiyot ham publitsistikaning janri etib koʻrsatilmoqda. Bu maʼlum darajada noaniqlikka olib keladi. Yana bir rus tadqiqotchisi K.V.Kovalevskiy esa “Ocherk oʻquvchiga kishilar, ularning ishlari, voqealar haqida obrazli tasavvur beradi”, deb yozadi. Bu taʼrif ham ilmiy aniq va mukammal emas, chunki badiiy adabiyotga xos boʻlgan barcha janrlar - sheʼr, hikoya va boshqa janrlar ham “kishilar, ularning ishlari, voqealar haqida obrazli tasavvur” beradi. Oʻzbek tadqiqotchisi O.Togʻayev mazkur janrga: "Ocherk gazeta janrlari orasida eng murakkab, eng ziyrak, ixcham, hozirjavob janrdir", deb tushuncha beradi. Bu taʼrif ham ilmiy mukammal emas, chunki ocherk jurnalidan ham, radio va televideniya ham joy

oladi, ikkinchidan, badiiy- publitsistik janrlardan feleton va pamflet ham murakkablikda ocherkdan qolishmaydi⁴².

Ocherk badiiy - publitsistik janr bo'lganligi uchun unda badiiy adabiyotga xos bo'lgan vositalar bilan publitsistik xususiyat uzviy bog'lanib ketadi. U so'z san'ati bilan so'z siyosati uyg'unlashuvchi, boshqacha qilib aytganda, siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy fikr, maqsad badiiy adabiyot vositasi, san'at so'zi bilan aytiluvchi janrdir. Ocherkning badiiy talabi undagi voqelikning obrazli tasviri, inson qiyofasi va ichki dunyosi, mehnati va intilishlari, yaratuvchilik faoliyatini badiiy vositalar bilan jonlantirib tasvirlashdan iborat bo'lsa, uning publitsistik jihatida muallifning voqea va hodisalar, unda ko'tarilgan muammolar haqidagi fikr-mulohazalari, chiqargan xulosalaridan iboratdir. Ocherkda obraz va obrazlilik o'xshatish, qiyoslash, sifatlash, emotsionallik, obrazli tafakkur va tasvir jonli til va uslub, tipiklashtirish, badiiy to'qima bilan fakt uyg'unligi, syujet, kompozitsiya va boshqa badiiy vositalar orqali o'z ifodasini topsa, uning publitsistikaga oid qirralari esa fakt tanlash, ijtimoiy- iqtisodiy, ma'naviy jihatdan chuqur tadqiq va tahlil qilish, baholash, zarur xulosalar chiqarish orqali amalga oshiriladi. Bu esa ocherkchidan publitsist sifatida hayotdagi fakt va hodisalarni tanlab olish, ular haqida chuqur mushohada yuritish bilan birgalikda ijodkor, yozuvchi sifatida ham ish olib borib, olingan fakt va hodisalarni badiiy vositalar orqali obrazli tasvirlash, kishilar obrazini yarata olish, badiiy-publitsistik mushohada yuritishni talab qiladi.

Ocherk o'z shakli va yo'naltirilgan maqsadi hamda obyektini nuqtai nazaridan turlicha bo'lib, ular portret ocherki, voqea ocherki, muammo ocherki, yo'l ocherki, sud ocherki va boshqalardan iboratdir. Ocherkning bu xillariga xos bo'lgan umumiylik - hayotni obraz va obrazlilik yordamida tasvirlash bo'lib, farqlari esa mazkur tasvirning biror jihatiga kengroq o'rin berilishi hisoblanadi.

⁴² Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Университет, 2008, 189-190-б. Тоғаев О. Публицистик жанрлар. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Ўқитувчи, 1976.

Ocherk janri o`ziga xos taraqqiyot yo`liga ega. Shu taraqqiyot natijasida ocherkning bir qancha “ichki janrlari” vujudga keldiki, ular alohida xarakterli xusiyat va belgilarga ega.

Ocherk turlari

5-jadval

Publitsistik janrlar⁴³	Gazeta janrlarining til xususiyatlari⁴⁴	Jurnalistika va publitsistika⁴⁵
Portret ocherk, safarnoma (yo`l ocherki), muammo ocherk	Ocherk-portret, ocherk-lavha, safarnoma (yo`l ocherki), muammoli ocherk	Portret ocherki, voqea ocherki, muammo ocherki, yo`l ocherki, sud ocherki.

Bundan tashqari, turli manbalarda sud ocherki haqida ham ma`lumotlar berilgan bo`lib, bugungi kun gazetalarida faol qo`llaniladigan janr hisoblanadi.

Ocherk turlari bir-birlaridan turli xususiyatlariga ko`ra farqlanadi<sup>46</sup>. Masalan, portret ocherkida biron insonning ijtimoiy, siyosiy yoki ijodiy qiyofasi so`z vositasida tasvirlanadi, aniqrog`i chiziladi. Bunday ocherklarda, asosan, taniqli shaxslar obrazi yaratiladi va uning ichki va tashqi dunyosi bilan bog`liq faktlar ijtimoiy faoliyati bilan birga omuxta tarzda tasvirlanadi. Yo`l ocherki o`zbek publitsistikasining nisbatan qadimiy janrlaridan biri bo`lib, unda safar-sayohat taassurotlari aks ettiriladi.

Keyingi yillar gazeta janrlari orasida ommaviy va o`qishli janrlardan biri sifatida sud ocherklarini ko`rsatish mumkin. Jinoiy faoliyat va uning salbiy oqibatlaridan to`g`ri xulosa chiqarish imkonini beruvchi ushbu janr detektiv va kriminalistik taassurotlarga boyligi bilan boshqa gazeta janrlaridan farq qilib

⁴³ Тоғаев О. Публицистик жанрлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976, 91-б.

⁴⁴ Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. докт. дис. автореф. – Самарқанд, 2005, 48-б.

⁴⁵ Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Тафаккур, 2010, 236-б.

⁴⁶ Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2008, 189-б.

turadi. Hozirgi kunda nafaqat huquqni himoya qiluvchi davlat tashkilotlari organlari bo'lgan gazeta va jurnallarda ("Postda", "Inson va qonun"), balki boshqa gazetalarda ham bu janr imkoniyatlaridan foydalanilmoqda.

Tadqiqotchi Nigora To'xtamatovaning "Hozirgi o'zbek matbuotida ocherk" nomli maqolasida keyingi yillar matbuotdagi ocherklarga xos xususiyatlar yaxshi tahlil etilgan⁴⁷. Tadqiqotchining quyidagi fikrlari e'tiborni tortadi: "So'nggi paytlarda matbuot sahifalarini ko'proq axboriy janrlardagi materiallar egallab borayotganligi sababli, mazkur janrda yozilgan materiallar kam uchramoqda. Bugungi tezkor asrda uzoq yillardan beri matbuotning asosiy va muhim janri sifatida qo'llanilib kelingan ocherk janri kerakmi, degan tabiiy savol tug'iladi. Agar janrning tabiatidan, uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi kunda ham ocherkni matbuotda keng qo'llashimiz zarur. Yana hozirda respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy islohotlarning mazmun-mohiyatini xalqqa yetkazishda, mustaqil yurtimizni rivojlantirishga, farovon va adolatli jamiyat qurishga beqiyos hissa qo'shayotgan zamondoshlarimiz qiyofasini yaratish va ular timsolida davr qahramonlarini kashf etishda ocherk janri muhim rol o'ynaydi. Janrdagi badiiy vositalar, ya'ni obraz va obrazlilik, o'xshatish, qiyoslash, sifatlash, emotsionallik, jonli til va uslub, tipiklashtirish, badiiy to'qima orqali ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalar, inson qiyofasi va ichki dunyosi chuqur tasvirlab beriladi".

Ma'lumki, mazkur janrda matbuotning tasvir va ta'sir funksiyasi kuchli rol o'ynaydi. O'quvchi voqelik obrazli qilib tasvirlangan, chuqur va keng tahlilga asoslangan, mazmunli bunday matbuot materiali orqali hayotni chuqur idrok etishga, uning mag'zini chaqishga va falsafiy xulosalar chiqarishga intiladi. Ocherk o'quvchini o'ylashga, fikrlashga undaydi, uning dunyoqarashini shakllantiradi, ijtimoiy borliqni chuqurroq tushunishiga yordam beradi. Bugungi matbuot sahifalarini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, asosan, ijtimoiy, iqtisodiy hayot tasvirlangan voqea ocherki, mehnatda yuksak natijalarga erishayotgan

⁴⁷ Тўхтаматова Н. Ҳозирги ўзбек матбуотида очерк. // Ўзбекистон матбуоти, 2009, 6-сон, 60-61-б.

zamondoshlarimizning qiyofasi yoritilgan portret ocherklarini uchratishimiz mumkin. Jumladan, “Xalq soʻzi” gazetasi sahifalarida Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi Toʻxtaboyev, taniqli jurnalistlardan Aliqul Xonimqulov, Olimjon Usanov, Abdunabi Haydarov, Matnazar Abdulhakimlarning portret va voqea ocherklari eʼlon qilingani maʼlum⁴⁸. Tadqiqotchining tahlillari eʼtiborga sazovor, bunday tahlillarni nodavlat gazetalari ocherklari materiallari asosida ham bajarish lozim, deb hisoblaymiz.

3.1. Ocherk janrining leksik-stilistik xususiyatlari

Maʼlumki, ocherk janri til birliklarining ishlatilishi bilan boshqalardan farqlanadi. Tasvirning haqqoniyligi unda keltirilgan faktlar bilan belgilanadi. Obrazni toʻlaroq ochib berish uchun badiiy tasvir vositalaridan foydalaniladi. “Darakchi” gazetasida bosilgan ocherk janriga oid materiallarni toʻplashga harakat qildik. Ularning deyarli barchasi “Sud zalidan” rukni ostida eʼlon qilingan sud ocherklari hisoblanadi.

N.Toʻxtamatovanning “Hozirgi oʻzbek matbuotida ocherk” nomli maqolasida keyingi yillar matbuotdagi sud ocherklari tahlili ham berilib, tadqiqotchining ayrim xulosalari bayon etilgan. Jumladan, “Huquq” gazetasi va boshqa matbuot nashrlarida “sud ocherki” deya berilayotgan materiallarda janrga xos mana shu xususiyatlar yetishmayapti. Ularda, asosan, voqea tafsiloti quruq bayon etiladi, muallifning sud jarayonida mutlaqo ishtirok etmagani sezilib turadi. Publitsistik tahlil va mushohada yetishmaydi, masalaga bir tomonlama yondashuv aks etib turadi. Bunga misol qilib, “Huquq” gazetasida eʼlon qilingan “Himoyachi rahnamolar” Turli voqea-hodisalar, xalq orasida yashayotgan oddiy, mehnatkash insonlar haqida soʻz boradi. Ularning ichki kechinmalari, ruhiy olami, hayot haqidagi qarashlari oddiy tasvirlanadi”⁴⁹.

Toʻplagan materillarimizni sud ocherki va uning tiliga qoʻyiladigan talablar nuqtai nazaridan tahlil qilishga harakat qildik. Masalan, “*Chens*”ning *nayrang*

⁴⁸ Tўхтаматова Н. Ҳозирги ўзбек матбуотида очерк, 61-б.

⁴⁹ Tўхтаматова Н. Ҳозирги ўзбек матбуотида очерк, 61-б.

tuzog`i yoxud tarmoqli marketing niqobidagi qonunbuzarliklar” (D.,5(621), 03.02.2011) sarlavhali sud ocherkida voqea-hodisalar izchil bayon etilgan, fikrni isbotlashga oid faktlar keltirilgan. Matn tarkibida mavzuga oid tanqidiy fikrni ifodalash uchun, avvalo, neytral til birliklari, emotsional-ekspressiv ma`noli so`zlardan o`rni bilan foydalanilgan.

Ocherk matnida juda ko`plab o`zlashma so`zlar qo`llanilgan bo`lib, ularning tarkibida ruscha-baynalminal so`zlar mavjud. *Distributor, kosmetika, aktiv, vise-prezident, legallashtirish, litsensiya, kompaniya, disk, reklama, kontrabanda, realizasiya, offis, sseminar-trening, leksiya, master-klass, mentalitet, elektron baza, plastik kartochka, dollar, biznes* kabilar shular jumlasidandir. “...noqonuniy pul tushumlari va *distributorlar identifikasiya* raqamlari hisobotini yagona *elektron* bazaga joylash, buyurtmalarni yuritish kabi ishlarni “*professional_darajada*” bajarib, xorijlik janoblar nazariga tushishgan”.

Matn tarkibida ayrim tushunchalar o`z sinonimlari bilan birga qo`llanilgan: *master klass – seminar trening* sinonimik qatorida har ikkala qism ham o`zlashma qatlamga doir bo`lsa, *moliyaviy ehrom – tarmoqli marketing_shaklida* esa aralashgan holda qo`llanilgan. *Moliyaviy ehrom va tarmoqli marketing* birikmalari tushuncha va so`z birikmasi sifatida tilimizda neologizmni tashkil qiladi.

Ushbu sud ocherkida ko`chimlar, badiiy vositalardan keng foydalanilgan bo`lib, bu holat keyingi yillar gazeta stiliga xos xarakterli jihat hisoblanadi. “*Biroq bu jarayonda mazkur imkoniyat va imtiyozlardan g`araz maqsadlar yo`lida foydalanishga urinayotgan, noqonuniy yo`llar bilan bo`lsa-da, mo`may pul topish, boylik to`plash vasvasasiga tushib qolganlar ham uchrab turadi*”. Ushbu jumladagi “*g`araz maqsadlar yo`lida*”, “*mo`may pul topish*”, “*vasvasaga tushib qolganlar*” kabi birikmalarda badiiy vositalardan foydalanib, ta`sirchanlikni oshirishga harakat qilingan.

“*Janob Xe Yang “pichoqning sopini o`zidan chiqarish” maqsadida “Yang Chans Asian” MCHJ direktorligini yurtdoshimiz A.Abduraimovga topshiradi*” gapida qo`llanilgan “*pichoqning sopini o`zidan chiqarish*” birikmasi maqolning o`zgargan shakli hisoblanadi. “*Chens*” kompaniyasi mahsulotlarining

“mo`jizaviy” qudratiga bag`ishlangan “leksiya”lari jinoiy guruh faoliyatida muhim rol tutgani shubhasiz”. Kinoyaviy tarzda ishlatilgan “mo`jizaviy” va “leksiya” so`zlari badiiy imkoniyatlarni to`la namoyon qilishga sabab bo`lgan. Bulardan tashqari, “oqib” boravergan, bebaho ne`mat, zamonaviy biznes, qilmishlarini fosh etdi, makr to`riga ilinganlar, bir pulga qimmat, til biriktirmoq, jinoyatga sho`ng`ib ketmoq, tegirmoniga ham suv quymoq, vasvasaga tushib qolmoq kabi ibora va tasviriy ifadalar qo`llanilgan.

Shuningdek, publitsistik janrga xos bo`lgan ijtimoiy-siyosiy leksik birliklar ham faol ishlatilgan: *kodeks, qonun, sud, tartibni buzmoq, qonunga bo`ysunmoq, jinoiy faoliyat, jinoiy guruh, moliyaviy nayranglar, qilmish, jazo, tergov-surishtiruv, jinoiy maqsad, Mas`uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ), legallashtirish, realizasiya, qonunbuzarlik* va boshqalar.

Ushbu sud ocherki janr talablariga binoan qahramonning ijtimoiy qiyofasini gazetxon ko`z o`ngida gavdalantirish uchun badiiy-publitsistik uslubning barcha imkoniyatlaridan: troplar, badiiy til vositalari, ijtimoiy-publitsistik leksika, yuridik atamalardan keng foydalanilgan.

“Firibgarlik ortidagi mashmashalar yoxud xonanda Alisher Rahmatullayev kimlarni va nima maqsadda chuv tushirgan edi?”⁵⁰ nomli sud ocherki bir necha qismlardan iborat bo`lib, yirik hajmli ocherk hisoblanadi. Ushbu ocherk qismlari sarlavhalari quyidagicha nomlangan: *“Mehmonxonadagi odam”, “Sabrning tagi...nima?”, “Ko`nglingiz to`q bo`lsin”, “Masala tez kunda hal bo`ladi!”, “Orada kim turibdi, bilasizmi?”, “Konferens-aloqa”, “600 tonna sement bor”, “Janob Malxotradan salom”, “Alisher uztozini ham aldaganmi?”, “Bo`ldi ajab hangomalar”.*

Ichki kichik sarlavhalar ocherkning keng qamrovli ekanini va mavzuni to`la yoritishga harakat qilinganidan dalolat beradi. Sarlavhalarning o`zida ham bir necha badiiy til elementlari, jumladan, iboralardan foydalanilgan. *“Do`ppisi tor kelmoq”* iborasi *“do`ppisi tor kelgan” chog`da* shaklida qisman o`zgartirilgan holda qo`llanilgan bo`lsa, *“sabrning tagi – sariq oltin”* maqoli sarlavha o`rnida

⁵⁰ Darakchi, 10-,11-,12-,13-sonlar, 10.03 - 07.04.2011.

qisqartirilgan shaklda – “*sabrning tagi*” tarzida ishlatilgan. Sud ocherkida *najot qopqasi, ko`nglingizni to`q qiling, ko`z ochib yumguncha, erkakcha gap, sillasi qurigan, nozik odamlar, haqqini yeb ketadigan, qistab turibdi, gap chiqishidan umidini uzib, ishimiz pishmayapti, oxiri baxayr bo`lsin, gapning ustidan chiqish, katta qarz ko`targan, gap ochib qoldi, iliq so`rashdi, o`ziga to`q tanishlar, holi joniga qo`ymay, nayrang tuzog`iga ilintirish, ko`zini ochib, qadamini o`ylab bosganida, gullagan damlarini panjara ortida o`tkazish, jinoiy til biriktirish, ishonchni qozondi* kabi badiiy til vositalari ta`sirida shakllangan iboralar qo`llanganki, ular matnning badiiy qimmatini oshirish, ta`sirchanligini shakllantirishda asosiy omil bo`lib xizmat qilgan.

Ko`chma ma`noli iboralar ham qo`llangan bo`lib, ular alohida tahlil talab qiladi. Jumladan, “*Xuddi aka-ukadek yaqin bo`lib ketdik*” jumlasida “*yaqin bo`lmoq*” iborasi metafora usulida hosil bo`lgan bo`lib, *do`st, sirdosh, hamkor* ma`nolarini ifoda etgan.

“*Alisher umrining eng “gullagan” damlarini panjara ortida o`tkazishga majbur*” jumlasida qo`llangan “*gullagan*” so`zi ham metaforik ma`no ifodalab, *yoshligini, navqiron damlarini* ma`nosi o`rnida ishlatilgan. Bundan tashqari, publitsistik janrning talablaridan kelib chiqib, publitsistik, rasmiy-idoraviy uslublarga tegishli so`z va iboralardan foydalanilgan: *Jinoyat kodeksi, sud jarayoni, sud zali, ijtimoiy xavfi yuqori, jabrlanuvchi, aybdor, guvoh, ozodlikdan mahrum qilish, aybini tan olmoq, jarima, yolg`on guvohlik, tadbirkorlik faoliyati, xorijiy sarmoya, xorijiy sarmoyador, qo`shma korxona, dilerlik kompaniyasi, kompaniya vakili, iqtisodiy islohatlar, jamiyat taraqqiyoti, umumiy baling, firibgarlik* va boshqalar. “*Sud Alisher Rahmatullayevni “Jinoyat Kodeksi”ning tegishli moddalariga ko`ra aybdor deb topdi*”.

Sud ocherki matnida, keyingi yillar gazeta matnlarida ko`p uchrayotgan, xorijiy o`zlashma so`z va iboralar faol qo`llanilgan. Shunisi xarakterliki, iste`molda bo`lgan bunday so`z va birikmalar tilimizning ushbu uslubiga xos bo`lib, adabiy tilimizda me`yorlashgan. Ocherkda qo`llanilgan badiiy til vositalari – kinoya, metafora, iboralar, shuningdek, uslubiy betaraf so`z va birikmalar

barchasi – qahramonning ichki tabiatini va ijtimoiy qiyofasini tasvirlab berishga erishilgan.

3.2. Ocherk janrining grammatik-stilistik xususiyatlari

Ocherk janriga xos boʻlgan grammatik-stilistik xususiyatlarni tahlil qilish bir qadar qiyin tadqiqot hisoblanadi. Chunki grammatik normalarga rioya qilish matbuot uchun birlamchi ahamiyat kasb boʻlsa-da, adabiy til meʼyorlariga doim ham amal qilinavermaydi. Tilshunoslikda bu soha boʻyicha tadqiqotlar olib borilgan. Bu haqda A. Abdusaidov oʻzining “Jurnalistning tildan foydalanish mahorati” nomli monografiyasida alohida toʻxtalgan.

Matbuotning asosiy muammolaridan biri gazetalarda jumla tuzishdagi kamchiliklarning koʻplab yuz berayotganligidir. Soʻzni nooʻrin qoʻllash, imlo qoidalariga rioya qilmaslik natijasida sodir boʻlayotgan nisbatan kichik, juzʼiy boʻlib koʻrinishi mumkin. Aslida ularni ham juzʼiy deb boʻlmaydi. Lekin jumla tuzishdagi xatolik, gʻalizlik, chalkashliklar matbuot tilining sifati, uning taʼsirchanligi, savodxonlik va nutq madaniyatini oshirish, adabiy normani puxta egallashdagi rolini pasaytiradi⁵¹.

Gazeta tilining grammatik-stilistik xususiyatlari, deganda, grammatik meʼyorlarga qatʼiy amal qilingan, tilimizning stilistik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda grammatik vositalardan mohirona foydalanilgan holda yaratilgan matnlarning oʻziga xosliklari tushuniladi. Sud ocherklarida soʻz birikmalari, xususan, qaratqich-qaralmish va sifatlovchi-sifatlanmish konstruksiyalar imkoniyatlaridan oʻrinli foydalanilgan. Uyushiq boʻlaklarning stilistik imkoniyatlaridan oʻrinli foydalanishga harakat qilingan.

Maʼlumki, gapning ifoda va maqsadiga koʻra turlari oʻziga xos stilistik imkoniyatlarga ega. Ana shu imkoniyatlardan, ayniqsa, ixcham, mazmunli sodda gaplar, soʻroq va undov gaplarning oʻziga xosliklaridan ham oʻrni bilan foydalanilgan.

⁵¹ Абдусайдов А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. – Самарқанд, 2004, 74-75-б.

Grammatik vositalardan unumli va o`rinli foydalanish bilan birga, keyingi paytlarda barcha gazetalarda kuzatilayotgan, quyidagi grammatik me`yorlarga qisman amal qilmaslik ko`zga tashlanadi. 1. Morfologik me`yorlar:

- Kelishik qo`shimchalarini farqlamaslik.
- Kelishiklardagi belgisi va belgisizlikni noo`rin qo`llash.
- So`z yasovchi qo`shimchalar.
- Fe`l nisbatlari ni qo`llash yoki qo`llamaslik bilan bog`liq me`yorlar.

2. Sintaktik me`yorlar:

- So`z va gaplarning mantiqiy bog`lanishi.
- Jumla tuzishda so`z va birikmalar, shuningdek, iboralarni o`z o`rnida ishlatmaslik.
- Jumlani shakllantirishda faqat badiiy vositalardan foydalanib, fikrning aniqligiga putur yetkazish.
- Gap tartibi – odatdagi holat va inversiya qoidalariga rioya qilish va boshqalar.

3. Tinish belgilarni ishlatishda normaga rioya qilish.

Mavjud qoidalar asosida ocherklarni tahlil qilar ekanmiz, eng ko`p me`yorga amal qilmaslik kelishik qo`shimchalari bilan bog`liq. Misol uchun yuqorida ta`kidlab o`tganimiz, *“Firibgarlik ortidagi mashmashalar”* sud ocherkida ham qaratqich va tushum kelishiklari noo`rin ishlatilgan o`rinlar bir nechta tashkil qiladi. Masalan, *“Alisherni qo`shiqlarini tinglaganlar, u haqda ijobiy fikr bildirib kelardi, ammo...”* jumlasida *“Alisherni qo`shiqlarini”* emas, balki *“Alisherning qo`shiqlarini”* shaklida bo`lishi kerakligini va bu xato sheva bilan bog`liqligini ta`kidlash mumkin.

“Mehmonxonaning kutish zalida Alisherni 20 daqiqacha vaqt davomida kutib turdim” jumlasida *–cha* qo`shimchasi yoki *“vaqt davomida”* birikmasi ortiqcha qo`llangan bo`lib, jumlani *“Mehmonxona kutish zalida Alisherni 20 daqiqa kutib turdim”* shaklida qo`llash mumkin edi.

Ocherk janrida grammatik vositalarning, xususan, kelishik qo`shimchalarining belgili va belgisiz qo`llanishi, so`z birikmalarining ishlatilishi, gaplarning uslubiy xususiyatlaridan foydalanish alohida jihatlariga ega. Bu muammolarni kelgusida atroflicha tadqiq etish lozim, deb hisoblaymiz.

4. FELETON JANRINING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Feleton gazeta janrlari orasida eng ta'sirchanligi, tanqidiyligi va o'qimishliligi bilan ajralib turadi. Ushbu termin manbalarda keltirilishicha, italyanча so'zdan olingan bo'lib, "varaqa" degan ma'noni ifoda etadi. Ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan illatni fosh qilishda feleton janrining o'ni beqiyosdir. Ilmiy tadqiqotlarda, jumladan, "Publitsistik janrlar", "Adabiy tur va janrlar", "Gazeta janrlarining til xususiyatlari", "Gazeta janrlarining tili va uslubi" feleton janri o'z izohiga ega. "Adabiy tur va janrlar" akademik nashrida feleton hayotda haqiqatda mavjud bo'lgan illatlarni, shu illatlarni o'zida tashuvchi aniq shaxslarning qusurlarini tadqiq etuvchi, uning ijtimoiy mohiyatini yorqin fosh etuvchi satirik janr sifatida sharhlanadi.

"Publitsistik janrlar" kitobida "...hayotdagi konkret kamchiliklarni yo'q qilishga amaliy ta'sir ko'rsatish bilan birga, gazetxonlar ommasini ahloqiy va estetik jihatdan tarbiyalaydi, yangi odamning shakllanishiga yordam beradi", – deb ta'riflanadi⁵².

A.Abdusaidovning tadqiqotida feleton quyidagicha izohlangan: gazeta feletonlari adabiy feletonlardan ma'lum xususiyatlari bilan farq qiladi. Gazeta feletonlari asosan, hujjatli feletonlar bo'lib, uning qahramonlari konkret shaxs, jamoa bo'lishi mumkin. Konkret shaxs, jamoaning xatti-harakatlari natijasida yuz bergan salbiy holat feletonda aniq, tekshirilgan faktlar asosida fosh etiladi. Feletonning o'ziga xosligi uning tilida namoyon bo'ladi⁵³. Feletonning ijtimoiy mohiyati va ta'sir imkoniyatlarining keng uchun o'ziga xos taraqqiyot yo'lni bosib o'tdi. Ushbu taraqqiyot natijasida feleton janrining bir qancha turlari vujudga keldi. Feletonning "ichki janrlari", ya'ni adabiy feletonlar va hujjatli feletonlar yuzaga keldi.

⁵² Тоғаев О. Публицистик жанрлар. Ўқув қўлланма. Тошкент. Ўқитувчи. 1976, 111-bet

⁵³ А.Абдусайдов. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. ДДА. Тошкент. 2005. 28-bet, Абдусайдов А. Газета тили ва адабий норма. – Самарқанд, 1988.

4.1. Feleton janrining ayrim leksik-stilistik xususiyatlari

Ushbu janrlarning lingvistik xususiyatlari haqida tilshunoslikda bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan. Bu ishlarda taniqli jurnalist va yozuvchilar tomonidan e`lon qilingan feletonlar tahlil qilingan bo`lib, ularda feletonning leksik-grammatik va stilistik imkoniyatlari to`la yoritilgan. Shunday tahlillar tilshunos olimlar M.Xudoyqulov, A.Abdusaidov, O.Tog`ayevlar⁵⁴ning tadqiqotlarida, shuningdek, adabiyotshunoslar I.Sultonov, D.Xudoyberganov, N.Shukurov, H.Umurov⁵⁵larning kitoblaridan ham o`rin olgan. Ana shu tadqiqotlardagi tahlillarga asoslanib, nodavlat gazetalarda e`lon qilingan feletonlar tilini o`rganishga harakat qildik.

“Darakchi” gazetasining 7-soni (675. 16.02.2012) da O`zbekiston xalq yozuvchisi O`tkir Hoshimovning “*Usta ko`rgan shogird*” sarlavhali feletoni “Kulgixona” rukni ostida nashr qilingan. Unda real hayotdagi ijtimoiy illatni hajviy yo`l orqali fosh etishga harakat qilingan. Ilmiy faoliyatdagi saviyasizlik, fan kishilarining poraxo`rligi, soxta ilmiy ishlar ustidan sarkazm vositasida ochib tashlanganligi bu feletonning xarakterlovchi xususiyatidir. Feletonda xalq og`zaki ijodi unsurlaridan, jumladan, maqol, matal, naql kabi frazeologik birliklardan mahorat bilan foydalanilganki, bu so`z ustasi tomonidan yaratilganining isbotidir.

Feleton matnida 135 ta gap ishtirok etgan bo`lib, 48 ta maqol va bir nechta iboralar qo`llanilgan. Matnda ishlatilgan maqollar quyidagilar:

1. *Ustoz otangdek ulug`.*
2. *Oltin olma, duo ol.*
3. *Usta ko`rmagan shogird har maqomga yo`rg`alaydi.*
4. *Katta daraxtning soyasi ham katta bo`ladi.*
5. *Katta arava qaysi yo`ldan yursa...*
6. *Yaxshidan etar sharofat.*
7. *Olim bo`lsang, olam seniki.*

⁵⁴ Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол.фан. докт...дис. автореферати. – Тошкент, 2005. Тоғаев О. Публицистик жанрлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.

⁵⁵ Умuroв Х. Адабиёт назарияси. Дарслик. –Тошкент: Шарқ, 2002, 220-б.

8. *Nina bilan quduq qazishday gap.*
9. *Chumchuqda qo`rqqan tariq yekmaydi.*
10. *Aravaga tushib ashullasini aytmoq.*
11. *Xayt degan tuyaga mador.*
12. *Qo`yniga to`kilsa, qo`njiga.*
13. *Ro`zg`or g`or.*
14. *Bir tovuqqa ham suv kerak, ham don.*
15. *Mehmon kelar eshikdan, nasibasi teshikdan.*
16. *Kengashli to`y to`zimas.*
17. *Teng-tengi bilan.*
18. *Oling quda, bering quda.*
19. *Tengi chiqsa, tekin ber.*
20. *Uyqu joy tanlamas, muhabbat chiroy.*
21. *Osilsang, baland dorga osil.*
22. *Bor tovog`im, kel tovog`im.*
23. *Kuyovni payg`ambarlar siylagan.*
24. *Kelinni kelganda ko`r, sepini yoyganda ko`r.*
25. *Qush tilini qush biladi.*
26. *Qatorda noring bo`lsa, yuking yerda qolmaydi.*
27. *Chumchuq so`ysa ham qassobi so`ysin.*
28. *Sabr tagi – sara oltin.*
29. *Qolgan ishga qor yog`ar.*
30. *Tuya go`shti yegandek....*
31. *Oyning o`n beshi yorug`, o`n beshi qorong`u.*
32. *Ko`pi ketib, ozi qoldi.*
33. *Qirqiga chidagan qirq biriga ham chidash kerak.*
34. *Burga tepdimi.*
35. *Dard degan botmonlab kelib, misqollab ketadi.*
36. *Rang ko`r – hol so`r.*
37. *Issiq jon isitmasiz bo`lmaydi.*

38. *Dard kelganda, darmon ketar.*
39. *Kasallik filni pashsha qiladi.*
40. *Ko`zing og`risa, qo`lingni tiy, qorning og`risa, nafsingni tiy.*
41. *O`ynab gapirsang ham, o`ylab gapir.*
42. *Dard bir tikilsa, qo`ymaydi.*
43. *Sog` tanda – sog`lom aql.*
44. *Bir oyog`ingiz to`rda, bir oyog`ingiz....*
45. *To`g`ri gap tuqqaningga yoqmas.*
46. *O`ylamay egan, og`rimay o`lar.*
47. *O`lding - aziz bo`lding, shishding – semiz bo`lding.*
48. *Domlaning aytganini qil, qilganini...*

To`g`ri, ushbu maqollarning hammasi ham manbalarda aks ettirilmagan, maqollar haqidagi tadqiqotlarda izohlanmagan. Ammo xalq jonli nutqida qo`llaniladi. Feletonda ishlatilgan ayrim maqollar mazmun talabiga ko`ra, o`zgarishga uchragan. “Ha, endi domlajon! *Mehmon kelar eshikdan, nasibasi teshikdan*”. Bu o`rinda “*Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan*” shaklidagi maqolni ayrim o`zgarishlar (*rizqing* so`zi o`rniga *nasibang*) bilan qo`llanilgan. Yana bir o`rinda “*Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan*” maqoli mana bu shaklda ishlatilgan: *teng – tengi bilan* deganlariday quda bo`lmish katta professor.

Tilimizda “*Aravaga tushgan ashullasini aytadi*”, – degan maqol ishlatiladi. Ushbu matnda esa maqol ayrim o`zgarishlar bilan ishlatilgan. “*Aravaga tushgandan keyin ashullasini aytamizda*” jumlasida ushbu maqol qo`llanilgan. Feletonda yana shunday jumla bor: *bor tovog`im, kel tovog`im, bejizga aytishushmagan. Garnitur qilish kelin tomonning vazifasi*. Ushbu parchada “*Bor tovog`im, kel tovog`im. Bormasang, kelmasang, o`rtada sin tovog`im*” shaklidagi maqolning feleton mavzusiga qarab, muallif tomonidan o`zgartirilgan variantidir. Umuman, feletonda yozuvchining san`atkorona so`z va maqol ishlatish mahorati yaqqol ko`rinib turibdi.

Taniqli yozuvchi O`tkir Hoshimovning “*Domlaning aytganini qil...*” (D.,46(610)-son,18.11.2010) nomli feletoni ham janrning go`zal namunalaridan

biri hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, keyingi yillar matbuotida juda kam uchrayotgan feletonlardan bo'lsa-da, tilimizning badiiy-tasvir imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalangani bilan ajralib turadi. Feleton inson xarakterida uchraydigan illatlarni fosh qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda qahramon sifatida ziyoli – domla tanlangan. Ustoz va shogird munosabati orqali ayrim ziyolilarda uchraydigan ezmalik, bilag'onlik illatlari tanqid qilinadi.

Feletonda maqsadni to'la ro'yobga chiqarish uchun badiiy-tasvir vositalari – ibora, ko'chim, mubolag'a, sifatlash, o'zshatishlardan, qahramonning madaniy darajasini aks ettirish maqsadida shevaga xos so'zlar va varvarizmlardan keng foydalangan.

1. Frazologik birliklar: *mehmon bir nima deganidan keyin g'orni g'ing deysanmi, o'chira qoldim*. Ushbu jumladagi “go'rni g'ing deysanmi” iborasi lug'atlarda ifodalanmagan. “...mehmoning ovqatga qo'l urmaganidan keyin qandoq qilib o'zing yeysan”. Ushbu ibora ovqat yemadi, tanovul qilmadi ma'nolarida ishlatilgan.

2. Sifatlash. “*Bir-ikki osham yeb ko'rdim. Yo'q, nozaninday osh*”, “*Xudoga shukr, xotiram buloq suviday tiniq*”.

3. Mubolag'a. “...*hammasiga xotin aybdorday chunonam o'qrayib qaradimki, qoshim naq sochimga borib yetdi, chog'i...*”.

4. Shevaga xos so'zlar. “*Avval anavu dilbuzarni o'chiring uka*”. Bu o'rinda “*dilbuzar*” so'zi “*televizor*” ning shevadagi shaklidir. “*Jahonda iskleroz bilan eng ko'p kasallanadigan xalq inglizlar ekan*”. Ushbu gapdagi “*iskleroz*” so'zi “*skleroz*” so'zining shevadagi talaffuzi bo'lib, kasallik nomini ifoda etadi.

“Kulgixona” rukni ostida e'lon qilingan ushbu feleton majoziy xarakterga ega. “Darakchi” gazetasida feletonlarning ko'pchiligi aynan shu rukn ostida bosilmoqda.

Ma'lumki, gazeta tilida qo'llaniladigan so'zlarning milliy qatlamlari, xususan, o'zlashmalarning qo'llanish darajasi turlicha. Bir necha asrlar mobaynida o'zbek tili leksikasi asosan umumturkiy, o'z hamda arab va fors-tojik tillaridan

o`zlashgan qatlamlar hisobiga boyib borgan bo`lsa, XIX asrning 70-yillaridan bu funksiyaning katta qismini rus tili leksikasi bajara boshladi. Rusiy zabon aholi bilan bevosita aloqalar, ishlab chiqarishda yuz bergan o`zgarishlar, aloqa, pochta, matbuotning shakllanishi va h.k. ekstralingvistik omillar o`zbek tili leksikasiga rus tili orqali G`arbiy Yevropa tillaridan ko`pgina so`zlarning kirib kelishini ta`minladi.

Mustaqillik tufayli OAV orqali yangi-yangi o`zlashmalar iste`molga kirib kelishi tezlashdi: *birja, menejment, marketing, bakalavr, magistr, litsey, kollej, firma, fermer, investr, konsern, xolding* kabi. O`zlashma so`zlar o`zbek tili boyligiga boylik qo`shuvchi, uning imkoniyatini yanada oshiruvchi muhim manbalardan biridir.

Chet so`z asta-sekin tilda ma`lum leksik birliklar bilan bog`liq holda ishlatiladi va nutqda muayyan qo`llanish shakllarini oladi. Til egalari ona tillaridan unga ma`no jihatidan mos ekvivalent topishga harakat qilishadi. Mabodo shunday til birligi bo`lsa, o`zlashmaning ma`nosi yanada ravshanlashadi. Uning tilda qo`llanish o`rni belgilanib, ishlatilish doirasi oydinlashadi. Nomlangan omillar chet so`z ma`nosiga, u ifodalagan tushuncha va tavsiflarga ham ta`sir qiladi. Demak, chet so`zning ma`nosi qabul qiluvchi tilning lug`at tarkibi, taraqqiyot darajasiga qarab to`la, qisman va hatto butunlay o`zgarib kirishi ham mumkin. Bunga misol qilib, o`zbek adabiy tilidagi asosan o`zlashtirilgan so`zlar ta`sirida yuz bergan sifat o`zgarishlarini keltirish mumkin. O`zbek tilining lug`ati, undagi so`zlarning etimologiyasi, imlo, talaffuz va anglatadigan ma`nolari bilan qiziqqan har bir kishi ona tilimiz va so`zlashuv nutqimizda ingliz tiliga oid bo`lgan til birliklari qatlamini payqashi qiyin emas. O`zbek xalqi bu leksik birliklardan o`zining og`zaki va yozma nutqida faol foydalanib kelyapti. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, "O`zbekiston ovozi" gazetasi tilida ham 1995-2008-yillarda ko`plab ruscha-baynalminal so`zlarning kirib kelganini kuzatish mumkin. Hozirgi o`zbek adabiy

tilida *intervensiya, kliring, servis, konvertasiya, marketing, konsalting, transfert, kollej* kabi soʻzlar ijtimoiy va iqtisodiy sohada faol ishlatilmoqda⁵⁶.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilda *kliring, marketing, konsalting* kabi soʻzlar ijtimoiy va iqtisodiy sohada faol ishlatilmoqda. Bu faollik tilning lugʻat tarkibini doimiy nazoratda tutish hamda davriy ravishda ilmiy-amaliy taftishga tortib turish zarurligini koʻrsatadi. Lugʻat tarkibiga davr talabi, islohotlar natijasi oʻlaroq koʻp Yevropa va boshqa chet soʻzlar oʻzlashmoqda.

Oʻzbek tilida muhim oʻrin egallab kelayotgan rus tilidan va rus tili orqali boshqa yevropa tillaridan oʻzlashgan hamda oʻzbek tilida muqobili boʻlmagan yuqoridagi singari terminlar hammamizga maʼlum. Ruscha- baynalminal soʻzlarni turkiy, oʻzbek, fors-tojik, arabcha soʻzlar bilan almashtirish, yangi soʻz va terminlar ijod qilish bilan jarayonni ilgarigidek shiddat bilan boʻlmasa-da, hamon davom etmoqda. *Ayeroqoʻnalgʻa, muzofot, roʻznoma* kabilarning asosiy dubletlari keng isteʼmolda boʻlishiga qaramay, ular parallel holda uchramoqda. Bu esa gazeta leksikasi, hatto oʻzbek adabiy tilidagi terminlar muntazamligiga putur yetkazishi mumkin. Shu tufayli ham matbuotda terminlarni ishlatish sohasida bir xillikni taʼminlash zarur. Til taraqqiyotidagi zarurat, adabiy til imkoniyatlari va adabiy norma ong aralashuvini talab etadi. Har qanday shoshma-shosharlik, termin yaratuvchilik salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini mustaqillik yillarida soʻz va terminlarni qoʻllash aniq koʻrsatdi. Oʻzbek tili taraqqiyotining ana shu qisqa davridagi holat katta saboq boʻlishi mumkin. Ruscha- baynalminal soʻzlarni arabcha variantlari bilan almashtirish ham ijobiy va baʼzan salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, jurnalistlar, tahririyat xodimlari eʼtiborini talab qiladi. Birinchidan, *tashviqot, muallif, manzil, faxriy, tashrif, fuqaro, muhandis, targʻibot, hudud, taʼtil* kabi arabcha soʻzlar oʻz dubletlari orasida hozirgi matbuot va soʻzlashuv tilida keng isteʼmolga kirganligini eʼtiborga olish; ikkinchidan, *noib (deputat), zahira (zapas), zobit (ofitser), tarix (moziy), tolib (talaba), matn (tekst), nasab (familiya), oʻrinbosar (muovin)* kabi holatlarda qaysi

⁵⁶ Давлатова Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилида инглиз ўзлаштирма лексиканинг маънолашуви // Тил ва адабиёт таълими.-Тошкент, 2001, №3, 52-бет.

variant umumqo'llanuvchan bo'lishini davr ko'rsatdi, lekin ularni ishlatishda bir xillikka erishish uchun jurnalistlar katta rol o'ynashini nazarda tutish; uchinchidan, *oliygoh, jarida, mushtariy, musohaba* kabi iste'moldan qolgan so'zlarni matbuotda qo'llayvermaslikka e'tiborini oshirish lozim.

O'zbek adabiy tili islom dini tarqalishi munosabati bilan arabcha, tijoriy, diplomatik kabi aloqalar tufayli fors-tojikcha o'zlashmalarga boyigan bo'lsa, o'tgan asr boshlarida vatanimizga vaqtli matbuotning kirib kelishi munosabati bilan ruscha-baynalminal so'zlar o'zlasha boshladi. XX asrning 70-80-yillarida matbuotda ruscha- baynalminal so'zlarning ishlatilish salmog'i ancha oshdi. Matbuot materiallarini, o'zbekcha dubletlari bo'lgani holda, ruscha- baynalminal so'zlarni o'zbekcha, fors-tojikcha, arabcha so'zlar bilan yoppasiga almashtirish tendensiyasi paydo bo'ldi. Shu holatga nazar tashlaylik:

1. Ruscha- baynalminal so'zlarni almashtirishga urinish variantlilikni yuzaga keltirdi. Bu holat, avvalo, tanlash imkoniyati jihatidan foydali bo'lishi mumkin, lekin so'z qo'llashda turli xillikning yuz berishi matbuot tili va uning nutq madaniyatini oshirishdagi roliga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Variantlilikka e'tibor bering: *defisit - kemtik, taqchil, tanqis, kamyob; jurnal - oynoma, majalla, jarida, oybitik; gazeta - ro'znoma, kunnoma, haftanoma; invalid - majruh, nogiron; oblast' - viloyat, muzofot; prezidium – rayosat, hay'at; rayon – nohiya, tuman, depara; redaksiya – muharririyat, tahririyat; student - talaba, tolib, toliba* kabilar. Bu singari dubletlar variantliliigi ma'lum so'zlar sohasida hozir tartibga tushdi. Masalan, *kemtik, taqchil* (defisit), *majruh, nogiron* (invalid), *oynoma, majalla, jarida, oybitik* (jurnal), *to'plandi* (koferensiya, anjuman), *nohiya, depara,* (tuman) kabilar matbuotda deyarli ishlatilmayapti.

2. Ruscha- baynalminal so'zlarni almashtirishga ortiqcha urinish noto'g'ri holatlarga olib keldi. Masalan, *samolyot – tayyora, havo kemasi, ayeroport – tayyoragoh, ayeroqo'nalg'a, radio – ovoznigor, so'znigor, telegramma – shoshilinchnoma, fakul'tet – kulliyot* kabi.

3. Ruscha- baynalminal so'zlarni ular anglatgan ma'noni bildiruvchi so'zlar bilan almashtirish yuz bera boshladi. Matbuot tili ixchamlikni talab etishini

hisobga olganda, ruscha- baynalminal soʻzlarni ishlataverish foydalidir. Masalan, *dekret – farzandli boʻlish taʼtili, makulatura – yaroqsiz holga kelgan qogʻoz, referendum – umumxalq ovoz berishi* kabilar.

4. Ruscha- baynalminal soʻzlarni oddiy soʻzlashuv tiliga mos holda ishlatish (*doktor oʻrnida doʻxtir, milisiya – milisa*), geografik nomlarni yozishdagi turli xillik (*Germaniya – Olmoniya, Amerika – Amriqo, Yevropa – Ovroʻpa*) kabi holatlar yuz berdi. Bu kabi qoʻllashning nooʻrinligi hozirgi kunda ayon boʻlsa-da, ayrim gazetalarda bu holat hamon uchramoqda.

Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, nodavlat gazetalarida oʻzlashgan soʻzlarga munosabat nisbatan talab darajasida. Lekin ruscha soʻzlarni feleton janrida ishlatishda oʻziga xos yondashuvlar mavjud.

“*Soch boʻyaymi, qosh teraymi?!*” (D., 4(620)-son, 27.01.2011) sarlavhali feletonda qoʻllanilgan soʻzlarning ayrimlari chet soʻzlardan iborat. Masalan, feleton matnida *ochered, sellefan, nichevo* kabi soʻzlar qoʻllanilgan.

Varvarizmlardan foydalanish tilning va nutqning madaniylik darajasini buzadi. Gazeta jamiyatning koʻzgusi ekanligi, uning madaniylik darajasini belgilashini inobatga olib yozilishi zarur. “Darakchi” gazetasining 17(633)-sonida (26.04.2011) “*Feleton oʻrnida*” rukni ostida eʼlon qilingan feletonini alohida taʼkidlash lozim. Materialda *zato, konkret, musor, otvechat, zemlyak* kabi soʻzlar, ular asosida “*Zato ogʻzim qiyshigʻu*”, “*Musor*” jargonlarni tiqishtiravermanglar”, “*Konkret Poʻlat Alandarga oʻxshading*”, “*...soʻzimga otvechat qilaman*” kabi iboralar qoʻllangan. Aslida material mazmunidan kelib chiqib, ushbu soʻz va iboralarning kino asarlarda qoʻllangani tanqid qilinganligini taʼkidlashimiz zarur. Shuningdek, ushbu feletonda shevaga xos soʻz iboralar ham qoʻllanilgan, ular ham maʼlum stilistik funktsiyani bajargan. “*Dollar olaman, dollar*” sarlavhali (50 (614)-son, 16.12.2010) feletonda sheva elementlari, argolardan keng foydalanilgan. Masalan, “*Bu yerning “koʻki”ni faqat man hal qilaman, man, eshitdingmi?*” va “*...kecha kelib olib mening “kliyent”larimni yoʻldan urasan-a*” kabi jumlalardagi “*koʻki*” va “*kliyent*” soʻzlari ana shunday birliklardandir. *Men*

olmoshining o`rnida “*man*” sheva shakli qo`llanilgan. Iboralar ham ma’lum stilistik vazifani bajargan: “*hal qilmoq*”, “*yo`ldan urmoq*” kabilar.

“*To`ydagi “birrovchi”lar yoxud to`yda navbat talashayotganlar*” sarlavhali materialning sarlavhasi va “Feleton” rukni e’tiborni tortadi. Avvalo, feleton janri talabiga ko`ra ishlatilgan emotsional-ekspressiv leksik birliklar matn mazmuniga mazmun qo`shgan, uning obrazlilik, ta’sirchanligini ta’minlagan. Misollar: *obro`, narx-navo, inson, quvonch, lahza, shukuh, zo`r, bashara, anoyi, chapdastlik, o`rtakash, bechora, qiyin* kabilar (D.,5 (621)-son, 03.02.2011).

Feletondagi asosiy xususiyatlardan biri matnda yorqin frazeologizmlarning qo`llanishi hamdir. Matnda qo`llanilgan iboralarning askariyati jurnalist ijodkorligining namunasi deyish mumkin. Misollar: Diqqat, marhamat qiling, to`y, yo`g`-e, navbat talashayotgan “*birrovchi*”larni qiyimalagichdan o`tkazishni boshladik.

...hammasi bir vaqtda kelib olib, *navbat talashib o`rtakashni ham “xit! qilib yuborishadi.*

To`yda esa o`rtakash bechoraga qiyin. Ham “*birrovchi*”larga, ham “*dejumniy*”ning ko`ngliga qarab adoyi tamom bo`ladi.

So`rovnomamiz xulosasiga ko`ra, ko`pchilik faqat bitta xonandaning o`zi to`y o`tkazib berish tarafdori. “*Birrovchi*”lar turgan bitgani *bosh og`riq bo`lib qolayotgan ekan.*

Hurmatli “*birrovchi*” xonandalar bir kunda ikkita to`y olganingiz ma’qulov, aks holda uchinchisiga ulgurolmay hunob bo`lishingiz yoki hamkasbingizning *dilini ranjitib qo`yishingiz* mumkin.

Aytdim-a, nega buncha *bemaza “qovun”ning urugi ko`payib ketadiganday* qo`shiqchilarning soni kundan-kun ortib borayotgan ekan?! Gap bu yoqda ekanda! A, labbay, “*ko`ki”ning hidi yomon narsada-a...*

Bir-birini chekkaga tortib olib, rosa, “*razbor*” qilishdi. Ularning og`zidan chiqqan so`zlarni yozishga jazo etolmayapman. *Qalamim qimirlamay qoldi.* Nima bo`lganda ham ular madaniyat xodimlari-da. Uyat bo`ladi, deb o`yladim (D., 5 (621)-son, 03.02.2011).

Feletonning leksik-stilistik xususiyatlari, albatta, matn tahlilida, grammatik vositalar bilan uyg'un holda fikr yuritishda aniq ko`rinadi. Shuni hisobga olib, quyida matnning yaxlit tahlilini berishga urindik. Unda leksik-grmmatik vositalarning aralash tahlilini ham ko`rish mumkin.

4.2. Feleton janrining ayrim grammatik-stilistik xususiyatlari

Feleton janrining o`ziga xosligi unda badiiylik, obrazlilikning kuchli ifodalanishida ham ko`rinadi. Ayniqsa, so`roq va undov gaplarning o`rni bilan ishlatilishi stilistik ma`noni kuchaytiradi, ta`sirchanlikni ta`minlaydi. Misollar: Ey, baraka topkurlar, hammaga navbat tegadi, deyish noo`rin shu paytda. Hammasi o`zicha, "yulduz"cha Birov birovdan kam bo`lgisi yo`q. *To`y egasi-chi?! Unga bu — obro`.*

Aytdim-a, nega buncha bemaza, "qovun"ning urui ko`payib ketadiganday qo`shiqchilarning soni kundan-kun ortib borayotgan ekan?! Gap bu yoqda ekanda! A, labbay, "ko`ki"ning hidi yomon narsada-a...

Nima bo`ldi, deb qiziqayapsizmi? Bir-birini chekkaga tortib olib, rosa, "razbor" qilishdi. Ularning og`zidan chiqqan so`zlarni yozishga jazm etolmayapman. Qalamim qimirlamay qoldi(D., 5 (621)-son, 03.02.2011).

"O`zbek estradasida so`z tanqisligi" sarlavhali feleton nihoyatda dolzarb mavzu bo`yicha yozilgan bo`lib, unda hozirgi kunda barchaning e`tiborida bo`lgan kamchiliklarni tanqid va tahlil qilishga, tegishli xulosa chiqarishga bag`ishlangan. Feletonning e`tiborli tomoni unda faktlarning aniqligi, tahlilning asosligi gazetxonni mutolaaga undaydi. Mazkur feletonda ham so`zdan foydalanishga jiddiy e`tiborni ko`rish mumkin. Matndagi iboralar, ayniqsa, diqqatni tortadi. Misollar: *boshi aylanib qoladi, mazani qochiradigan tarona, axir aqlli bo`lish vaqti ham kelgan, bemaza odamga aylanib qolarkan, alahsirab qo`shiq aytsa ham bo`larkan-a, hamma yoqni kayfshunoslar egalladi* kabilar(D., 4(620-son), 27.01.2011).

Jurnalistning quyidagi sodda va ixcham jumalardagi fikrlari feletonning ta`sirchanligini oshirgan: *"Ba`zi qo`shiqlar boshlanishi "bilan sohilga qachon*

etarkanmiz, deb bosh qotira boshlaymiz. Keyingi paytda qo`shiqlarda "tegding, kelar qitig`i, shundan xayolim buzuqi", "uylanib olaman, dugonangizga", "o`zingga o`xshaydigan singling yo`qmi", "bugun uyingga boraman, akang bilmasin" kabi antiqa jumlar ko`p ishlatilmoqda. Hatto ba`zi shkafdek keladigan xonanda yigitlar televizorga chiqib olib sevgan yorlarini ochiqchasiga qarg`ashga o`tgan. Nima balo, shoirlarning zahirasida so`z tanqisligi yuzaga kelganmi?! Unaqamas-da endi... Mayli, buguncha etar, bo`lmasa hozir o`lay agar uvillab yuboraman. Ammo mavzuga yana qaytamiz"(D., 4(620-son), 27.01.2011).

*"To`y, o`rtakash, raqqosa, qistir-qistir – so`nggi rusumda"* sarlavhali feleton rukn ("Feleton") va 3 ta karikatura rasmlar bilan berilganligi uchun ham e`tiborni tez tortadi. Feleton shu kunning muammosi hisoblangan dolzarb mavzuga bag`ishlangan va ular haqida turli janrlarda(masalan, maqolada) ham fikr yuritiladi. Shuning uchun mavzuning qaysi qirasi qalamga olinganligiga e`tiborni qaratishga ishora berish matnni mutolaa qilishga undaydi. *Feletonda "O`-o`-o`r-takash", "Bir tumanda bitta", "Raqqosami, "pultopar"?, "So`nggi xabar"* kabi kichik sarlavhalar qo`yilgan. Ko`rinadiki, bu sarlavhalar feletonda yoritilgan masalalar ko`lami haqida birmuncha to`liq tasavvur beradi.

Feletonda til birliklaridan foydalanishda yarq etib ko`rinadigan holat yo`q, lekin neytral til birliklari qatorida ko`proq emotsional-ekspressiv til birliklarini qo`llashga, badiiy ifodalardan foydalanishga e`tibor berilgan. Misollar: *bosh qotirib, tushunmadimda, nomi ham otning qashqasidek hammaga tanish bo`lardi, ularning til boyligini adabiyot kitobiga sig`dirib bo`lmaydi. Ol-a, bu hoynahoy viloyatlarga tarqalayotgan yangi urf-ov. Bunday modadan ortda qolib ketish yaxshi emas.* kabilar(D., 2(618)-son, 13.01.2011).

Feleton janrida jonlilik, voqeani gazetxon ko`z o`ngida namoyon qilish ham muhim ahamiyatga ega. Voqea jarayonining ixcham, sodda, xalqona ifodasi matnning ta`sirchanligini ta`minlaydi. Shu jihatdan ushbu satrlarning feleton matnidagi o`rni kattaligini qayd etish mumkin: *"Eh, hozirgi erkaklar ham ahmoq emas, o`ynab turganga pul qistiradigan. Keyin raqqosa nima qiladi, ikkinchi rejani amalga oshiradi. Bari-bir pulni cho`ntakdan chiqarib olish uchun o`sha erkakning*

yonidan ketmaydi. Pul chiqavermagach, unga yanada suykala boshlaydi. Sho`rlik mijoz qizarib, bo`zarib, ozgina ichgan bo`lsa, kayfi ham tarqalib ketib, cho`ntagida borini chiqarib beradi. Erkak-da, oldidagilardan uyalib qolmasligi kerak. O`zim ham xotindan yashirib bo`lsa-da, o`yinchi uchun alohida pul solib qo`yaman. O`yinchi bamaylixotir ikkinchi stol atrofida yoniga siljiydi. Piyolaga quyib berilgan aroqni simirib, o`z ishida davom etadi. Lekin aslo ayollar o`tirgan tarafga o`tishmaydi. Ulardan foyda yo`qda. Qo`lingizda qistirilgan pulni tutib o`ynab turgan bo`lsangiz, atrofingizdan girdikapalak bo`lib ketmaydi. Agar ololmasa, qo`lingizdan yulib bo`lsa ham olib ketadi.

Yaqinda bir to`yga bordim. Ne ko`z bilan ko`rayki, raqqosasi o`g`il bola. Biram xirom ayladiki, yana ayollarning yoniga borib olgan. Bir ayol rosa pul qistirdi. Erining jahli chiqqanini ko`rib: — Qalay bo`larkan, o`yinchi qizlarni o`ynatib pulingizni sochardingiz-ku, — deydi mazza qilib kulib. Erkaklarning bo`lari bo`ldi (D., 2(618)-son, 13.01.2011).

Feleton janrining boshqa janrlardan farqi ularda badiiylilik, obrazlilikning kuchli ifodalanishida, badiiy asarga xos elementlarning ko`proq aks etishida hamdir. Badiiylilik ifodasi sifatida dialogik nutqdan foydalanishni ham misol qilib keltirish mumkin. “Chet elga chiptalar b-o-r” sarlavhali feleton boshidan oxirigacha dialogik nutqdan iborat, o`qilishi yengil, tushunish ancha oson. Misollar:

Har kungidek ishxonam tomon shoshib kelayotib yana o`sha manzaraga duch keldim.

- Bilet bor, bilet, bilet olmaysizmi, opa?

- Ey, bu kishi "Darakchi"da ishlaydi. Nima, ko`rmaganmisan, — dedi ikkinchisi sherigiga.

- Oka, bilet kerakmi? - dedi keyin boshqa o`tib ketayotgan erkakning ortidan. O`sha odam boshini qimirlatib “ha”, ishorasini qilgandi to`rt-besh erkak yugurib borib bilet taklif qila boshladi. Ularning orasida bir ayoli ham bor. O`ziyam erkakcha shunaqangi gaplashib qo`yadiki, ayol ekanligiga ba`zida shubha qilib qolaman. Ishlar ko`pligidan tushlik vaqti bo`lib

qolganini ham sezmay qolibman. Samarqandda yashaydigan dugonam telefon qildi.

- Rossiyaga borishga poyezdga bilek olib ber, ukam Moskvaga ketayotgan edi, — dedi u.

- Kelib kassadan olib, poyezdga minib ketaversin, qiyin joyi yo`q-ku, — dedim uning gapidan hayratlanib.

- Bilet menda, poyezd qayoqqa ketadi deysan-da. Haliyam haqiqatgo`yligingga borasan-da. Seni o`zgartirib bo`lmaydi. Kassada bilek olib bo`lmaydi. Hammasini allaqachon olibsotarlar egallab olishgan. Ishxonangning tagida o`tirishadi-ku.

- Ha, bo`pti, qachonga kerak? — dedim uning tanqididan norozi ohangda.

- Ukamni yuboraman, birga olib bersang bo`lgani.

Xullas, oradan ikki kun o`tgach, ukasi keldi. Oldin u bilan kassaga bordim. Bilet qolmagan ekan. Yigit menga najot kutganday tikildi. Nailoj olibsotarlarning oldiga bordik.

- Moskvaga bilek necha pul? - dedim har kuni ko`radigan kishiga.

- 400 ming so`m. Necha kerak? Qachonga ketish kerak?

- Narxini eshitib ikkilanayotganimizni ko`rib, qo`shib qo`ydi: - O`zining narxi 365 ming so`m. Lekin baribir kassadan tanishingiz bo`lmasa, ololmaysizlar. Siz uchun opa 400 ming so`mga beraman deyapman.

Xullas, biletni oldik. Tavba, bitta chiptadan shuncha foyda qilgani uchun ular kuni bilan shu yerdan qimirlamay o`tirisharkanda. Unda kassaning nima keragi bor?! Olib sotarlarning o`zi faoliyat yuritaversa bo`lmaydimi? Hammani ovorayu sarson qilmay, dedim o`zimga o`zim (D,.46(610) 18.11,2010).

Ma`lumki, jamiyatdagi salbiy illatlarni, inson xarakteridagi qusurlarni fosh etish feletonning ham asosini tashkil qiladi. Sheva elementlarining matn tarkibida qo`llanishi asardagi voqelikning o`rni va qahramonning tabiatini aks ettirish uchun

xizmat qiladi. Nutqning madaniy ko`rinishiga ta`sir qiluvchi unsurlardan biri – shevaga xos so`zlarning qo`llanilishi, doimo tilshunoslar uchun tadqiq manbai bo`lib kelgan. Kulgixona” rukni ostida bosilgan “*Chet elga chipta b-o-r*” nomli feletondagi voqelik Toshkentga xos ekanligini personaj nutqidan bilib olish qiyin emas. “- *Oka, билет kerakmi*” jumlasini buni ko`rsatib turibdi (D.,46(610) 18.11,2010).

Feleton matnida muhim stilistik vosita sifatida ishlatilgan so`z va iboralar mavjud. Misollar: “*O`rtakash o`rtani “gullat”moqda*”, “*..zap to`ylar bo`layaptida*”, “*...hamma unga “ko`z-quloq” ham bo`lishardi*”, “*Hozirchi, o`rtakashlikka ham “vibor” qilinmoqda*”, “*Men ularga “pultopar” deb nom qo`ygan bo`lardim*”, “*...o`z rejalari asosida “hujum”ga o`tishadi*”.

Nodavlat gazetalarida bir holat ko`zga tashlanadi. Ularda xalq jonli nutqidagi so`z va iboralardan keng foydalanishga intilish seziladi. Shuni ta`kidlash lozimki, tilimizning madaniylik darajasi gazeta tilida ham aks etilishi lozim. Ammo ayrim hollarda varvarizm va vulgarizmlarning ba`zan ko`plab ishlatilayotganligi matbuot tilining madaniylik darajasiga salbiy ta`sir etadi.

Mazkur materialda “Feleton” rukni ishlatilgan va feletonbop mavzu yoritilgan. Lekin unda feleton janriga xos xususiyatlarning ayrim jihatlari(tanqidiy materialning berilishi va bayoni) bor, xolos. U feleton janri talablariga to`la javob bera olmaydi, masalan, faktlarning aniqligi etishmaydi, obrazlilik ham etarli emas. Shuning uchun ushbu materialni tanqidiy xarakterdagi maqolaning bir turi, deb hisoblash mumkin.

“*Dollar olaman, dollar...*” sarlavhali materialga ham “Feleton” rukni qo`yilgan, lekin uning ba`zi jihatlari, aniqrog`i, material mavzusining tanqidiy ruhigina uni shunday nomlashga asos bo`lgan, deb hisoblash mumkin. Mavzu yaxshi yoritilgan, lekin faktlar aniq emas, umumiy “qahramon”lar qayd etilgan. Matn tahlili shuni ko`rsatadiki, unda til imkoniyatlaridan tanqidiy materialga xos unumli foydalanilgan, dialogik nutq, so`zlashuv uslubiga xos ifoda, badiiyligni ifodalashning boshqa jihatlari ko`rinadi. “*Oka*”, “*klen*”(kliyent), “*ko`ki*” kabi leksik birliklar o`rni bilan qo`llanilgan. Misollar: “*Pul qolmaganidan keyin nima qilamiz, a, labbay?* Albatta yig`ib qo`yganlarimizni maydalaymiz-da. Bu deganim, men

doim ortiqcha pulimni dollar qildirib qo'yishga odatlanganman. Bu odat ko'pchilikda bor, shubhasiz. Hattoki, bu anchadan beri moda bizda! Hech eskirmaydigan *m-o-d-a....*

- Qo'lingdan kelganini qil, *mang, oka*, pulni oling, biz o'zimiz hal qilamiz, — dedi ayol. Undan pulni oldimda, ortimga qaramay *juftakni urdim. Ayol kishining bir o'zini qoldirdingmi, nomard dersiz?* Nailoj, shunday qilishga majbur bo'ldim. Qutulganimga shukur qilib ishxonaga bordim. Chunki bilaman-ki, dollar olish ham, sotish ham qonunan taqiqlanadi. Ishxonamizdagi yigitga bo'lgan voqeani aytgan edim.

- Hammasining tili bir, milisiya bilan dollarchilar birga ishlaydi. Etibor bersangiz, bozorning yonida o'nta dollar sotadigan bo'lsa, birontasiga hech kim indamaydi. Vaholanki, o'sha manzaradan militsionerlar ham xabardor. Esiz, endi yana bozorga borishim kerak...(D., 50(614)-son, 16.12.2010).

“Darakchi” gazetasida bosilgan “Feleton” rukni ostidagi materiallarning aksariyati hayotimizda uchrab turadigan maishiy-madaniy muammolarning tanqidiga bag'ishlanganligi bilan e'tiborni tortadi. Ularning turmushimizdagi ayrim illatlarni tanqid ostiga olishi jihatidan ahamiyati katta. Lekin bu muammolar kundalik suhbatlar jarayonida, tanqidiy materiallarda maxsus yoki yo'l-yo'lakay aytilgan masalalardir. Ularga o'ziga xos zarba berish uchun feletonning tanqidiy kuchidan foydalanish zarur. Gazeta feletonlarining aksariyatida feletonning “tanqidiy kuchi”, “konkret nishon” – aniqlik etishmaydi. Shuning uchun ularni badiiy feletonlar turiga kiritish mumkin. Masalan, “Soch bo'yaymi, qosh teraymi?!” sarlavhali feletonda erkaklarning soch bo'yatishi, qosh terdirishi kabilar tanqid ostiga olingan. Mavzu dolzarb muammoning bayoniga bag'ishlangan, til birliklaridan unumli foydalanilgan. Masalan, “*Ayolning joni qirqta*”, “*gap sotmoq*”, “*sartarosh qizga “portladim*”, “*...ming'irlashiga e'tibor bermay*” kabi frazeologik birikmalar feletonning badiiy qimmatini oshirish uchun xizmat qilgan. Shuningdek, turli ko'chim, badiiy-stilistik xususiyatga ega birliklardan ham foydalanilganki, ular feletonning jonliligini va ta'sirchanligini ta'minlagan.

Lekin, fikrimizcha, feletondagi tanqid kuchi etishmaydi. Misollar: “*Erimning ming'irlashiga e'tibor bermasdan sartaroshxonaga yo'l oldim. Bir oyda*

bir uydan chiqib, ishimni bitira olmayman-a. Sartaroshxonaga kelib navbatga turdim. O`z xayollarim bilan bo`lib, mijozlarga e`tibor bermabman. Ne ko`z bilan ko`rayki, bir yigit sochini bo`yatib, boshiga sellofan kiyib o`tiribdi. Jimgina kuzatdim. Yigit ketishi bilan hayratimni yashirolmay, sartarosh qizga “portladim”.

Tavba, erkaklar ham soch bo`yatishyaptimi? Ayollar sartaroshxonasida-ya?!

- Ha, endi ko`rishingizmi, hozir yigitlardan ham mijozlarim ko`paygan. Ulardan pul olish osonroq. Ayollar savdolashib o`tiradi, - dedi sartarosh qiz o`z tashvishida. Ey, bunisi hali holva, hozir qoshini terdirib ketadiganlari ham bor.

- Nima? Meni ahmoq qilyapsizmi?

Shu payt eshikdan 25 yosh atrofidagi yigit ko`rindi.

- “Ochered”mi? - dedi do`rillagan ovozi bilan.

- Nima qildirmoqchisiz, shunga qarab vaqt belgilab qo`yaman.

- Soch, qosh.

- Unda soat uchda keling, — deya daftariga belgilab qo`ydi.

Ana xolos, ne kunlarga qoldik, a? Bora-bora erkak va ayollarning sartaroshi bitta bo`lib ketadi-yov, bu ketishda. Natija yomon emas. Faqat sartaroshlar ayol bo`larkanmi yoki erkak?! Agar bobolarimiz Alpomishmi yoki Jaloliddin Manguberdi ko`rib qolishsa bormi, o`z avlodlarining qilmishidan uyatdan tarixda bitilgan nomlarini ham o`chirib tashlashsa kerag-ov.

- Buncha kech qolib ketding, - erim qovoq uyib qarshi oldi.

- Erkaklardan navbat tegmadi-da, — dedim xo`rsinib. Erim gapimni eshitib tushundi yo tushunmadi, bolalarning chug`urlashib yonimga kelishganiga nari ketdi... (D., 4(620)-son, 27.01.2011).

Ko`rinadiki, tanqidiy materialda qalamga olingan masala tilimiz imkoniyatlaridan foydalanib, badiiylik, obrazlilik nuqtai nazaridan yaxshi yoritilgan, lekin feletonga xos aniqlik etishmaydi. Yana bir holat. “Darakchi” gazetasida “Feleton” rukni ostida bosilgan materiallar dolzarb mavzuga bag`ishlangan bo`lsa-da, nihoyatda qisqa satrlarda(hajman kichik) bayon etilgan.

Ularning deyarli barchasi hajviy(tanqidiy) materialni eslatadi. Fikrimizcha, ushbu holat gazetaning asosan axborot yetkazish, gazetxonning madaniy hordiq chiqarishiga mo'ljallanganligi bilan izohlansa kerak.

E'tiborli tomoni shundaki, "Darakchi" gazetasida "Jinoyat va jazo", "Qonun nomi bilan", "Qonun barchaga barobar" ruknlari ostida bosilgan barcha tanqidiy materiallarning mavzulari, ularda bayon etilgan voqea tafsilotlari, tahlillar, tegishli xulosalarning barchasi feletonbop. Lekin ular tanqidiy maqola, material sifatida nashr etilgan. Yana bir jihati ularning deyarli barchasida voqea ishtirokchilarining ismi va familiyalari o'zgartirilgan.

"Bir "muhabbat"... kasofaati yoxud ismidan avval narxi qo'yilgan chaqaloq, uning yorug' dunyoga kelishidan avvalgi va keyingi voqeliklar xususida" sarlavhali tanqidiy materialning sarlavhasi va uning boshlanishidagi quyidagi jumla e'tiborni tortadi: *"Farg'ona viloyatida sodir etilgan ushbu jinoyat bayoni yengil o'qilsa-da, ammo yuki belni chiqarishi mumkin...."*. (D., 8 (684)-son, 19.04.2012).

Ushbu materialda ham aniq faktlar asosida fikr yuritilsa-da, "qahramon"larning nomlari o'zgartirilgan, bu holat ham feleton janri talablariga mos kelmaydi. Lekin badiiylik va obrazlilik nuqtai nazaridan jurnalistning o'ziga xos mahorati sezilib turadi. Misol: "Nainki ona suti, hatto hidini tuymay o'zga qo'llarga o'tdiki, savol tug'iladi: go'dakning gunohi nimada?.. Shunday ekan, keling, shu norasida hurmati, voqea sodir bo'lgan joyni aniq ko'rsatmaylik, uni sotgan-u, sotib olgan shaxslarning ham ism-familiyasini o'zgartiraylik. Qolaversa, qonunning talabi shu: farzandlikka olinganlik sir saqlanishi kerak. Aks holda, javobgarligi bor. ...A'lo va Rustamni nima bog'lagan edi? Muhabbatmi?.. Yo'g'-a, muhabbat hissi o'rtadagi jamiki chegaralarni buzib-yanchaversa, hirsdan nima farqi qoladi?! (D., 8 (684)-son, 19.04.2012).

Mazkur tanqidiy materialda emotsional-ekspressiv leksik birliklar, iboralardan unumli foydalanilgan. Misollar: *bunday "mazza"ning "azasi" o'zini ko'p kuttirmadi, g'isht qolipdan ko'chgani, xamirdan qil sug'urganday oson bitdi, dollarni qurtdek sanab berdi, shalvirabgina ortiga qaytdi, oyog'ingni yerga tekkizmay "tiqib" qo'yadilar" kabilar* (D., 8 (684)-son, 19.04.2012).

Yuqoridagi kabi tanqid kuchi o'tkir, mavzu dolzarb, voqea tafsilotlari ayanchli, xulosalar aniq bayon etilgan bir qancha tanqidiy materiallar bosilgan. Ularni feleton janri talablari asosida qayta ishlab, "Feleton" rukni ostida nashr etilsa, tanqidning kuchi yanada oshgan bo'lardi. Masalan, "Boyqo'rg'on "cho'rilari" qo'shmachi, oqsoqol va inspektor faoliyatining ayanchli xotimasi" sarlavhali tanqidiy material nihoyatda dolzarb mavzuga bag'ishlanganligi bilan e'tiborni tortadi. Mavzu tanqidiy materialning boshlanishdagi quyidagi satrlaridan ma'lum bo'ladi va u gazetxonni matn bilan tanishishga undaydi: *"Tasavvur qiling, badfe'l va badxulq ayol bir necha bor "o'tirib" chiqqan gumashtalari bilan yosh qizlarni tutqunlikda saqlab, fohishalik qilishga majbur qiladi. Ularning surobini tortib qo'yishiga mas'ul mutasaddilar esa bunday qabih manzarani ko'rib, o'zlarini ko'rmaslikka olishadi... Bu xorij kinosidagi lavha yoki odam savdosidek jinoyat qurbonlarining mungli hikoyasi emas. Aynan shunday jinoyat Toshkent shahrining qoq markazidagi mahallalarning birida fosh etildiki, buni bir qarashda tasavvurga sig'dirish qiyin. Rost-da, odam (savdosiga qarshi kurashish, buning oldini olishda profilaktika inspektori va mahalla fuqarolari yig'ini mutasaddilari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklatilgan bir paytda ularning o'zi (!) shunday jinoyat etagini tutganlarning qilmishlarini yashirib, "tegirmoniga suv quyishi"... qaysi aqlga sig'adi?! Holbuki, jinoiy guruh anoyilardan tashkil topmagandi. Tanishamiz. Gulsinoy Shokirova—o'ttiz sakkiz yoshda. Olti farzandning onasi. Shu choqqacha talonchilik, bezorilik, qo'shmachilik, firibgarligu bosqinchilik jinoyatlari uchun bir emas, uch bora sudlangan. Qizig'iki, oxirgi sud aktiga ko'ra, u sakkiz yil (!) ozodlikdan mahrum etish jazosiga tortilgan bo'lib, hukm ijrosi 2011- yil 1- martigacha kechiktirilgandi... Shu o'rinda izoh berib o'tsak. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksining 533-moddasida ("Hukm ijrosini kechiktirish") homilador yoki yosh bolali mahkumalarga nisbatan chiqarilgan ayblovlar hukmi muayyan muddatga kechiktirilishi mumkinligi qayd etiladi. Shu paytgacha sudlanaverib-sudlanaverib... amnistiyayu boshqa engilliklarda "haqi qolmagan" G.Shokirovaning bor-yo'q ilinji qonunning mazkur normasidan unumli foydalanishda qolgandi. Bunga muvaffaq bo'ldi ham: 2008- yilda chiqarilgan hukm ijrosi bo'lib-bo'lib, jami uch yilga kechiktirildi!.. Nachora qonun bolani qaydan yoki kimdan orttirding,*

demasa, qolaversa, homilador bo'lish uchun ortiqcha "riyozat" chekilmagandan keyin shu-da! Ayolning uddaburoligidan hayratga tushmay ilojing yo`q. Yana bir hayrat shuki, G.Shokirova panjara ortiga ketish muddatini kun sanab, yurak hovuchlab kutmadi. Aksincha, bo`ynida o`tmagan sakkiz yillik jazo turganiga qaramay, avvalgilaridan ham battarroq jinoyatlarga qo`l urdiki, nima balo, bu ayolning tanglayini advokat ko`tarib, qulog`iga soqchi azon aytganmi, degan xayolga borasan kishi... Uning "o`ng qo`li" bo`lgan Sulton Ziyametovning ham "bekasi"dan qolishadigan jihati yo`q: o`g`rilik qilaverib-qilaverib, uch bor qora kursiga o`tirishi natijasida "o`ta xavfli residivist" darajasiga etgan! Ular tomonidan guruhga jalb etilgan Zoir Kabirov hali "ona suti og`zidan ketmagan" bola bo`lishiga qaramay, unga ham tergov idoralari begona emas: o`n to`rtga to`lib-to`lmay talonchilik jinoyatiga qo`l urib, amnistiya tufayli jazodan qutulib qolgandi..." (D., 8 (684)-son, 19.04.2012).

Ushbu matndan ayon bo`ladiki, jinoyatchilar uncha-muncha qonunbuzarlar toifasidan emas, ular, aytish mumkinki, ashaddiy jinoyatchilardir. Voqea tafsiloti, "qahramon"larning jirkanch basharasi jurnalist mahorati tufayli tilimiz imkoniyatlaridan, ayniqsa, salbiy emotsional-ekspressiv bo`yoqdor so`zlar, iboralar, so`roq gaplardan unumli foydalanish bilan yozilgan. Matnda "qo`shtironoq"ning o`ziga xos uslubiy jihatlari ko`rinadi. Tanqidiy materialda badiiylilik kuchli ifodalangan. Misollar: "Alqissa jazo ijrosini kechiktirishga muvaffaq bo`lgan Gulsinoy Shokirova erta bir kun baribir panjara ortiga ravona bo`lishini bilibmi, ishqilib, "ketar jafosi"ga pul yig`ish harakatiga tushdi. Oliy ma`lumotli pedagog shahodatnomasiga ega bu ayolning maktabda "o-na", "a-na", deb kun o`tkazishiga ishonish qiyin, albatta. Shu bois ham "eski hunari" - qo`shmachilikni yanada "yuqori pog`ona"ga ko`tarishga ahd qildi.

Pandavaqi bir bolaning "xos soqchi" deyilishi ensani qotirdi, a?.. Izoh beramiz: qizlar asosan tunda "ishlagani" bois kun bo`yi ijaraga olingan uyda bo`lishar, agar hushyorlik andak boy berilsa, juftak rostdashi ehtimoli yuqori edi. Negaki, Gulsinoy qahri yomon "mama roza"lardan bo`lib, "ish"ga chiqishdan bo`yin tovlagan yoxud kunduzi kelgan mijozga "xizmat" ko`rsatishdan bosh tortganlarni ba`zan o`zi, ba`zan gumashtaga

buyurib kaltaklalar, "mehnati"ga yarasha pul bermas, oziq-ovqatining mazasi yo`q, xullas, xorligu xo`rlik etarli edi bu yerda. Zoirning asosiy ishi kunduzi qizlarning har bir xatti-harakatidan voqif bo`lib, vaziyatga qarab, favqulodda choralar ko`rish ediki, "beka"ning unga nisbatan o`zgacha mehri boisi shunda edi, chamasi...Bu baxtiqarolar haqida nimayam deyish mumkin?! Biri oiladagi muhit nobopligi, yana biri onasining kasofatiga, boshqasi sodda-ishonuvchanligi oqibatida G.Shokirovaning qo`lida ne ko`ylarga tushishmadi?! Qizlar orasida voyaga yetmagani ham bor ediki, beixtiyor "dod!" devorasan kishi...".(D., 14(682) 05.04.2012).

Mazkur tanqidiy material mavzusi va voqea tafsilotlari jamiyatda ildiz otayotgan eng jirkanch illatning bayoni bo`lib, u feletonbop hisoblanadi. Lekin feleton janri talablariga mos yozilgan bo`lsa-da, uning quyidagi izohi tanqidiy maqola, deyishga asos bo`la oladi: "R\$. Mavzu inson sha'ni va shaxsiy hayotiga bevosita bog`liq bo`lgani bois maqoladagi barcha ism-familiyalar o`zgartirildi(D., 14(682) 05.04.2012).

"Darakchi" gazetasida bu xildagi tanqidiy materiallar - feletonbop voqealar ifodalangan mavzular feletonga nisbatan ko`proq nashr etilganligini ko`rish mumkin. Misollar: "Jinoyat va jazo" rukni ostida bosilgan "Chaqaloqfurushlar qo`lga tushdi"(D.,12 (628), 24.03.2011), "Qonun nomi bilan" rukni ostida nashr qilingan "Qonun himoyachisi qonunni buzsa (D., 12 (628)-son, 24.03.2011), "Nega tergovchi panjara ortiga jo`natildi?" (D., 23(639)-son, 09.06.2011), "Qonun barchaga barobar" rukni ostida nashr etilgan "Qora bozor" oralab...." (D., 21(637)-son, 26.05.2011), "Jinoyatga jazo muqarrar" rukni ostida e`lon qilingan "Omadi chopmagan firibgar" (D., 21(637)-son, 26.05.2011) sarlavhali tanqidiy materiallarni, mavzusi va ifodasiga ko`ra bermalol feletonbop, deb hisoblash mumkin.

Xullas, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy-ma`rifiy turmushini aks ettirishda, ayrim illatlarni tanqid ostiga olib, bartaraf etishda feleton janrining alohida o`rni bor. Ammo nodavlat gazetalarida, jumladan, "Darakchi" gazetasida feleton janri namunalari kam uchraydi. Ularning aksariyati kichik hajmli adabiy feletonlardir. Gazetada bosilayotgan tanqidiy materiallarning aksariyatini feleton janri talablari asosida ozgina qayta ishlab, "Feleton" rukni

ostida bosish mumkin. Bu bilan tanqidiy materialning ta'sirchanligi yanada oshadi, gazetaning o'qimishliligi ortadi.

UMUMIY XULOSA

OAV jamiyatning ko'zgusi hisoblanadi. Bugungi hayotimizni matbuotsiz tasavvur qilish qiyin. XXI asrning "axborot asri" deb nomlanayotgani ham buni isbotlab turibdi. OAV, jumladan, gazeta tilini o'rganish har doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, gazeta tilini tadqiq qilish adabiy tilni o'rganish va uning imkoniyatlarini yuzaga chiqarishning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Badiiy-publitsistik janrlar va ularning lingvistik xususiyatlari davlat gazetalarini materiallari asosida o'zbek tilshunosligida etarlicha o'rganilgan bo'lib, shu tadqiqotlarning xulosasi sifatida bir necha monografiyalar nashr etilgan va dissertatsiyalar himoya qilingan. Ammo mustaqillik davri OAVda o'ziga xos o'rin egallovchi nodavlat gazetalarida ushbu janrning lingvistik xususiyatlari alohida dissertatsion tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

Nodavlat gazetalaridagi badiiy-publitsistik janr materiallari boshqa ijtimoiy-siyosiy gazetalaridan farqli jihatlariga ega. Jumladan, nodavlat gazetalarida badiiy-publitsistik janr imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, janr talabiga javob berish, tildan foydalanish holati, hajmi kabilarda sezilarli farqlar bor.

Badiiy-publitsistik janrlar orasida lavha ijtimoiy hayotni jonli tasvirlashda yetakchi o'rinni egallaydi. Axborot janrlariga yaqin xususiyatlarga ega bo'lgan ushbu janrning ifodalanishi OAVda farqlanadi. Davlat ijtimoiy-siyosiy gazetalarida lavha janri namunalarini yetakchi mavqega ega bo'lib, faol qo'llaniladi. Nodavlat "Darakchi" gazetasida lavha janrida juda kam materiallar nashr etilgan. Bundan tashqari, davlat va nodavlat gazetalarida lavhalar mavzu jihatidan ham farqlanadi. Bevosita jarayonni aks ettirishda davlat gazetalarida tanlanadigan mavzular, asosan, ijtimoiy-siyosiy voqealar bo'lsa, nodavlat gazetalarida madaniy-ma'rifiy jarayonlardir. Nodavlat gazetalarida adabiyot, san'at va madaniyat namoyondalari hayoti, turli tadbirlarga oid mavzular yetakchi mavqeda lavha janriga obyekt bo'la oladi.

Lavha janrining lingvistik xususiyatlari boshqa badiiy-publitsistik janrlardan ham farqlanadi. Turli ijtimoiy-siyosiy terminlar, jarayonni aks ettirishda

boshqa til elementlaridan foydalanishiga qarab, axborot janrlariga xos xususiyatlarning borligi ham ushbu janrning xarakterli xususiyatlaridan biridir.

Nodavlat gazetalarda badiiy–publitsistik janrlarning berilishida ham farqli jihatlar mavjud. Ayrim janrlar, misol uchun, ocherk janrning ko`pgina turlari – safarnoma-ocherk, badiiy ocherklar deyarli uchramaydi. Jumladan, “Darakchi” gazetasining 100 dan ortiq sonida (2009-2011 – yillar) birorta ham bunday mazmundagi materiallar yo`q. Ammo sud ocherki janrida ko`plab materiallar bosilgan.

Badiiy – publitsistik janrlardan sud ocherkining faol qo`llanishi jamiyatdagi talablar bilan bog`liq. Ijtimoiy hayotdagi demokratik jarayonlar, avvalo, matbouda aks topadi. Xususan, sud jarayonining ochiqligi ham demokratiya talablari bilan bog`liq. Sudning ochiqligi sud ocherklari asosida amalga oshiriladi. Bu fikrni “Darakchi” materiallari orqali to`la dalillash mumkin.

Sud ocherklariga xos matnlar tarkibida badiiyligni ta`minlash uchun badiiy til unsurlari – ko`chimlar, emotsional-ekspressiv birliklar va iboralardan foydalanish bilan birga rasmiy-idoraviy uslublarga xos bo`lgan ijtimoiy-siyosiy birliklardan ham keng foydalaniladi. Bu holat turli qonun, me`yoriy-huquqiy hujjatlar va talablar bilan bog`liq bo`lib, sud jarayonini to`la aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Feleton gazeta janrlari orasida eng o`qimishli va ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan janrdir. Nodavlat OAVda, jumladan, gazetalarda feleton ham mazmun ham shakl jihatdan janriy o`zgarishlarga uchragan. “Darakchi” gazetasida feletonlar, asosan, “Kulgixona” ruknida berilgan. Ushbu feletonlar ixchamligi va til xususiyatlari bilan ham alohida xususiyatlarga ega. Lisoniy birliklardan foydalanishda turli ko`chimlar, iboralardan keng foydalanilgan. Ayrim frazeologik birliklar matn mavzusidan kelib chiqib, lingvistik o`zgarishlarga uchragan. Lekin ularning deyarli barchasi adabiy feletonlardir.

Nodavlat gazetalardagi feletonlarda varvarizm, jargonlar, shevaga xos elementlar va vulgarizmlardan keng foydalanilgan. Bu noadabiy qatlam birliklari tilimizning madaniylik darajasini belgilovchi omillardan biridir. Matbuotning

birlamchi xususiyatlaridan biri o`quvchilar auditoriyasida savodxonlik va ma`rifiylikni targ`ib qilish ekanligini inobatga olsak, bunday birliklardan foydalanish OAV tiliga jiddiy salbiy ta`sir ko`rsatadi. Ammo bunday noadabiy qatlam birliklari satira orqali tanqid qilingan obyektning qiyofasini to`la tasavvur qilishda keng imkoniyat yaratgan.

Nodavlat gazetalarda bosilgan ko`plab tanqidiy materiallar feletonbop hisoblanadi. Lekin ularni janr talablariga ko`ra qayta ishlab, "Feleton" rukni ostida nashr etish mumkin. Bu bilan tanqidning ta`sir kuchi yanada oshadi.

Umuman, badiiy-publitsistik janrlar OAVda keng iste`molda bo`lgan turlardan biridir. Ushbu janrda til uslublarining barchasiga tegishli birliklar, jumladan, ijtimoiy-siyosiy leksika, rasmiy-idoraviy, publitsistik uslublar imkoniyatlaridan o`rni bilan foydalanilgan. Ammo badiiy uslubga xos iboralar, ko`chimlar, nutqiy qochirimlar, emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi birliklarning qo`llanish darajasi yetakchi mavqega ega. Nodavlat gazetalarda badiiy-publitsistik janrlar imkoniyatlarini o`rganishda kelgusida til birliklarining funksional xoslanish nuqtai nazaridan monografik aspektda kengroq o`rganish vazifasini kun tartibiga qo`yadi. Dastlabki tadqiqotimizni kelgusida davom ettirish niyatidamiz.

ADABIYOTLAR:

Siyosiy adabiyotlar:

1. КАРИМОВ И. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
2. КАРИМОВ И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
3. МАМЛАКАТИМИЗДА демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепсияси. Президент Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қўшма мажлисидаги маърузаси. 12 ноябр 2010 йил. «Халқ сўзи» газетаси, 13 ноябр.

Ilmiy va o`quv adabiyotlar:

4. АБДУАЗИЗОВА Н. Мустақил Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2002.
5. АБДУАЗИЗОВА Н. Мустақил Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2007.
6. АБДУСАИДОВ А. Язык газеты и литературная норма : Автореф. дис....канд.филол.наук - Ташкент, 1988. – 21 б.
7. АБДУСАИДОВ А. Газета тилининг лексик-стилистик хусусиятлари. – Самарқанд: СамДУ. 1991. – 80 б.
8. АБДУСАИДОВ А. Газета сарлавҳаси (Газета сарлавҳаларининг структур-грамматик ва лексик-стилистик хусусиятлари). – Самарқанд: СамДУ. 1995. – 120 б.
9. АБДУСАИДОВ А. Газета жанрларининг тили ва услуби. Монография. – Самарқанд, 2001. – 192 б.
10. АБДУСАИДОВ А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. Монография. – Самарқанд. 2004. – 102 б.

- 11.АБДУСАИДОВ А. Матбуотда адабий нормага риоя қилиш муаммолари. – Самарқанд, 2001. – 56 б.
- 12.АБДУСАИДОВ А. Матбуот тили маданияти. – Самарқанд, 2002. – 96 б.
- 13.АБДУСАИДОВ А. Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти. – Самарқанд, 2008. - 120 б.
- 14.АБДУСАИДОВ А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан.докт.дис. автореф. – Самарқанд, 2005. - 48 б.
- 15.БЕГМАТОВ Е., БОБОЕВА А., АСОМИДДИНОВА И. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент: Фан.1983. – 152 б.
- 16.БОБОЕВА А. Газета тили ҳақида. – Тошкент: Фан. 1983. – 55 б.
- 17.ДЎСМУҲАММЕДОВ Х.Н. Журналистнинг касб одоби муаммолари: назарий-методологик таҳлил (Мустақиллик даври ўзбек матбуоти фаолияти мисолида. 1991-2008 йиллар): Филол.фан.докт.... дис. автореф. – Тошкент: ЎзМУ. 2008.
- 18.МАМАТОВА Я.М. Ўзбекистон даврий матбуоти: тизими трансформацияси, фаолияти тенденциялари ва муаммолари (1991-2010 йиллар материаллари асосида). Филол.фан.докт... дис.автореферати. – Тошкент, 2011. - 56 б.
- 19.ОММАВИЙ ахборот воситалари типологияси. – Тошкент: ЎзМУ, 2000.
- 20.ОММАВИЙ ахборот воситалари назарияси. – Тошкент: Университет, 1999.
- 21.РАҲИМЖОНОВ Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент, 1995.
- 22.ТЕШАБООЕВА Д. Оммавий ахборот воситаларида нутқ маданияти. – Тошкент: Фан ва технология, 2011.
- 23.ТОШАЛИЕВ И. Сарлавҳа стилистикаси. – Тошкент, 1995.
- 24.Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. Дарслик. –Тошкент: Шарқ, 2002.
- 25.УСАРОВ О.А. Оммавий ахборот воситаларида суд процессларини ёритиш муаммолари (назарий-методологик таҳлил). Филол.ф.номз. дис.автореферати. – Тошкент, 2009. – 27 б.;

26. ХУДОЙҚУЛОВ М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Тафаккур, 2010.
27. ХУДОЙҚУЛОВ М. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2008.
28. ҚОСИМОВА Н., ТОШПЎЛАТОВА Н., ШОФАЙЗИЕВА Н., МУРАТОВА Н. Босма ахборот воситалари таҳририятлари учун қўлланма. – Тошкент, 2008, 44-78-бетлар.
29. ШОМАҚСУДОВ А., РАСУЛОВ И., ҚЎНҒУРОВ Р., РУСТАМОВ Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
30. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ. 5 жилдлик. – Тошкент, 2006.
31. www.uznet.biz/wyebland/pressa - gazetachilik tarixi
32. www.portal.nuu.uz/jurnalistika/index.php?page=42 - Jamiyatning globallashuv sharoitida matbuotning ma ... - Jurnalistika
33. www.uzhurriyat.uz/jurnalistika/davr_bilan_hamqadam_bolaylik.mgr
34. www.jurnalistika.zn.uz – O`zDJTI xalqora jurnalistika fakulteti portali.
35. <http://www.ziyonet.uz/uzc/library/libid/21000> - jurnalistik nazariyasi va asoslari.
36. <http://www.ziyonet.uz/uzc/library/libid/21000> - jurnalistika gumanitar fan sifatida
37. <http://www.darakchi.uz> – “Darakchi” gazetasining veb-sayti.
38. <http://www.ocherk.com> - Blog Wyeb-razrabotchika
39. <http://www.ru.wikipedia.org/wiki/Feleton>
40. www.lib.ua-ru.net/diss/cont?286468/Sintaksis gazetnogo zagolovka: struktura, semantika, prognozirovaniye smyslovogo razvitiya teksta.
41. www.1001referat.ru/iskustvo/10449. Stilisticheskiye osobennosti gazetnykh zagolovkov.
42. “Darakchi” gazetasining 200 dan ortiq sonlari.

MUNDARIJA

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.....	4
1. BADIY-PUBLITSISTIK JANRLAR TADQIQINING NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1. Jahon tilshunosligi va o`zbek tilshunosligida gazeta janrlari tadqiqi.....	19
1.2. Badiiy-publitsistik janrlarning o`ziga xos xususiyatlari.....	23
 2. LAVHA JANRINING STILISTIK XUSUSIYATLARI	
2.1. Lavha janrining leksik-stilistik xususiyatlari.....	28
2.2. Lavha janrining grammatik-stilistik xususiyatlari.....	39
 3. OCHERK JANRINING STILISTIK XUSUSIYATLARI	
3.1. Ocherk janrining leksik-stilistik xususiyatlari.....	48
3.2. Ocherk janrining grammatik-stilistik xususiyatlari.....	57
 4. FELETON JANRINING STILISTIK XUSUSIYATLARI	
4.1. Feleton janrining leksik-stilistik xususiyatlari.....	60
4.2. Feleton janrining grammatik-stilistik xususiyatlari.....	70
 Xulosa.....	82
Adabiyotlar.....	85

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

NURMONOV FURQAT HAYITQULOVICH

**BADIIY-PUBLITSISTIK JANRLARNING
STILISTIK TADQIQI
(Nodavlat gazetalari materiallari misolida)
5A220102 – Lingvistika (O`zbek tilshunosligi) mutaxassisligi**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar

A.Abdusaidov

SAMARQAND - 2012